

IBROHIM KARIMOV

**FALSAFA FANIDAN
LEKSIYA MATNLARI**


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBROHIM KARIMOV

FALSAFA FANIDAN LEKSIYA MATNLARI

(Oliy o'quv yurtlari yosh muallimlari, va bakalavrлari uchun 2003-yilda nashr etilgan uslubiy qo'llanmaning yangi, to'ldirilgan, takomillashtirilgan ikkinchi nashri)



TOSHKENT – 2014

Karimov Ibrohim, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti «Falsafa» kafedrasining professori, falsafa fanlari doktori, Turon Xalq akademiyasining akademigi tomonidan tayyorlangan falsafa fanidan va’z (lektsiya) mantlari. Uslubiy qo‘llanma.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2013 yil, 24 may 12-raqamli yig‘ilishida muhokama qilinib, uslubiy qo‘llanmaning yangi nusxasi nashrga tavsiya etilgan.

Oliy o‘quv yurtlari yosh muallimlari falsafa fanidan va’z (lektsiya) o‘qish va amaliy mashg‘ulotlar olib borishlari hamda bakalavriat talabalarining bu fanni o‘zlashtirishlariga yordam tariqasida yozilgan ushbu uslubiy qo‘llanmaning 2-nashrida hozirgi zamон ilg‘or falsafiy fikrlari imkon doirasida o‘z ifodasini topishiga harakat qilingan. Bundan falsafa faniga qiziquvchi boshqa ixtisos egalari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: Falsafa fanlari doktori, professor **A.E.Abdusamedov**,
Falsafa fanlari nomzodi, professor **I.Hakimov**.

MUQADDIMA

Tabiat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan jamiyat o‘z taraqqiyotining yangi, yuqori bosqichi – Noosfera davriga kirdgani inson omilini tobora birinchi o‘ringa chiqarib qo‘ymoqda. Odamzot o‘z aql-idrokini, dastavval uning mevasi bo‘lgan fan-texnika yutuqlarini batamom bunyodkorlik, yaratuvchilik va ezhulik tomonga burib yubora oladimi-yo‘qmi – hozirgi davrda ana shu savolga asosli javoblar topish hayot-mamot masalasi bo‘lib turibdi. Skeptiklar endilikda boshi berk ko‘chadan chiqib ketish amri mahol, degan fikrlarni ilgari surayotgan bo‘lsalar, odamzotdagi yaratuvchilik quvvati (energiyasi)ga ishongan taraqqiy parvar faylasuflar kelajakka umid bilan qarash ruhini odamlar, xususan, yoshlar ongiga singdirish, ular aqliy salohiyotini butunlay bunyodkorlik tomonga burib yuborish uchun ilmiy-falsafiy dunyoqarash asnosida imon-e‘tiqodli barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o‘rtaga tashlamoqdalar.

Buyuk vatandoshimiz Zardusht Sepitoma «Avestoda olamda ikkita ruh – ezhulik va yovuzlik ruhi abadiy kurashadi va bu kurashda odamzot yo u, yoki bu tomonda turishga majbur, degan edi. U zoti boborakat qachonlardir ezhulik yovuzlik kuchlari ustidan tantana qiladi, deb bashorat etgan va bunda A’lo odam shaxsi faoliyatiga ulkan umid bilan qaragan edi. Odam ongi, ahvoli ruhiyasi (psixologiyasi)da bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o‘zaro kurashi jarayonida bo‘lishiga e’tiborni qaratib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bunday degan edi: «Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vaxshiylik, ur-yiqt instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo‘zg‘otib yuborish osonroq»¹.

Tarixdan yana shu narsa ma’lumki, ilg‘or g‘oyalardan ruhiy oziq olib, yuksak maqsadlar bilan yashamaydigan odamlarda ko‘pincha og‘irroq, mushkulroq yumushlardan o‘zini chetga olish, hoziriyu huzuri deb osonroq, beozorroq yumushlarga og‘ib ketish mayllari kuchlidir. Mana shu holatlarni albatta e’tibordan soqit qilmay, barcha odamlar faoliyatini ezhulik, bunyodkorlik tomonga burib yuborishda ijtimoiy fanlar, avvalo falsafa fanining betakror o‘rnini borligini ta’kidlash

¹ Prezident Islom Karimovning «Fidokor» gazetasi, 2000-yil 8-iyun sonidagi inervyusidan

lozim. Chunki odamni bir butun holicha yalpi o'rganadigan insonshunoslik fani hali-hozir shakllanmagani sababli, boshqa fanlar dalillari va xulosalariga tayanib turib, falsafa fani ushbu funksiyani ham bajarib kelmoqda.

Shu sababli 2003-yilda «Falsafa fanidan va'z (lektsiya) matnlari» tayyorlab, jamoatchilik hukmiga havola etgan edik. Bu matn Oliy o'quv yurtlarining 1-bosqich bakalavriat talabalariga mo'ljallangani sababli, uni ba'zi o'quv qo'llanma va darsliklardagi kabi murakkab akademik tilda yozishni lozim topmadik. Bakalavriat 2-bosqichidagi talabalar tushunadigan tilda yozilgan bu qo'llanmadan foydalanyotgan talabalarning falsafa faniga qiziqishlari yanada ortib, o'zlashtirish ham nisbatan yaxshi bo'layotganini professor-muallimlar ta'kidlashmoqda.

Qo'llanma chiqqaniga 10 yil bo'lgani bois kutubxonalarda ular juda oz miqdorda qoldi. Shuning uchun bu uslubiy (metodik) qo'llanmaning yangi, takomillashtirilgan nusxasini tayyorlab, ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etgan holda talabalarning falsafa fanidan o'zlashtirishlari yanada yuqori bo'lishiga ushbu asqotishiga ishonamiz.

Mustaqillikni nazariy, ma'naviy-ruhiy jihatdan mustahkamlash, odamlarni aniq maqsadlar sari uyushib harakat qilishlariga erishish uchun o'tgan 23 yil badalida talay ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, sobiq Sho'rolar davrida sinfiylik (partiyaviylik) tamoyillariga qattiq amal qilib yozilgan ijtimoiy fanlar qusurlaridan endilikda xoli bo'ldik, deb aytish mumkin. Shunday bo'lishiga qaramay, Oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlar sohasida foydalaniyotgan darslik va qo'llanmalarning g'oyaviy-nazariy yo'nalishlari hozirgi talablar darajasida emasligini aytib, Islom Karimov tarixchilar va faylasuflar oldida katta vazifalar turganini ta'kidlaydi; bu fanlarni «taraqqiyot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan, oq-qorani farqlashda asos bo'ladigan fanlardir», deb ta'rifladi¹.

Bu, faylasuflar va falsafa fani zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Hamma sohada inson omili birinchi o'ringa chiqqan bizning davrimizda bo'lajak mutaxassislarni bunyodkorlik, insonparvarlik g'oyalardan oziq olib shakllangan

¹Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman – Prezident Islom Karimovning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblari // «Fidokor» gazetasi 1998 yil 2 iyul soni.

falsafiy dunyoqarash egasi qilish, hayot ma’nosи va davr ruhini teran anglashlariga yordam beradigan, ya’ni oqni qoradan, qorani oqdan farqlay oladigan imoni butun, e’tiqodi sobit insonlar bo‘lib kamol topishlarida falsafa fanining o‘ziga xos betakror o‘rni borligini e’tirof etish muhim bo‘lib turibdi. Binobarin, Oliy o‘quv yurtlarida falsafa fanini o‘qitishni tubdan yaxshilash uchun avvalo olamga mashhur ajdodlarimizning falsafa ilmiga behad ixloslari vorislari bo‘lgan kadrlarni tarbiyalashimiz lozim.

Albatta iqtisodiy-texnik jihatdan taraqqiy etgan chet el mamlakatlari tarixiy tajribalaridan falsafa fanining inkor kategoriyasi va inkorni inkor qonuniga tayangan holda foydalanishimiz zarur. Ayni chog‘da ko‘pgina chet davlatlarda falsafadagi ayrim oqimlar o‘rganilayotgani, boshqacha aytganda, falsafa fan sifatida shakllangani e’tirof etilmayotgani ifodasi, deb yondoshmog‘imiz ma’qul. Chunki fan sifatida falsafa ilmining ob‘yekti va predmeti aniqlab bo‘lingan va unga shunday munosabatda bo‘lish ilmiy – falsafiy dunyoqarash ta’sirchanganlini oshirishi mumkin.

Binobarin, Oliy o‘quv yurtlarida falsafa fanidan beriladigan darslar yanada mazmunli, ta’sirli bo‘lishi uchun professor-muallimlar va talabalar etarli miqdorda qo‘llanma va darsliklar bilan ta’min etilishlari lozim, deb o‘ylaymiz. Afsuski, falsafa fanidan hozirgacha juda oz adad (tiraj)da chiqqan qo‘llanmalar, darslik tasnidagi kitoblar etarli bo‘limgani uchun qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Real voqelikka teran ko‘z bilan qarash ma’qul, deb o‘ylaymiz. Voqelik shuki, har kuni 6-8 soat auditoriyada ta’lim olayotgan talaba, albatta yotoqxona yoki uyiga borib, biroz dam olgach, yana kutubxonaga qaytib kela olmaydi. (Bu vaqtda kutubxonalar ham, elektron markazlar ham ishlamasligini ham inobatga olish lozim). Shu sababli uning qo‘lida amaliy mashg‘ulot uchun tayyorgarlik ko‘rishga o‘quv qo‘llanmasi yoki darslik bo‘lsa, yotoqxona yoki uyida tayyorgarlik ko‘rib, qo‘srimcha adabiyotlarni kutubxonaning o‘zida o‘qib, uni yanada kengaytiradi, chuqurlashtira oladi. Uning ustiga Oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari hamma talaba qo‘liga beradigan kitob fondiga ega emas. Bunday sharoitda talabalarning amaliy mashg‘ulotlarga “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” talablari darajasida bilim olishlarini qiyinlashtirmoqda, ularning

bu fandan yuqori darajada o'zlashtirish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Yetarli pedagogik tajribaga ega bo'limgan, ayniqsa boshqa sohalardan kelib, falsafa ilmiga ixtisoslashib dars berayotgan yosh muallimlar amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishlari uchun dasturga muvofiq keladigan o'quv-uslubiy qo'llanmaga muhetoj bo'lib turishlari tajribadan ma'lum. Xususan, ma'ruza o'qishga endigina kirishayotgan yosh muallimlar uchun ushbu qo'llanma nihoyatda asqotishi mumkin.

Ana shu holatlarni e'tiborga olib, falsafa fanidan va'z (lektsiya) matnlari o'quv-uslubiy qo'llanmasining to'ldirilgan, takomillashtirilgan yangi nashrini tayyorladik. Shuni aytish joizki, ilgari nashr etilgan uslubiy qo'llanmalardan va keyingi yillarda Rossiyada nashr etilgan falsafadan chiqqan darslik va qo'llanmalardagi yangi yo'nalishlar, asosiy nazariy qoidalar ham ushbu qo'llanmada mumkin qadar qamrab olingan, mazmunan boyitilgan. Antropologiya sohasidagi yangicha qarashlar hisobga olingan.

2012-2013-o'quv yilida falsafa fani uchun kafedramizning qaroriga muvofiq, ilgarigi 48 soat o'rniغا 56 soatlik dasturda va'z o'qiladi va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ushbu to'ldirilgan, yangi tahrir etilgan qo'llanmada yana ikkita mavzu qo'shildi. Bu ham muallimlar va talabalar uchun qulaylik yaratadi.

Ayni chog'da, muallifning ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy sohada to'plagan tajribalari ham ushbu mantlarda o'z ifodasini topgan. Fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yish (plyuralizm) Konstitutcion huquq darajasiga ko'tarilgan sharoitda har bir professor-muallimning boshqalardan ma'lum darajada farq qiluvchi qarashlari bo'lishi tabiiy. Demokratik davlat va grajdaniq jamiyatni shakllanishi uchun kurashayotgan xalq farzandlarida mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini hosil etish uchun ham xilma-xil fikrlarni o'rtaga tashlash foydalidir, deb o'ylaymiz. Ikkinchi tomonidan, shunday yo'l tutilgandagina falsafa fanidan kelajakda mukammalroq darsliklar yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma yangi dasturda nazarda tutilgan mavzularni asosan qamrab olgan dastlabki yordamchi manba' hisoblanadi. Matnlar mavzusi bayonida pedagogika ixtisosligining o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olingan.

Falsafa fanidan hozirgacha mavjud qo'llanma va darslik tasnidagi kitoblar

mualliflari tarixiylikdan mantiqiylikka o'tish uslubidan foydalaniib, ko'p soatni falsafa tarixiga ajratishni lozim topgan bo'lsalar, ushbu uslubiy qo'llanmada falsafiy tushunchalar, kategoriyalar, qonunlar va ilmiy bilish metodlarini bayon etishda mantiqiylikdan tarixiylikka o'tish uslubidan foydalnilganki, falsafa tarixiga doir fikrlar o'shalar mazmunida o'z ifodasini topgan. Ilgarigi qo'llanmadagidan farqli ravishda, bunda falsafa fanining umumiy masalalaridan so'ng, Ontologiyaga doir mavzular bir bobga, gnoseologiyaga doir mavzular ham yana bir bobga ja'mlangan holda berildi. Nazarimizda, mana shundagina talabada borliq va olamni bilish haqida yaxlit bir fikr qoladi.

Shunday qilib, falsafaning fan sifatida shakllanishi hamda falsafiy fikrlar rivoji tarixiga 12 soat (6 soat va'z (leksiya) va 6 soat amaliy mashg'ulot), ontologiya uchun 16 soat (8 soat va'z, 8 soat amaliy mashg'ulot), gnoseologiya uchun 24 soat (12 soat va'z, 12 soat amaliy mashg'ulot) va hozirgi davrning global muammolari uchun 4 soat (2 soat va'z, 2 soat amaliy mashg'ulot) ajratildi. Demak, talabalar ushbu fandan o'zlashtirishlarini yaxshilash niyatida 28 soat va'z, 28 soat amaliy mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi. Bundan tashqari, falsafa fanidan talabalarning o'zlarini tanlagan mavzular bo'yicha mustaqil tayyorlaydigan referatlari uchun 28 soat alohida vaqt ajratilgan.

Jahon falsafiy fikrlari, jumladan, Markaziy Osiyo faylasuflari va ilohiyotchilarining olam va unda odamning o'rni haqidagi qarashlari ham inobatga olib yozilgan ushbu metodik qo'llanma istiqbolda falsafa fanidan mukammalroq darslik yaratish ishiga o'ziga xos hissa bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Qo'llanma haqida o'z fikr-mulohazalarini, tanqidiy qarashlarini xolisona bildirgan hamkasblarimizga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Manzil. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf-Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Nizomiy nomidagi TDPU.

**1-mavzu. Falsafaning fan sifatida shakllanishi — tarixiy-tadrijiy
(evolyutsion) jarayon**

Reja:

- 1.“Falsafa” va “Falsafa fani” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik va ayrimlik.
2. Falsafa fanining tadqiqot sohasi.
- 3.Falsafiy dunyoqarash, uning milliy va umumbashariy mohiyati.
- 4.Falsafa fanining ijtimoiy vazifa (funktsiya)lari va muammolari.

Xulosa

1-masala. Odam-olam munosabatlarini ilmiy tushunishda falsafiy qarashlarning alohida, betakror o’rni bor bo’lib, uning fan sifatida shakllanishi uzoq tarixiy jarayondir. Fan sifatida uning o’z ob’yekti va tadqiqot predmeti hamda funktsiyalari bor, albatta. Har bir tarixiy davr muammolari echimini topishga intilish falsafiy qarashlar takomillashib borishiga sabab bo’lgan.

Olam va unda odamning o’rni muammoasi hamisha qizg’in bahs-munozara ob’yekti bo’lib kelgan. Bu muammoga ilmiy jihatdan yondashishning qaror topishida barcha mamlakatlar, jumladan, O’zbekiston faylasuflarining ham xizmatlari bor.

Olamni, unda odamning o’rmini falsafiy idrok etishdan avval «falsafa» va «falsafa fani» tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik va ayrimlikning farqini anglab olish muhimdir. «Falsafa» umumiyligi va keng tushuncha bo’lib, olam, unda odam va uning uyushmalari (jamoalari, ijtimoiy harakatlari, partiyalari, davlatlari va x.k.)ning o’rni, qisqasi, inson omili qanday? degan savollarga har bir tarixiy davrda, mintqa va mamlakat xalqlari, tafakkur va turmush tarzları o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turlicha qarashlar mavjud bo’lgan va hozir ham shunday.

Insonda tabiatan falsafiy fikrlashga moyillik kuchli. «Filosofiya» atamasi yunoncha ikkita so’z birikmasidir («filio» — sevaman, «sofio» — donolik). «Falsafa» esa lotincha «filosofiya» so’zining o’zbekchalashgan shakli bo’lib, u «donishmandlikni sevish» ma’nosini anglatadi. Nemis filosofi Gegelning fikricha, falsafa donishmandlikning o’zidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ertaklar,

rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlardan tortib barcha dinlarning muqaddas kitoblaridagi olam, unda odamning o'rni qanday bo'lishi kerak, degan savolga o'ziga xos javoblar bor. Shuning uchun qadimgi greklar barcha fanlarni falsafa, ya'ni donolik, donishmandlik ifodasi hisoblaganlar. Natijada odatiy (kundalik) ongda tarixan «falsafa – fanlar fani», «falsafa – fanlar onasi» degan fikr keng tarqalgan. Eshitilishi jozibali va ehtiromli ko'ringan bu iboralar ostida falsafani fan sifatida tan olmaslik mayllari mavjud, bu esa falsafaning hozirgi holati uchun to'g'ri emas. Shunday bo'lishiga qaramay, olimlar va siyosatchilarining ba'zilari ana shu aqidaga tayanib, falsafa faniga munosabat belgilaydilar.

G'arb mamlakatlarda esa endilikda falsafaga ehtiyoj qolmadi, chunki u parchalanib, barcha fanlarga, ayniqsa ijtimoiy va gumanitar fanlarga tarqab ketdi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib munosabat belgilash mayllari ham mavjud. Bunday qarashlarni XIX asrdagi pozitivism asoschisi O.Kont ilgari surgan bo'lib, u V.V.YAnevich, V.Vindelband tomonidan rivojlantirildi. «Falsafa, — deydi Vindelband, — barcha mulkini farzandlariga ulashib, shundan so'ng qashshoq odam sifatida ko'chaga uloqtirib tashlangan qiroq Lirga o'xshab qoldi». Afsuski, bunday g'ayriimiy nuqtai nazarda turgan vatandoshlarimiz ham yo'q emas.

Bunday fikrlar xatoligini, g'ayriimiy ekanligini g'oyaviy-nazariy jihatdan isbotlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Chunki falsafa fan sifatida shakllanib, o'z tadqiqot sohasi (ob'yekti) va predmeti aniqlangani ayni haqiat. Demak, unga xuddi fizika, matematika kabi yalpi umumiy tasnifga ega fanga aylanganini e'tirof etib, shunga muvofiq munosabat bildirishni hozirgi murakkab ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning o'zi taqozo etmoqda.

2-masala. Falsafa fan sifatida mavjud narsa va hodisalarining eng umumiyligi aloqadorligi va rivojlanish qonunlarini, odam-olam munosabatlarining tub mohiyatini bilishga imkon yaratadi. Bu haqda O'rta asrning mashhur faylasufi, «Ikkinchi muallim» nomi bilan jahong'a tanilgan olim Abu Nasr Forobiy bunday deydi: «Mavjudot haqidagi bilim qo'lga kiritilsa, shu haqda ta'lim berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil-hujjatlar

asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz.

Falsafa bilimi ochiq-oydin ishonchli dalil-hujjatlarga ega bo'ladi. Odamlar falsafa yo'li bilan isbot etilgan mavjud narsa haqida to'la ishonch va qanoatga ega bo'ladilar».²

Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy o'z xulosalarida falsafa fan sifatida ilm-fan dalillariga asoslanishi, odam-olam munosabatlari shulardan kelib chiqadigan ishonch va qanoatga tayanishi lozimligiga e'tiborni qaratgan.

Falsafa fanining qonunlari, kategoriyalari, tushunchalari, tamoyillari va falsafiy bilish metodlari shakllanishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Ana shular orqali olamni, unda odamning o'rnini falsafiy anglash imkoniyati vujudga kelgan. Biz yashayotgan tarixiy davrda barcha kadrlar o'zlarida falsafiy (donishmand)larcha fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari, shu dunyoqarash asosida ijtimoiy taraqqiyotda inson omilining o'rnini va rolini ilmiy anglab olishlari uchun kafolat bo'ladi.

Falsafa fan sifatida boshqa fanlardan ustun ham, kam ham emas. Mohiyatan falsafa fani ob'yekti va predmeti aniqlanishi boshqa fanlardan farq qilmaydi. Chunki istalgan fanni olmang, uning ob'yekti va predmeti aniqlanishi uzoq tarixiy davrlarni o'z ichiga olganining guvohi bo'lasiz. «Falsafa» atama sifatida tarixan turlicha ma'nolarda qo'llab kelindi. Jahondagi juda ko'p olimlarning asrlar davomidagi izlanishlari, tadqiqotlari natijasi sifatida «odam-olam» munosabatlariga ilmiy-falsafiy yondashuvga imkon tug'diradigan o'z tushunchalari, kategoriyalari, qonunlari, uslublari, tamoyillari aniq-ravshan bo'lgach, nemis faylasufi Gege tomonidan ularni muayyan bir tizim (sistema)ga solina boshlandi.

Olam va uning umumiy manzarasi, buni bilish mumkin yoki mumkin emasligi, shu jarayonda odamning o'rnini va olamni o'zgartirishdagi rolini aniqlash, olamga go'zallik qonunlariga asoslanib munosabat belgilashning turli usullariga amal qilish jarayonida muayyan dunyoqarash va tafakkur tarzi shakllanadi, shu dunyoqarashga

² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., Abdulla Qodiriy nomidagi «Xalq merosi» nashr., 1993. – 183-184-bet.

va tafakkur tarziga muvofiq qadriyatli ong vujudga keladi. Bu dunyoqarash va qadriyatli ong odamning muayyan yo‘nalishdagi imon-e‘tiqodida o‘z mujassamini topadi. Demak, falsafa fanining ob‘yekti va predmeti ana shu holatlarni qamrab olishi kerak, deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham falsafa fani ob‘yekti va predmetining quyidagi ta’rifini beramiz va uni o‘z nuqtai nazarimizdan turib tavsiflaymiz.

Olamni ilmiy-falsafiy bilish, unda odamning o‘rni va o‘zaro munosabatini aniqlash jarayonida keng qamrovli tafakkur tarziga asoslanib ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, inson ongi va qalbiga shunga muvofiq imon-e‘tiqod ruhini singdirish ilmiy falsafaning ob‘yekti va predmeti hisoblanishi muhimdir.

Falsafa fanining tadqiqot ob‘yekti bilan uning predmeti o‘rtasida yaqinlik bor. Biroq, predmet o‘sha ob‘yektni o‘rganish uslub va usullarini ham o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi ta’rifda bu holat inobatga olingan. So‘ngra, unda bizga hozirgacha ma‘lum bo‘lgan ta’riflardagi umumiy mazmun saqlangan holda, boshqa falsafiy oqimlar, yo‘nalishlar va maktablar uchun e’tiborli bo‘lgan jihatlar ham hisobga olingan. Ularning insoniyat ma‘naviy takomilidagi o‘ynaydigan va o‘ynayotgan rollariga xolisona baho berishni ham o‘z doirasiga kiritadi. Bu ta’rif olamni bilishda falsafa fanining boshqa fanlardan farq qiladigan o‘z o‘rni, yo‘li, usuli, vositalari, mezoni, maromi, qadriyatlari, ideallari borligini ham nazarda tutadi. Olamning bir-zarrasi va ayni chog‘da bir sirli olam bo‘lgan odamning o‘zi yashayotgan tarixiy, geografik va ijtimoiy muhitda muayyan o‘rni va o‘ynaydigan roli borligi (yaratuvchi yoki buzg‘unchi kuch ekanligi) e’tirof etilib, buni bilish zarurati ayon bo‘ladi. Odamzot olamni bilishda pastdan yuqoriga, soddadan murakkablikka, chekli qarashdan keng qamrovli qarashga tomon borish jarayonida g‘or odamlariga xos olg‘irlik, bosqinchilik tafakkur tarzi va cheklangan (sohaviy) tafakkur tarzidan keng qamrovli (falsafiy) tafakkur tarziga tomon ketayotgani, bunda falsafaning alohida, betakror-o‘rni borligiga e’tibor qaratiladi. Va bu hol inson tafakkur tarzini o‘zgartirib borishining ahamiyati haqida teran fikrlar bildirishni nazarda tutadi. Ta’rifning umumiy mazmunida muayyan dunyoqarash va tafakkur tarzining odam ma‘naviy-axloqiy qiyofasi timsolida gavdalishini namoyon etadigan imon-e‘tiqodga munosabat ham bor. Chunki falsafa fani bu masalani chetlab o‘tmasligi kerak, zero,

har bir dunyoqarashdagi mazmun, yo'nalish odam ongi va qalbidan joy olib, uning ishonch, imon-e'tiqodi—ixlosiga aylangandagina ular qadr topa oladi va harakatlaniruvchi kuchga aylanadi.

3-masala. Olam nima, undagi harakatlar negizida qanday quvvat yoki qudrat (energiya) yotadi, u qachon va qanday paydo bo'lgan, odam ongi borliqni bilishga qodirmi, uni o'z xohishicha o'zgartira oladimi yoki yo'qmi kabi savollarga javob qidirish jarayonida dastavval mifologik, so'ngra diniy dunyoqarashlar o'zidan-o'zi shakllanib, odamlarning ijtimoiy muhitda **bir-birlari** bilan hamkor-hamnafas bo'lib yashashlari uchun ma'naviy-ruhiy shart-sharoit yaratildi. Bu dunyoqarashlar tufayli odam-olam munosabatlari insonparvarlik **asosida** rivojlanishi yo'lida katta tarixiy tajribalar to'plandiki, ularga tayanib **turib ITT** va globallashuv jarayonida odamlar, elatlar, xalqlar, millatlar o'zaro hamkor, **hamnafas**, do'stona aloqlarda yashashlari uchun yangicha, tarafkashlikdan **holi tafakkur tarzini** shakllantirish, odam-olam munosabatlarini to'la-to'kis ilmiy o'zanga burib yubora oladigan dunyoqarashga kuchli ijtimoiy ehtiyoj paydo bo'immoqda. Chunki ITT hamda odamzot ma'naviy olami qashshoqligi tufayli yuzaga **kelayotgan muammolarni** faqat ilmiy-falsafiy dunyoqarash orqali hal qilish mumkin, xoles. Shuning uchun falsafa mustaqil fan ekanligi, uning o'z ob'yekti va predmeti borligini tan olish dunyo miqyosida ham, mamlakatimiz ichida ham favqulotda **muhim bo'lib turibdi**. Odamzotning aql-idroki, uning mevasi bo'lgan fan-texnika, axborot va nano texnologiyalar muvaffaqiyatlarini butkul oqilona ishlarga, faqat bunyodkorlikka, ezzulikning qaror topishiga burib yuborish mumkinmi-yo'qmi, degan savolga **faqat** falsafa fani asosli javoblar topishi mumkin. Shu fan dalillariga ishonch va ixlos (**e'tiqod**) tufayli hozirgi zamon ilg'or fan yutuqlari xulosalariga asoslangan falsafiy dunyoqarash qaror topadi, albatta. Bu fanni rivojlantirish, uning kategorial bazasini mustahkamlash orqali har bir jamiyatda ma'naviyatni **barqaror qilish** odam uchun oliy qadriyat ekanini individrlar ongiga etkarish va, eng muhim, **milliy**, diniy, irqiy yoki boshqa tafovutlar tufayli har qanday shakl-shamoyilda dushman obrazi yaratish siyosati va mafkurasingning g'ayriinsoniy mohiyatini fesh qilib tashlash mumkin. Dunyoda yig'ilib qolgan va tobora ko'payib borayotgan **muammolarni hamma** elatlar, xalqlar, millatlar birgalikda, hamkor va

hamnafas bo'lgan sharoitda hal etish mumkin. Buning uchun odamzot ruhini poklashda barcha dinlarning namoyandalari va ilm-ma'rifat ahllari birgalikda izlanishlari, bu yo'naliш bo'yicha o'zaro ittifoq tuzishlari maqsadga muvofiqdir. Shunda falsafa fanining milliy va umumbashariy ahamiyati beqiyos oshib ketadi.

Albatta, O'zbekistonda ma'naviyat milliy negizda rivojlanishi lozim va bu hol umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi uchun kafolat bo'ladi. Har bir millatning tarixan tarkib topgan o'z tabiatni (mentaliteti) va shunga muvofiq o'ziga xos dunyoqarashi, tafakkur va turmush tarzi bo'ladiki, bu o'sha millatning falsafiy qarashlarida o'z mujassamini topadi. Masalan, dunyodagi har bir mintaqada ayrim xalqlar tarixiy xotirasi asosida turlicha falsafiy oqimlar paydo bo'lgan va hozirgi davrda ham mayjud. Masalan, markscha falsafa Germaniyada vujudga kelgan bo'lsada, ammo u G'arbiy Qvrupo xalqlari tarixiy xotirasiga asosan muvofiq keladi. Bolshevikm g'oyalari (leninchalik falsafa) Rossiya xalqlari tarixiy xotirasiga monand tarzda shakllandi. Rus xalqiga xos radikalizm, ya'ni ijtimoiy voqeqlikni birdan o'zgartirishga intilish tendensiyasi ana shu falsafada o'z ifodasini topdi. Bu falsafa bir avlod umri davomida ayrim olingan mamlakatda "sotsializm" qurish mumkin, deb xisobladi. Falsafa fanining miqdor va sifatning o'zaro o'tish qonuniga hilof bo'lgan ijtimoiy hodisalarga bunday yondashuv qanday xunrezliklarga olib kelgani ma'lum.

SSSRning parchalanishida ham siyosat va mafkurada rus radikalizmiga asoslanish, ya'ni mulkning umumiyligi ruhida tarbiyalangan avlod bilan 500 kunda mulkning xususiyligi – bozor iqtisodi munosabatlariiga o'tish mumkinligiga ishonish – bu, rus radikalizmining yana bir ko'rinishda namoyon bo'lishi edi. Natijada umumxalq mulki mohiyat-e'tibori-ila talon-taroj etilishi, u bir to'da badnafs olg'irlar qo'liga o'tib ketishiga yo'l ochib qo'yildi. Mana, 22 yildan oshyaptiki, Rossiya xalqlari buning oqibatlarini tatishda davom etmoqdalar. Bir xovuch odamlar to'kin - sochinlikda yashasa, xalqning asosiy qismi mohiyat - e'tibor-ila qashshoqlikka mahkum etildiki, hozirgi kunda boshqarilayotgan rus davlati uning asoratlarini tugatishi juda qiyin kechyapti.

Milliy falsafa yaratish mayli (tendentsiyasi) barcha mamlakatlardagi kabi O'zbekistonda ham mayjud. Ammo u milliy qadriyatlarni gultojisi sifatida

umuminsoniy qadriyatlar majmuasi bo‘lgan falsafa faniga va falsafiy qarashlarga ters bo‘lib qolmasligi ustida gap boradi. Turlicha falsafiy oqimlar mavjud va yana yangi oqimlar paydo bo‘laveradi. Biroq, bu oqimlarning biron tasi, jumladan, milliy falsafa falsafa fanining o‘rnini egallab olishidan ehtiyoj bo‘lish zarur. Aks xolda ijtimoiy hodisalarga markscha sinfiylik tamoyillari o‘rnini milliy mahdudlik tamoyillari egallab, milliy mafkura yordamida falsafiy aqidaparastlikka yo‘l ochilib qolishi mumkin.

4-masala. Falsafa fanining funktsiyalarida uning fanlar tizimi va ijtimoiy hayotdagi o‘rni ravshanlashadi. Funktsiya (vazifa) deganda harakat uslubi, falsafiy bilimlar tizimi doirasida uning faolligi namoyon bo‘lishi, bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarining umumiyy tip (tur)lari nazarda tutiladi.

Falsafa fani funktsiyalarini xilma-xil. Ular ichida dunyoqarashlilik (ontologiya), olamni bilish (gnoseologiya), qadrivatli ongni shakkantirish, ijtimoiy-amalivotchilik (praktikologiya), metodologik, insonparvarlik, ma’naviy-tarbiyaviv funktsiyalarini individual va ijtimoiy ongga faol ta’sir ko‘rsatib, shu jarayonda u ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy hayot hamda boshqa barcha fanlar va o‘ziga xos dunyoqarashlar bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

Falsafa dunyoqarash sifatida tabiiyotshunoslik, texnikashunoslik fanlari bilan tutashganda, ya’ni gorizontal holatda, u ilmiy asoslarga ega bo‘ladi; vertikal holda siyosat va mafkura ta’siriga tushganda u ilmiylikdan uzoqlashadi. SHu sababli falsafiy fikrlar siyosat va mafkura ortidan emas, balki siyosat va mafkura falsafa faniga tayanib va undan oziq olib shakllansa, tarafkashlik va cheklanishdan xoli bo‘ladi.

Hayot va o‘lim haqida o‘ylamaydigan va yashashning cheklangani to‘g‘risida qayg‘urmaydigan, g‘am-tashvish chekmaydigan odam bo‘lmasa kerak. O‘limning muqarrarligi har bir insonda salbiy xis-tuyg‘ularni yuzaga qalqitib, odamning ilik-iliklarigacha bo‘lgan quvvatni ham go‘yo sug‘urib olgandek bo‘ladi. Bu hislardan xoli bo‘lish uchun odam abadiylik to‘g‘risida qayg‘uradi, abadiylikka dohil bo‘lish yo‘llarini qidiradi. SHu jarayonda aql bilan bilib, tajriba yo‘li bilan sinab bo‘lmaydigan (transsental) olam borligi, u bilan ruhiy aloqa bog‘lash orqali o‘lim

vahimasi, hayot tushkunligi, yashashning ma'nisizligi to'g'risidagi g'am-andux hislaridan holi bo'lishga intiladi, natijada inson ichki olami («Meni») tashqi abadiy olam – kosmik butunlik bilan birlashgandek bo'ladi. Oqibatda mifologik (afsonaviy), diniy, badiiy, odatiy dunyoqarashlar vujudga kelib, ular orqali odam hayotdan qoniqish, vahimaga tushmaslik his-tuyg'ularini o'zida gavdalantirmoqchi bo'ladi. Falsafa esa insoniyat to'plagan barcha ilmlar, tajribalarni umumlashtirib, ayrim-ayrim tarmoqlarga bo'linib ketgan dunyo haqidagi tasavvurlarni yig'ib, ilm-fan dalillariga, insoniyatning abadiylik yo'lida to'plagan tarixiy tajribalariga tayangan holda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Shuning uchun ham falsafa fanining mohiyati – «Odam-olam» tizimida yalpi umumiy muammolar haqidagi fikrlarda namoyon bo'ladi. Odam necha yil yashashi bilan emas, balki qanday yashaganligi bilan o'z abadiyligini yarata olishiga falsafa ishontirib, inson o'z hayotining ma'noli, mazmunli qilishiga yordamlashadi. Ilmiy falsafa odamzotni hayotbaxsh dunyoqarash egasi qilish funksiyasi orqali olam, undagi barcha munosabatlar ijtimoiy taraqqiyotga, inson barkamolligiga xizmat qilishi uchun kurashuvchilar avlodini yetishtirishga harakat qiladi.

Falsafa olamni bilish metodi orqali fanlarga nisbatan evristik, uvg'unlashtirish, birlashtiruvchilik, mantiqiy-gnoseologik (bilishga- oid) kabi -funksiyalarni ham-bajaradi. Bu, uning metodologik funksiyasi bo'lib, barcha fanlarga doir murakkab nazariy va fundamental muammolarni hal etishga yordamlashadi.

Falsafa fani muammolarini ma'nisiz, deb qarovchi oqimlarning da'volari tanqiddan ham tubandir. Chunki har bir elat, millat oldida muayyan tarixiy davrda paydo bo'ladigan muammolar falsafiy tahlil, falsafiy qarashlar yo'li bilan hal etib kelingan va shunday bo'lib qolaveradi. Ular ichida odamning umuman olamga munosabati muammosi – dunyoqarashi eng muhim hisoblanadi. Moddiy va ruhiy olam o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, tabiat va jamiyat qonunlari haqiqatan ham mavjudmi yoki odamzot tartib-qoidaga bo'lgan ehtiyoji tufayli uni o'ylab topganmi, odam nima va olamdag'i, ya'ni umumiy aloqadorliklar ichida uning o'rni qanday – u yaratuvchimi yoki buzg'unchi qudratmi, inson aql-zakovatining tabiatи nima, odam o'zini qurshab olgan olamni va o'zini-o'zi bila oladimi, haqiqat va adashish deganda

nima anglashiladi, ezgulik va yovuzlik alma, qanday qonuniyatlar va qanday yo'nalishlar insoniyat tarixini harakatga keltiradi kabi dunyoqarash bilan bog'lanib ketgan muammolarni anglash, ularni hal etish erqali olamda o'zining munosib o'rniiga ega bo'lish har bir individda olamiy fikrlash qobiliyatini vujudga keltiradi.

Tabiat o'z taraqqiyotining Noosfera – Aql sehasi bosqichiga o'tganligi munosabati bilan Ona-tabiatni muqarrar halokatdan saqlab qolish muammosi fan-teknika, axborot va nano texnologiyalardan umumibashariy manfaatlar yo'lida foydalanish uslublarini izlash va topish falsafa fani oldiga yangi katta vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Ilmiy-teknika inqilobi (ITI) tufayli an'anaviy tafakkur va turmush tarzi inqirozga uchragani, yangi davrga muvofiq keladigan turmush tarzini shakllantirish, insoniyat aql-zakovati va uning mevasi bo'lgan fan-teknika, axborot va nano texnologiyalar muvaffaqiyatlarini to'la-to'kis bunyodkorlik ishlariiga burib yuborish muammosi paydo bo'ldiki, uni falsafiy dunyoqarash negizidagina hal etish mumkin.


Umuman falsafa fani oldida turgan barcha muammolarni asosan yetta guruhga bo'lismasga muvofiqdir: a) ontologik, b) gnoseologik; v) aksiologik; g) antropologik, d) ijtimoiylik j) falsafa tarixi; z) imonshunoslik, etika va estetika. Bu muammolarning barchasi dunyoqarashning muayyan tipi bilan bog'lanib ketadi. Ammo ilm-fan xulesalari, dalillariga tayangan falsafiy dunyoqarash orqali insoniyat milliy va umumbashariy muammolarni qadam-baqadam hal eta olishiga umid bog'lash individlarda ijobiy his-tuyg'ularni vujudga keltirib, hayotini mazmunli va qadrli etadi.

Aytish mumkinki, odamzot jamiyat bo'lib yashashga o'tgandan boshlab ijtimoiy munosabatlari, ularni takomillashtirish uchun kurashib keladi. Bu jarayonda har bir elat, xalq, millat donishmand (faylasuf) lari o'z nuqtai-nazarlarini ilgari suradilar. Ushbu qarashlarning barchasini umumlashtirsak, kamida yetta mohiyatli savollarga javob qidirilgani ma'lum bo'ladi. Buni quyidagi tablitsadan anglab olish mumkin.

Falsafa fani — ma'naviyat asosi sifatida

Falsafaning negizli masalalari	Falsafiy bilimlarning asosiy qismlari
1. Olam qanday tuzilgan?	* Ontologiya – borliq haqidagi ta'lilot.
2. Bilish nimani anglatadi?	* Gnoseologiya (epistemologiya) – bilish nazariyasi
3. Hayot ma'nosi va maqsad-muddaoisi (qadriyati) nima?	* Aksiologiya – hayat ma'nosi va qadriyatlar to'g'risidagi ta'lilot
4. Olamda odam qanday o'rinda turishi kerak?	* Falsafiy antropologiya – inson to'g'risidagi ta'lilot
5. Ijtimoiylik o'zi nimani anglatadi?	* Ijtimoiy falsafa
6. Tarixiy vaqt nima?	* Falsafa tarixi
7. Uyg'unlik,ezgulik, go'zallikni falsafiy anglash haqidagi yo'nalishlar	* Insonshunoslik—uyg'unlik to'g'risidagi ta'lilot, etika—axloq to'g'risidagi ta'lilot, estetika—go'zallik haqidagi ta'lilot

Xulosa: a) «falsafa» va «falsafa fani» tushunchalaridagi umumiylik va ayrimlikni anglash bag'oyat muhim ahamiyatga molikdir; b) falsafa fanining o'z tadqiqot ob'yekti va predmeti borki, shu orqali u boshqa fanlardan ajrab turadi; v) falsafiy dunyoqarash ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga egadir; g) falsafa fani birqator funksiyalarni bajaradi va shular orqali ijtimoiy muammolarni hal etish yo'llarini izlaydi va topadi.



2-mavzu. Falsafa fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Falsafa tarixidan

Reja:

Kirish.

1. Qadimgi Yunon va Sharq falsafasi.
2. Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlar rivoji.
3. Arab-musulmon olamida Uyg'onish davri*.
4. G'arb mamlakatlarda Uyg'onish davri falsafasi.

Xulosa.

O'tgan va'zda falsafiy fikrlar rivoji asosida endilikda falsafa ham mustaqil fan sifatida shakllangani asoslandi. Bu va'zda falsafiy bilimlar rivoji tarixiga qisqacha to'xtalamiz.

1-m. Qadimgi Bobil(Vaviloniya)da 6 ming yil muqaddam dastlabki falsafiy fikrlar yuzaga keldi. «Gilgamesh haqidagi doston», «Adapa» dostoni, «Etapa» haqidagi afsona, «Jafokash avliyo haqida doston», «Xo'jayinning qul bilan suhbat» asarlari va xalq og'zaki ijodi orqali o'sha davr falsafasini anglash mumkin. Tabiatshunoslikka oid fikrlar, matematika, geometriya, astronomiya fanlarining ilk kurtaklari o'sha davrda xo'jalikni yuritishda katta ahamiyat kasb etdi.

Qadimgi Yunonistondagi Milet shahri savdo va madaniy aloqalar markaziga aylanib, falsafiy(dono) fikrlar rivojlana boshladı. Natijada "Milet falsafiy maktabi"da Fales, Anaksimandr, Anaksimen, Geraklit, Pifagor, Empedokl kabi faylasuflar yetishib chiqib, borliq va uning asosi haqida bahs-munozaralar qizg'in tus oldi. Borliq asosida moddiy unsurlar yotishini asoslash, narsalar negizida atom yotadi, degan fikrlar ilgari surildi. Aflatun va Arastu falsafiy fikrlar rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Misrda olamdagı moddiy jismlar suvdan paydo bo'lganligi, ularda havo borligi, odamlar o'lim vahimasiga tushmasdan, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lib, shod-xurram yashashga da'vat etilgan. «Nasihatnoma» asarida ilm olish, unga

*Ilmiy adabiyotlar va darsliklarda bu davr «Sharq Uyg'onish davri» deb ham yuritiladi. Bizning fikrimizcha, IX-XII asrlardagi ilm-fan taraqqiyoti – Uyg'onish davri faqat Arab imperiyasi mamlakatlarda bo'lgani tarixiy haqiqatdir.

ixlos qo'yishga chaqiriladi. Shunday ijtimoiy fikrlar rivoji natijasi sifatida bu joyda dastlabki taqvim (kalendar) va tibbiyotga doir asarlar vujudga kelgan.

«Ramayana», «Mahobharata», «Kalila va Dimna» kabi asarlar orqali Hindistondagi dastlabki falsafiy fikrlar odamzot ruhini poklash va axloqiy marom(norma)lar haqidagi fikrlarni bilib olamiz. Qadimgi hindistonliklar suvni dunyoning asosi hisoblaganlar. Veda(duo)larda tana jon(ruh)ning qobig'i, jon esa olamiy ruhning namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi. Bu yerda shakllangan Lokayata, Chorvaki ta'lomitlari falsafiy fikrlar rivojiga hissa bo'lib qo'shilgan.

Xitoydagi falsafiy fikrlarda dunyo abadiy, u 5 unsur(element)—olov, suv, yer, daraxt va metalldan hosil bo'lganligi ta'kidlanadi. Xitoyliklar STI degan moddiy zarra va DAO (yo'l) degan qonuniyat barcha hodisalar asosida yotadi, deb hisoblaganlar. Konfutsiychilik ta'lomiticha, dunyodagi odamlar, xalqlar bir-biriga yaqin, ular faqat ijtimoiy muhit ta'sirida farqlanadilar. Tarbiya tufayli odamlar insonga aylanadi, deb hisoblaganlar.

2-m. Qulay iqlim va geografik muhitda joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va, nihoyat, hunarmandchilik erta rivojlandi. Bu yerda mifologik (afsonaviy) dunyoqarash asosida "Avesto" – birinchi jahon dinining muqaddas kitobi yozildi va shundan e'tiboran olamni yaratgan va uni nazorat qiladigan yakkayu yagona iloh – Ahuramazdaga sig'inish, unga ibodat qilish boshlandi. Zardushtiylikda moddiy narsalar asosida 4 unsur – suv, havo, tuproq va olov yotadi deyilgan va bu unsurlar din orqali muqaddaslashtirilgan.

Iraqda tug'ilgan va diniy faoliyatini ko'proq Markaziy Osiyoda davom ettirgan Moniy (216-277) yagona din yaratish uchun harakat qildi. Uningcha, borliq 2 asosga ega: a) yorug'lik, yaxshilik va ruh olami bo'lib, unga xudo boshchilik qiladi; b) zulmat, yovuzlik va moddiy olam (materiya) bo'lib, unga shayton rahnamo bo'ladi. Odamzot nur va zulmat farzandidir, u nur kuchlariga yordam bersa, ravnaq topadi.

Markaziy Osiyoda mazdakchilik g'oyalari tarqalib, unda zardushtiylikning mo'tadil jamiyatlar to'g'risidagi ta'lomitiga binoan boy odamlar ixtiyoriy ravishda kambag'al odamlarga yordam berishlarini talab qilib chiqdilar, bunga itoat etmaganlarga zo'rlik ishlatish mumkin, deb hisobladilar.

3-m.VII-XI asrlarda G'arbiy Xitoy, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Shimoliy Afrikadan tortib Ispaniyagacha bo'lgan hududlarni arablar bosib olishdi va bu erda ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot islom negizlarida rivojlana boshladi. Bunday katta hudud va turli ma'naviy-madaniy turmush tarziga ega bo'lgan elatlar, xalqlarni faqat islom aqidalari asosida boshqarishning iloji yo'q edi. Natijada islom ilohiyoti (falsafasi) shakllanib, ilm-fan ravnaqiga yo'l ochildi.

Mutakalimlar va mu'taziliy(ajrab chiqqan)lar o'rtasida taqdiri azalga munosabat masalasidagi bahs natijasida Islom ilohiyoti (falsafasi) shakllandi.

Imom al-G'azzoliy tasavvuf rivojiga yo'l ochib, odamzot Qur'on va hadislarni o'zlashtirib olgunga qadar iroda erkiga ega, uning faoliyati Alloh irodasi bilan uyg'unlashib ketgach, chinakam komil inson sifatiga ega bo'lib, u xudo jamoli asosida hayotini belgilaydi degan g'oyani ilgari surdi.

So'fiylik islomgacha ham turli mamlakatlarda o'ziga xos ko'rinishlarda mavjud bo'lgan. Ammo u islom negizida muayyan tashkiliy tizim(sistema)ga kirdi. Unda 17 ta suluk borliga ma'lum. Markaziy Osiyoda Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiya tariqatlari keng yoyilgan.

Tasavvufda ikkita asosiy yo'naliш bor:a)tarkidunyochilik; b)Allohgta tayanib odam bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanishi kerak (dil ba yoru, dast ba kor), deb hisoblaganlar.

Mu'taziliylar antik, ayniqsa, Yunon falsafasini islom ilohiyoti doirasida talqin etib, islomga ratsionalistik (aqlga muvofiqlik) unsurlarini kiritdilar. Ular taqdirlar azal(qismat) borligi to'g'risidagi Qur'on oyatlarini e'tirof etgan holda, inson iroda erkiga egaligini asoslab, fatalizmni inkor etdilar. Natijada islom doirasida hurfikrlilik vujudga kelib, Qo'shhaqiqat(vujudiyun) ta'limoti shakllandi. Bunga ko'ra, ilohiy haqiqatga payg'ambarlar, aziz-avliyolar yetadilar, dunyoviy haqiqatga esa diniy va ilmiy bilimlar olishga intilgan har bir banda erishishi mumkin.

Ana shunday Qo'shhaqiqat borligi to'g'risidagi g'oyalar tufayli IX-XII asrlarda Arab-musulmon olamida Uyg'onish davri yuzaga kelib, jahon faniga asos solgan allomalar yetishib chiqdilar. Mo'g'ul bosqinchilari tufayli tanazzulga uchragan Markaziy Osiyo ma'naviyati temuriylar saltanati (XIV asr so'ngi choragi -va XV

asrlar) davrida ravnaq topib, Arab-musulmon olamidagi Uyg'onish davri yangicha bir tusda rivojlandi. Ilm-fan, adabiyot va san'at ravnaqi falsafiy fikrlar rivojiga keng yo'l ochdi.

4-m. XVI asrlarga kelib, Islom asosida vujudga kelgan Uyg'onish davri g'oyalari G'arbiy Ovrupo mamlakatlarda, katolik cherkovining qarshiligiga qaramay, iqtisodiy va siyosiy hayot bilan birga fan va san'at rivojlana boshlab, falsafiy fikrlar rivojiga yo'l ochildi. Bu davrda mashhur guumanist Jovanni Piko della Mirondella Xudoi taolo insonga iroda erki ham bergen, binobarin, u olamda o'z o'rmini topishga intilishga haqli, dedi. Bunday yondoshuvda inson yaratuvchi kuch ekanligi e'tirof etiladi. Natijada odam tabiatining buzuqligi va gunohkorligi to'g'risidagi e'tiqodlarga ishonch susaya boshladi. G'arbiy Ovrupoda insonparvarlik g'oyalari rivojlanib, bu avvalo san'atda o'z ifodasini topdi.

Bu davrda G'arbiy Ovrupo mamlakatlarda cherkovning inkvizitsiya deb ataladigan "gunohkorlar"ni qattiq jazolash choralariga qaramay, "Sxolastik falsafa" nomi bilan nominalizm va realizm oqimlari vujudga keldi.

Nominalistlar umumiy tushunchalar yakka narsalarning nomi desalar, realistlar umumiy tushunchalar yakka narsalarga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, dedilar. Nominalistlar bilan realistlar o'rtaсидаги bahslar G'arbiy Ovrupoda falsafiy fikr rivojida muayyan ahamiyatga ega bo'ldi.

XIV-XVI asrlardan boshlab Ispaniya va Kataloniya orqali Arab-musulmon olamida shakllangan falsafiy fikrlar, ayniqsa, "haqiqatning ikkiligi" to'g'risidagi qarash yoyila boshladi. Bu hol hurfikrililik rivoji uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltirib, natijada G'arbiy Ovrupoda Uyg'onish davri boshlandi. Xristianlikda protestantizm nomi bilan yangi diniy oqim paydo bo'lib, u katolik cherkovidan ajrab chiqdi. Protestantizm oqimi g'oyalari Markaziy Osiyoda tarqalgan sofistik ta'limotlarga o'xshab ketadi. Ya'ni, muhimmi insonning dili pok bo'lishi kerak, degan nuqtai nazarda turib, ular katolik cherkovidagi haddan ziyod diniy marosimchilikni tanqid ostiga oldilar.

Xulosa: a)dastlabki falsafiy fikrlar Sharq va Yunonistonda vujudga keldi; b) Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrlar rivojida zardushtiylik dinining ta'siri katta

bo‘ldi; v) IX-XII asrlarda Arab-musulmon olamida vujudga kelgan Uyg‘onish davri falsafiy fikrlar rivojiga keng yo‘l ochdi; g) XV-XVI asrlarda G‘arbiy Ovrupoda Uyg‘onish davri boshlandi.

G‘arbiy Ovrupo va Rossiyada falsafiy fikrlar rivoji

Falsafa tarixidan

2-mashg‘ulot

Reja:

Kirish.

1. XVI-XVII-asrlar G‘arbiy Ovrupo falsafasi.
2. Nemis mumtoz (klassik) falsafasi. Marksizm, uning qadrlanish va qadrsizlanish sabablari.
3. Rus falsafasi.
4. XX asrning yangi falsafiy ta’limotlari.

Xulosa.

O‘rtalardan boshlab G‘arbiy Ovrupoda falsafiy fikrlar rivoji natijasida yuzaga kelgan Uyg‘onish davri va undan keyin falsafa ilmiy asoslarda rivojlanishi sivilizatsiya taraqqiyotida ulkan bosqich bo‘ldi.

1-m. Arab-musulmon olamida qadimgi Yunon falsafasi ta’sirida shakllangan falsafiy qarashlar G‘arbiy Ovrupoda insonparvarlik (gumanizm) nomi bilan kirib kelib, Uyg‘onish davri yuz berdi. Gumanistlar insonni ulug‘lab, erkin fikrlarga yo‘l ochdilar va sxolastik qarashlarga zarba berdilar. Natijada katolik cherkovining ma’naviy hokimiyati zaiflashdi va protestantizm nomi bilan xristianlikda yana bitta diniy oqim vujudga keldi.

Leonardo da Vinci, Albrekt Dyurer, Nikolo Makiavelli, Uilyam Shekspir, Nikolay Kopernik, Galileo Galilei ijodiy izlanishlari tufayli, ilmiy fikrlar rivoji yangi bir yuksak bosqichga ko‘tarildi. XV-XVIII asrlarda Angliya, Frantsiyada yetishib chiqqan buyuk allomalar ijodi tufayli, yangi kashfiyotlar ro‘y berdi. Dunyoqarashda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

XVIII asrda ilm-fan rivoji tufayli, G'arbda falsafiy qarashlar umuman cherkov ta'siridan chiqib, mustaqil rivojlanishga o'tdi. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi tufayli erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodi munosabatlari shakllanib, ikki qutbli dunyoning o'ziga xos manzarasi mutafakkirlarni jiddiy o'ylantirib qo'ydi. G'arb olamida hayoliy sotsialistlar g'oyalari paydo bo'lib, kommunalar vujudga kela boshladi.

2-m. Germaniya Uyg'onish davrida X.Volf (1679-1754) T. Leybnits ta'limotini sistemalashtirib, uni ommalashtirdi. Nafaqat Germaniyada, balki boshqa mamlakatlardagi olimlar, jumladan, Rossiya ziyolilariga ham u katta ta'sir ko'rsatdi. Boshqacha aytganda, X.Volf falsafaning asosiy sohalarini bir tizimga sola boshladi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy fikrlar rivojiga I.Kant, I.Fixte, F.Shelling, D.Gegel, L.Feyerbax katta hissa qo'shdilar. XIX asr o'ttalaridan boshlab Germaniyada K.Marks nomi bilan yangi bir yo'nalishda falsafiy oqim yuzaga kelib, u G'arb olami va so'ngra Rossiyaga ham tarqaldi.

Erkinlik, ozodlik, tinchlik to'g'risidagi g'oyalari qadimdan diniy arboblar va olimlarga ilhom bahsh etib kelgan. Boy va kambag'alga bo'linmaydigan jamiyat to'g'risidagi qarashlarni dastavval eradan oldingi VI asrda vatandoshimiz Zardusht diniy asosda ilgari surgan edi. Eramizning V asrida Mazzakning ijtimoiy tenglik haqidagi g'oyalari yuzaga keldi. Shu asosda keyincharoq Markaziy Osiyoda javonmardlik (Yosh mardlar) harakati boshlangani tarixdan ma'lum.

G'arb olamida ijtimoiy tenglik va notenglik to'g'risidagi g'oyalari negizida hayoliy sotsialistlar ilgari surgan dasturlar Mazzak ta'limotini esga tushirardi. Ularning fikricha, boylar ixtiyoriy ravishda kommunma (umumiyl mulk) tashkil etib, ozodlik, erkinlik, tenglikka asoslangan jamiyatni shakllantirishlari kerak edi. Bu sohadagi tajribalar o'z samarasini bermagach, Germaniya, Fransiya, Angliyada XIX asrning 30- yillaridan boshlab, kommunizm to'g'risidagi g'oyalari yuzaga keldi. 1848 yilda Marks va Engles tomonidan "Kommunistik partiya manifesti" nomi bilan ijtimoiy-siyosiy dastur yozildi. Bu holat o'sha davr yoshlari uchun najot yo'lli to'g'risidagi tasavvurlarni yuzaga keltirdi.

G'arb olamida bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisod tufayli dastlabki jamg'arma(kapital) jamlash odamlar, ayniqsa, yoshlar va ayollar mehnatidan vahshiyona usullarda foydalanish asosida to'plana boshlandi. O'sha davr haqida fikr yuritib, fransuz hayoliy sotsialisti Sh.Fure bunday degan edi: "Har bir kishi boshqa odamga yomonlik tilashdan manfaatdor, hamma joyda shaxsiy manfaat ijtimoiy manfaatdan ustun qo'yiladi... Sivilizatsiya har bir qismning harakati butunga qarshi chiqishga qaratilgan kulgili mexanizmni gavdalantirishdan iborat".

Shunday qilib, huquqiy jihatdan teng bo'lgan individrlar moddiy va ma'naviy jihatdan ko'z ilg'amas "iplar" orqali sarmoya egalari va davlat amaldorlariga qaram bo'lib qoldilar. Pul va boylikka sig'inish shu darajada keng tus oldiki, pul oldida inson va uning qadri bir chaqaga ham arzimaydigan holga keldi. Odamzot o'z tabiiy qudrati va ijtimoiy mohiyatini namoyon eta olmaydigan bir sharoitda marksizm iqtisodiy ta'limot va siyosiy harakat sifatida maydonga kelib, G'arbda kommunistik va ishchi partiyalar shakllana boshladi.

Nemis faylasufi K.Marks "Kapital" asarida barcha yovuzliklar negizida begonalashgan mehnat yotadi, buning sababi esa mulkning xususiyligi deb izohladi. U butun dunyoda Tenglik, Adolat, Erk, Birodarlikka asoslangan va mulk umumiy bo'lgan qandaydir davlatsiz kommunistik jamiyat barpo bo'ladi, deb "bashorat" qildi. Ana shu maqsad atrofida uyushgan kommunistik va ishchi partiyalar vujudga keldi, ularning faoliyatining dastlabki natijasi sifatida Fransiyada "Parij kommunasi" nomi bilan proletar davlati vujudga kelib, u 72 kun yashasa-da, ammo mulksizlarda qandaydir umid tug'dirdi.

G'arb mulkdorlari xavfning oldini olish uchun yangicha tartibotlar o'rnatib, mehnat ahlini davlat ishlarida faol ishtirokini ta'minlay oladigan jamiyat boshqaruvining demokratik tartibining joriy eta oldilar.

Marksizm-kommunizm g'oyalari nihoyatda jo'shqinligi va ta'sirchanligi sababi, degan edi rus faylasufi N.A.Berdyaev, unda dinning barcha belgilari borligidadir. Darhaqiqat, barcha jahon dinlari oxir zamon kelishi, unda adolat qaror topib, gunohkorlar jazolanishidan xabar berishadi. Xalq ommasi ongida qaror topgan ana shu diniy qarashlarga hamohang tarzda marksizm, ayniqsa uning leninizm nomi

bilan atalgan oqimi Rossiya imperiyasida hokimiyatni qo'lga olib, keyincharoq dunyoning uchdan bir qismida kommunistik diktaturani o'rnatilishiga imkon yaratdi. Biroq, 2-jahon urushidan keyingi vogelik "sotsializm lageri" deb nomlangan harbiy-siyosiy blokda mulkning davlat ixtiyorida yangi ijtimoiy taraqqiyot zavoli ekanligi ma'lum bo'lgach, o'sha davlatlar mulknini xususiylashtirib, totalitar davlatdan demokratik davlat qurish va grajdunlik jamiyatni shakllanishiga yo'l ochishga majbur bo'ldilar.

3-m. Rus falsafasi manba'si Kiev faylasufi Illarion nomi bilan bog'langan. U X-XI asr boshlarida jahon tarixida rus xalqining xristianlikni qabul qilish bilan bog'liq holda falsafiy fikrlar ham rivojlanma boshlaganiga e'tiborni qaratadi. "Igor polki haqida so'z", "Davriy yillar qissasi" asarlarida rus ijtimoiy-falsafiy fikrlari majmuuni anglab olish mumkin.

M.V.Lomonosov dunyoqarashi G'arb olimlari ta'sirida shakllandi. U entsiklopedist olim sifatida fanning turli sohalari bilan shug'ullangan. Lomonosovning fikricha, materiya doimo harakatda, rivojlanishda. U materiya va harakatning saqlanish umumiyligi qonunini kashf etgan. Ayni chog'da bilish nazariyasiga ham hissa qo'shgan. Lomonosov olamni ilmiy va diniy izohini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaslik kerak, degan va u bu masalada dialektik 'nuqtai' nazarda turgan.

A.N.Radishchev "Peterburgdan Moskvaga sayohat", "Inson, uning o'limi va o'limasligi to'g'risida"gi asarlarida borliq, materiya, harakat, fazo va vaqt, olamni bilish haqidagi falsafiy fikrlarini ifodalagan.

Rus falsafasining rivojida V.G.Belinskiy, A.N.Gertsen, N.T. Chernishevskiy, N.A. Dobrolyubov, N.P.Ogorev va boshqalarning hissalari ham bor. Ayni chog'da XIX asrda rus diniy falsafasi ham paydo bo'ldi. Rus falsafasidagi kosmizm oqimi diqqatga sazovordir. Bunda inson va kosmos birligi, odamzotning kosmik tabiatini to'g'risidagi fikrlarit ilgari suriladi.

Rus kosmizmi: a) hayoliy yo'nalish; b) geologik yo'nalish; v) tabiat ilmi bilan bog'liq yo'nalishda namoyon bo'ldi. Ayniqsa, K.E.Stiolkovskiy (1857-1935) hozirgi zamон kosmonavtikasi rivojiga munosib hissa qo'shgan. V.I. Vernadskiy (1863-

1945) antropokosmizm nazariyasiga asos soldi hamda Noosfera to‘g‘risidagi ta’limotni yaratdi.

G.V.Plexanov Rossiya marksisti sifatida bolsheviklarning revolyutsiya to‘g‘risidagi bироqlama qarashlariga qo‘shilmedi. Lenin boshliq bolsheviklar partiyasi dastavval Rossiyada sotsial-demokratik inqilob uchun kurashgan bo‘lsalar, 1915 yildan e’tiboran nemis razvedkasi ta’sirida Lenin yolg‘iz olingen alohida mamlakatda ham proletar inqilobi g‘alaba qozonishini go‘yoki “falsafiy” jihatdan asosladi. Rus falsafasidagi bu “so‘l” yo‘nalish rus davlatchiligi asoslariga bolta urib, insoniyat boshiga behad kulfatlar keltirdi. Natijada XX asr boshlarida atoqli rus faylasuflari va ziyolilari chet ellarga qohib ketdilar, qolganlari turmalarga tashlandilar.

4-m. Hozirgi zamон falsafasida turli oqimlar bor. Bular ichida pragmatizm, neotomizm, ekzistentsializm, neopozitivizm oqimlari G‘arb mamlakatlarda kengroq yoyilgan.

Pragmatizm asoschisi AQSH mutafakkiri Ch.Pirsdir. Pragmatizm nuqtai nazaridan u yoki bu ob‘yekt haqidagi tushunchalar ma’nosi va ahamiyatini ularni keltirib chiqargan amaliy natijalardan qidirish kerak, deb hisoblaydi. Ilmiy bilishda tajriba o‘tkazishga katta e’tibor berish unga xos xususiyatdir.

Neotomizm—katolik cherkovining falsafiy qarashlari bo‘lib, u materializm va sub‘yektiv idealizmga qarshi turib, universalizm, ya’ni yalpi umumiylig da’vosi bilan chiqdi va aql bilan din bir butun sintezi sifatida birlashishi, tajriba bilan aqliy va hissiy bilish orqali amaliyotni birlashtirish nuqtai nazarida turadi.

Neotomistlar xudoning mavjudligini falsafaning mantiqiy usullari orqali “isbotlab”, diniy e’tiqodni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim, deb hisoblaydilar.

Germaniya va Fransiyada **ekzistentsializm** (mavjudlik) nomi bilan vujudga kelgan oqimda odamzotning yashashi, o‘limi haqidagi tashvishlar va o‘limdan qo‘rquv bo‘lib, falsafa o‘z e’tiborini bu kechinmalarning oldini olishi, unga ma’naviy “ozuqa” berishi kerak, deb hisoblaydi. Bu oqim falsafa va ilohiyot omuxtasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Neopozitivizm pozitivizmning yangicha ko'rinishi bo'lib, XX asrning 20-yillarida falsafaning dolzarb muammolarini hal etish da'vosi bilan chiqqan edi. U fanni falsafaga qarshi qo'yib, faqat maxsus fanlargina haqiqiy bilim berishi mumkin, deb hisoblaydi. Hozirgi davrda bu oqimning qadri tushib ketdi.

Bu davrga kelib, Sharq mamlakatlarda ham falsafiy fikrlar rivojlandi. Sharqdagi falsafiy qarashlar G'arb falsafasidan foydalangan holda, unga ehtiyyotkorlik bilan yondoshuv nuqtai nazarida turibdi. Chunki Ovrupocha qarashlarda ma'naviy-axloqiy tubanlik mayllari ham mavjud bo'lib, uning yo'lini to'sish nazarda tutiladi. Chet ellarda ancha putur yetgan Islom falsafasi mavqeini tiklash uchun turli oqimlar yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonda dunyoviylik va diniylik omillaridan samarali foydalanib, yuksak ma'naviyatlari jamiyat shakllanishi uchun yo'l ochish, bunda nafaqat dinlar, balki ilmiy falsafa nuqtai nazarida turib ham imonli barkamol avlodni tarbiyalab, jamiyatda chinakam insoniy munosabatlarni vujudga keltirish nazarda tutilmoqda. Aql va uning natijasi bo'lgan ITI imkoniyatlaridan faqat bunyodkorlik maqsadlarida foydalanish kontseptsiyasi ilgari surilmoqda. Ayni chog'da har qanday falsafiy oqim emas, falsafaga fan sifatida yondashish hozirgi zamon muammolar ni yechimini topishda kadrlar uchun dasturulamal bo'lishi mumkinligi dalillanmoqda. Falsafada albatta ham milliy, ham umumbashariy muammolar yechimini topish" imkoniyati yanada kengayib, Sharq va G'arb xayrli an'analari mushtarakligi davri boshlanishi mumkin, deb hisoblanmoqda.

Xulosa: a) XVI-XVIII asrlar G'arbiy Ovrupoda falsafa cherkov ta'siridan chiqib ketdi; b) nemis mumtoz(klassik) falsafasi falsafiy fikrlar rivojiga katta hissa qo'shi, ayni chog'da markscha falsafa ta'sirida ijtimoiy-siyosiy harakatlar vujudga keldi; v) Rus falsafasi o'z o'mniga ega bo'ldi; g) hozirgi zamonda G'arb va Sharqda turli falsafiy oqimlar yuzaga kelib, O'zbekistonda falsafaga fan sifatida yondoshuv Sharq va G'arbnı ma'naviy jihatdan yaqinlashtirishi mumkinligi asoslanmoqda.

II bob. ONTOLOGIYA–BORLIQ VA UNING SHAKLLARI HAQIDAGI FALSFAFIY TA'LIMOT

1-mavzu: Moddiy borliqning tuzilishi va mavjudlik shakllari

Reja:

Kirish.

1. Moddiy borliq kategoriyasi haqidagi munozaralar.
2. Materiya kategoriyasi. Dunyoning moddiy birligi.
3. Harakat va taraqqiyotning falsafiy idroki.
4. Fazo va vaqt – materiyaning yashash shakli.

Xulosa.

«Borliq» ontologiyaning asosiy kategoriyasi bo‘lib, uning atrofidagi bahslar hanuz davom etadi. Olam va odamning barqaror mavjud bo‘lishini kafolatlaydigan yaxlitlik va o‘zgarmaslik voqelikni anglash, «hayot ma’nosini belgilash bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Borliq to‘g‘risidagi an‘anaviy qarashlar qadrsizlangach, «hoziri-yu huzuri» tarzida faoliyat yo‘nalishi belgilaydigan, yuksak insoniy va ijtimoiy maqsadlardan mahrum bo‘lib borayotgan individlar ko‘payib, sivilizatsiya boshi berk ko‘chaga kirib qolish xavfi paydo bo‘lmoqda. Bunday sharoitda borliqni falsafiy anglash, olam deb atalgan borliq bilan inson borlig‘i o‘rtasida ajratib bo‘lmaydigan ma’naviy va ijtimoiy borliq ham borligini yosh avlod ongi va qalbida mustahkam o‘rin olishiga erishish sivilizatsiyani saqlab qolish uchun kafolat bo‘lishi mumkin.

I-m. Tarixan borliq haqida turli-tuman fikrlar bildirilgan va hozir ham bu masalada turlicha yondashuvlar bor. Borliq ilmiy-falsafiy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq keng ma’noli kategoriya bo‘lib, u **moddiy borliq, tabiat borlig‘i, odamzot borlig‘i, ma’naviy borliq, ijtimoiy va virtual borliq** shakllarida namoyon bo‘ladi. Borliqning barcha shakllari koinotda mavjud. Uning astronomik qurilmalar yordamida tadqiq etiladigan qismi metagalaktika bo‘lib, unda 100 million galaktika joylashgan. Bizga ko‘rinib turgan va mategalaktikadagi o‘rtacha yulduz hisoblangan Quyosh atrofida hozircha ma’lum bo‘lgan 9 ta planeta aylanadi.

Yer esa ular ichida o‘rtacha planetadir. Hozirgi zamon fan dalillariga binoan, Borliq bundan 20 milliard yil muqaddam «Katta portlash» natijasida «Yo‘qlik»dan bor bo‘lgan va bu metagalaktikaning yoshi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ilmiy-falsafiy dunyoqarash bilan diniy-ilohiy dunyoqarash o‘rtasida jiddiy farq yo‘q. Chunki jahon dinlarida ham xudoi-taolo yo‘qdan bu «Yorug‘ dunyo»ni va borliq shakllarini yaratgan hisoblanadi.

Borliq haqida tarixan turlicha fikrlar ilgari surilgani va hozir ham bu haqda jiddiy munozaralar davom etayotganining sababi shundaki, odamzot olam va unda o‘zining o‘rnini aniq-ravshan anglab olishni istaydi. Bunda muayyan g‘oyalar tizimi hisoblangan mafkura orqali ilmiy-falsafiy yoki diniy-ilohiy dunyoqarash g‘oyalari odamzot ongiga singdirilib, u shu nuqtai nazardan turib borliq hodisotlarini baholagan holda qadriyatli ongga ega bo‘ladi. Shu jarayonda odamzoti inson – ijtimoiy mavjudotga aylanishga intiladi.

Olamning asosi (negizi)da nima yotadi, degan savolga javob berishda uchta kontseptsiya (nuqtai nazar) mavjud: Monizm kontseptsiyasiga ko‘ra, borliq asosida bitta substantsiya etadi. Ya’ni, materialistik qarashlarga binoan olam tabiatan moddiy – materiyadan hosil bo‘lgan. Idealistik qarashlarga ko‘ra, dunyoning asosida mutloq g‘oya yoki ilohiy substantsiya yotadi.

Dualizm nuqtai nazaridan, borliqning asosida ikkita mustaqil negiz: moddiylik va ma’naviyat yotadi.

Plyuralizm nomayondalarining fikricha, borliqning asosida bir-biridan mustaqil ravishda moddiy va ma’naviy (g‘oyaviy) negizlar mavjud. Ayrim plyuralistlar borliq tuproq, suv, havo va olovdan tashkil topganligini tan oladilar. Boshqalari esa mutloq g‘oya va ma’naviyat substantsiyada ustuvorlik qiladi, deb hisoblashadi.

Ular ichida mifologik va diniy dunyoqarashlar asosida bayon etilgan fikrlar uzoq vaqt ijtimoiy ongda hukmronlik qilmoqda. Dastlabki falsafiy fikrlarga ko‘ra esa olamdagи narsa, hodisa, jarayonlar to‘rt unsurdan paydo bo‘lgan. Diniy dunyoqarashlar keng yoyilgan davrlarda xudo – borliq yoki u borliqning asosi hisoblab kelindi, olamdagи jarayonlarga shu nuqtai nazardan baho berilib, munosabat belgilandi.

Borliq haqida dastlabki falsafiy fikrlar Sharqda va so‘ngra Qadimgi sivilizatsiya maskani bo‘lgan Gretsiya (Yunoniston)da vujudga kelgan, Uyg‘onish davrida (IX-XII asrlar) Yunoniston olimlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozildi. Shu jarayonda borliq haqidagi falsafiy fikrlar rivojlandi.

Forobiyning fikricha, xudo borliqda yakkayu yagona, birinchi borliq. Xudo va materiya bir butun borliqni tashkil etadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy zaruriy borliq va imkoniyat darajasidagi borliq haqida fikr yuritib, zaruriy borliq – xudo va uning qudrati (birinchi sabab), imkoniyat darajasidagi borliq moddiy olam va undagi sababli bog‘lanishlar, deb izohlaydi. Ibn Sino olamda zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin) bo‘lib, birinchisi hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan butunlikdir, ya’ni tangri-taolodir, ikkinchisi, birinchisidan kelib chiqadi va uni namoyon etadi, deydi. Ibn Sinoning sodiq shogirdi Umar Xayyom falsafiy fikrlar rivojiga bebahो hissa qo‘shgan allomadir. Uning ta’limotiga ko‘ra, narsalar asosida borliq – «umumiyl aql» yotadi, undan «umumiyl jon», «umumiyl narsa» hosil bo‘ladi. «Umumiyl aql» (Xudo) yaratgan moddiy olam yuzaga kelish, harakat, rivojlanish va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish jarayonini boshidan kechirib turadi. Mir Said Jurjoniy borliq o‘zining mohiyatiga ko‘ra mavjuddir, u yo‘qlikka cho‘milishi mumkin emas, deydi. Zaruriy vujud tushunchasini u Xudo va uning asmi ismi (atribut)lari bilan bog‘laydi. Jurjoniy zaruriy vujud va imkoniy vujud masalasida Ibn Sino nuqtai nazarida turadi, har ikkalasi borliqni taraqqiyotning turli bosqichlari, deb izohlaydi. Navoiy nazarida borliq bilan xudo aynandir, ya’ni Xudo borliqda o‘zini namoyon qilsa, borliq xudoning zuhri sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdul Volid ibn-Rushd fikricha, moddiy olam abadiy, uning boshlanishi ham, oxiri ham yo‘q. Xudo materiyadan oldin mavjud bo‘laman, balki u materiya bilan birga abadiy va to‘xtovsiz mavjud, chunki yangi harakatni har doim eski harakat vujudga keltiradi. U haqiqatning ikkiligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari surgan. Al-Kindiy Abu Yusuf olamni yaratuvchi Alloh – azaliy va tanho, lekin tabiatdagи barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. U olov, suv, havo va tuproq shaklida namoyon bo‘ladi, deb hisoblagan. Kindiy substantsiya (asos) tushunchasini ilgari surib, materiya, shakl, fazо, vaqt va harakatda u namoyon bo‘ladi, degan. Kindiy Aqlning 4

turi haqida fikr yuritadi va zaruriy aql, imkoniy aql, erishgan aql, namoyon aql borligiga e'tiborni qaratgan.

Borliq haqidagi fikrlar rivojiga Uyg'onish davri XV-XVIII asrlar G'arb olimlari ham bebafo hissa qo'shganlar. Nemis faylasufi Gegel borliqni «yo'q bo'lувчи borliq» va «Noborliq»qa bo'lgan. U «Mutloq g'oya»ni borliq asosi, deb hisoblagan. Neotomizmda esa «Illohiy birinchi ibtido» «Sof borliqdir», personalizmda «Oliy shaxs» — Xudo birlamchi reallikdir. Berkli borliq bizning his-tuyg'ularimizda mavjuddir, deydi.

Falsafa fanlari doktori B.To'raev hozirgi zamон G'arb olimlarining tadqiqotlariga tayanib, borliq va uning paydo bo'lishi haqidagi qarashlarni umumlashtiradi¹. Bunga ko'ra mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo mavjud. U "Katta portlash tarixi jadvalida" borliq va uning turli shakllari o'zidan-o'zi paydo bo'lgan vaqt va davrlarni ko'rsatgan.

¹Qarang. Baxtiyor To'rygyy. Borliq mohiyati, shakllari, xususiyati. T., 2011 y. – 120 bet.

KATTA PORTLASH TARIXI JADVALI

VAQT	DAVR	HODISA	Bugungacha o'tgan vaqt
0	singulyarlik	Katta Portlash	20 mlrd
10-43 sekund	Plank vaqt	Zarrachalar paydo bo'lgan	20 mlrd
10-0 sekund	Adronlar davri	Proton va antiproton juftlari anniglyatsiyasi	20 mlrd
1 sekund	Leptonlar davri	Elektron-pozitron juftlari annigil-yatsiyasi	20 mlrd
1 minut	Radiatsion davr	Geliy va deyteriyning yadrovyi sintezi	20 mlrd
1 hafta		Bu davorda nurlanish termallahadi	20 mlrd
10 ming yil	Modda davri	Koinotda modda ustunlik qila boshlaydi.	20 mlrd
300 ming yil		Koinot nurlanish uchun shaffoflashadi	19,7 mlrd
1-2 mlrd yil		Galaktikalar paydo bo'la boshlaydi	18-19 mlrd
3 mlrd yil		Galaktikalar to'plari vujudga keladi	17 mlrd
4 mlrd yil		Bizning protagalaktikamizning zichlashuvi	16 mlrd
4,1 mlrd yil		Dastlabki yulduzlar vujudga kelgan	15,9 mlrd
5 mlrd yil		Kvazerlar va yulduzlar vujudga kelgan	15 mlrd
10 mlrd yil		Yulduzlarning paydo bo'lishi	10 mlrd
15,2 mlrd yil		Quyosh sistemasining vujudga kelishiga asos bo'lgan yulduzlararo bulutlar paydo bo'lgan	4,8 mlrd
15,3 mlrd yil		Protoquyosh tumanligining zichlashuvi	4,7 mlrd
15,4 mlrd yil		Planetalar vujudga kelgan, zaminning qattiqlashuvi	4,6 mlrd
16,1 mlrd yil	Arxeozoy davri	Eng qadimiy er zaminining shakllanishi	3,9 mlrd
17 mlrd yil		Mikroorganizmlarning vujudga kelishi	3 mlrd
18 mlrd yil	Protozoy davri	Kislорodga boy atmosferaning vujudga kelishi	2 mlrd
19 mlrd yil	Paleozoy davri	Makroskopik shakllarning vujudga kelishi	1 mlrd
19,4 mlrd yil		Moddalarning ilk toshga aylanishlari	600 mln
19,55 mlrd yil		Quruqlikda ilk o'simliklar paydo bo'lishi	450 mln
19,6 mlrd yil		Baliqlarning paydo bo'lishi	400 mln
19,75 mlrd yil	Mezazoy davri	Tog'larning, daraxtlarning paydo bo'lishi	250 mln
19,8 mlrd yil		Reptiliyalarning vujudga kelishi	200 mln
19,85 mlrd yil	Kaynazoy davri	Dinozavrлarning vujudga kelishi, qit'alarning silishi	150 mln
19,95 mlrd yil		Dastlabki sute nimuzuvchilar vujudga kelgan	50 mln
20 mlrd yil		Odamzot (<i>Homo sapiens</i>) paydo bo'lgan	2 mln yil

Albatta bu jadvaldagi raqamlar yaxlitlab olingan bo'lib, u koinot evolyutsiyasining asosiy davrlarini qamrab olgandir

Mikrodunyo atom miqyosidagi dunyo bo'lib, ular kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sir kuchlaridir. Bu dunyoni atom va elementar zarrachalar, atom yadrosi va uning tarkibiy qismlari bo'lgan kvarklar, gleyonlar, kernlar tashkil etadi.

Makrodunyoda malekulalardan tortib Yer sharining yaxlitligini saqlovchi elektromagnit o'zaro ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Bular molekulali birikmalardan

tortib, Yerdagи barcha hayotiy jarayonlar strukturaviy birligini saqlaydi. Mabodo bu bo'limganda, Quyosh nurlari Yerga etib kelmas, binobarin, boshqa planetalardagi kabi Yerda hayotiy jarayonlar mavjud bo'lolmasdi.

Megadunyo tarkibiga Quyosh sistemasi (o'rtacha yulduz)dan tortib Koinot miqyosidagi olam kiradi. Koinotning strukturaviy yaxlitligi gravitatsion o'zaro ta'sir kuchlari tufayli saqlanadi.

Bu uchala dunyo bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'zaro almashinishi ham mumkin. «Qora tuynuklar»ning portlashi natijasida mikro va makrodunyo megadunyoga, aksincha, makrodunyolar mikrodunyoga aylanishi mumkin.

Borliq – mavjudlik tushunchasi nihoyatda umumiy bo'lib, borlik va reallik (aniq borliq) yalpi umumiy sinonim tushunchalardir. Borliq bizga ko'rindigan (ma'lum) va ko'rinnmaydigan (noma'lum) barcha narsalar: bu – moddiy narsalar, bu – barcha fizik, kimyoviy, geologik, biologik, odamzot-borlig'i, ma'naviy borliq, ijtimoiy va virtual borliqlar, ularning munosabatlardir. Yo'qlik ham borliqning g'ayrivoqeiy bir ko'rinishi bo'lib, ular bir-biriga o'tib turmaganida hamma narsa yo'q bo'lib ketardi. Hozirgi zamон fizikasi nuqtai-nazaridan qaraganda, koinot go'yoki tirik organizm kabi yashaydi, o'ladi va yangidan yo'qlikdan bor bo'ladi. Moddiylik (materiya) mavjudligining barcha konkret (aniq-ravshan) shakllari – qattiq kristallar, jonivorlar va odamlar go'yoki yo'qlikda mavjud bo'lib, aniq borliq tusiga kirganlar. Borliqning narsa ko'rinishlari qanchalik uzoq mavjud bo'lmasin, baribir, ular oxir-oqibat noborliqqa (yo'qlikka) aylanadi. Masalan, odam ham moddiy borliq sifatida yoshini yashab, oshini-oshab bo'lgach, «yo'qlik»ka aylanib, uning kimyoviy va fizik xossalari qoladi. Bor narsaning yo'qlik – Borliqning boshqa ko'rinishiga aylanishi ma'lum bir narsaning vayron bo'lishi, borliqning boshqa shakliga o'tganini anglatadi. Binobarin, falsafada yo'qlik nisbiy tushunchadir, ammo moddiy jismilar mutloq ma'noda yo'q bo'lishi mumkin emas.

Bizning nazarimizda, moddiy borliq fazo va vaqtda chek-chegarasiz, turli-tuman ko'rinishlarda o'zini namoyon etadigan, inson ongiga bog'liq bo'limgan holda fazo va vaqtda poyonsiz harakatdagi bir butun yaxlit olamni ifodalovchi falsafiy kategoriyyadir.

Hozirgi zamon falsafa fani nuqtai nazaricha, borliq moddiy (tabiiy) va ruhiy olamdan iboratdir. Moddiy olam ob'yektiv, ruhiy olam esa sub'yektiv tasnifga egadir. Davr ruhi, ijtimoiy ong tarzidagi ruhiy olam individlarga nisbatan ob'yektivdir. Moddiy narsalarni bilishga nisbatan ruhiy borliqni bilish qiyinroqdir. Masalan, inson ichki olami, muayyan tarixiy davrdagi ruh, ijtimoiy ong yo'naliishi ham xuddi moddiy borliq kabi reallikdir. Muhabbat va nafrat, ishonch va ishonchsizlik ruhiy holati individlar xatti-harakati, o'zaro munosabatlarida moddiylashadi. Yoki Gitler kabi shaxslarning o'zini-o'zi ulug'lashi va hokimiyatga intilishi ham empirik reallik (borliq) bo'lib, u yer qimirlash, suv olish kabi tabiiy ofatlardan ko'ra ham insoniyat boshiga dahshatli kulfatlarni solgani ma'lum.

Borliq 6 shaklda namoyon bo'ladi: a) moddiy borliq; b) tabiat borlig'i; v) odamzot borlig'i; g) ma'naviy borliq; d) ijtimoiy borliq; j) virtual borliqdan iborat.

2-m. Ilmiy muloqotda moddiy narsalar tarixan materiya kategoriysi bilan izohlanadi. Materiya narsalar xilma-xilligida mavjud bo'lgan ob'yektiv reallikni ifodalovchi falsafiy kategoriyadir va odam ongidan tashqaridagi bu voqelik uning ongiga ta'sir etib, idrok qilinadi. Shu jarayonda odam ongida materiyaning aniq-ravshan (konkret) ko'rinishlari haqida tasavvurlar hosil bo'ladi.

Materiya modda va maydon ko'rinishlariga ega. Atom va molekulalar materiyaning moddiy ko'rinishi, elektromagnit maydon, yadro maydoni, gravitatsion maydon esa materiyaning maydon ko'rinishlaridir. Modda va maydon bir-biriga o'tib turadi.

Har qanday individ hayoti davomida o'zi yashagan sotsial muhit ta'sirida va shaxsiy tajribasi asosida muayyan dunyoqarashga ega bo'lib, olamdag'i narsa va hodisalarga shu dunyoqarashiga muvofiq munosabatda bo'ladi. Materiya haqidagi tasavvurlarning kengayib, chuqurlashib borishi natijasida olimlar olamning ichki sirlarini ochishga muvaffaq bo'lishmoqda. Endilikda fan olamning moddiy jihatdan bir butunligini isbotladi.

Masalan:

1) Koinotdagi barcha yulduzlar quyosh kabi dumaloq va muayyan sistemaga ega;

- 2) barcha jismlarga markazga intilish va markazdan qochish xosdir;
 - 3) Yer va kosmik jismlar bir xil kimyoviy elementlardan tashkil topgan;
 - 4) hamma kimyoviy elementlarning atom tuzilishi bir tipdagи zarrachalardan iborat;
- 5) Yer va koinotdagи jismlar vujudga kelish va yo‘q bo‘lish (boshqa shakllarga o‘tish) xususiyatiga ega, ularga harakat xosdir.
 - 6) tirik organizmlar va notirik jismlarning hammasi uchun in’ikos xos;
 - 7) tirik tabiatning barchasida modda almashinish jarayoni mavjud;
 - 8) tirik organizmlarning hammasi hujayra va neyronlardan tashkil topgan, ularning barchasida genlar irsiyatni saqlashga harakat qiladi.

Shu bilan birga fan moddiylik bilan ma’naviylik o‘rtasida mustahkam aloqa borligini dalillamoqda. Tarixan bu har ikki tushunchaning bittasi mutloqlashtirilib, substantsiya masalasiga munosabatda ko‘p tortishuvlar bo‘lgan. Endilikda nazariy ongni parchalab, amaliyotda insonlar guruhlarini qarama-qarshi tomonlarga ajratib yuboradigan bunday qarashlarga barham berish, uning o‘rniga «olam-odam» munosabatlarini insoniyashtirish xususida ilmiy bahs yuritish ma‘quldir. Bir butun olamda bitta tur bo‘lgan odam zoti o‘zaro hamkor, hamnafas bo‘lib yashashga uzilkesil o‘tib olishi hamda turli ta’limotlar yordamida dushman obrazini yaratishdan tiyilishi kerakligi biz yashayotgan tarixiy davr taqozosi bo‘lib turibdi.

3-m. Barcha moddiy narsalar doimo harakatda, bir holatdan boshqa holatga o‘tish jarayonida mavjuddir. Zero, materiyasiz harakat yo‘q, harakat bor joyda materiya mavjuddir. Mutloq osoyishtalik (tinch holat) yo‘q, osoyishtalik harakatning muayyan bir holatidir.

Materiya abadiy bo‘lgani uchun harakat ham abadiydir. Faqat materiyaning ko‘rinishlari muvaqqat bo‘lgani sababli, harakat ana shularda vaqtinchalikdir. Harakatning bir holatdan boshqasiga o‘tishi uzliksiz bo‘lsa, harakat shakllarining bir-biri bilan bog‘liqligi, o‘tishi, biri ikkinchisidan kelib chiqishi uzluklilikdir. Harakat uzluklilik bilan uzlaksizlik birligidan iboratdir. Harakat manbai har bir narsaning o‘z ichida, uning qarama-qarshi tomonlarining bir-biriga ta’siridadir. Albatta moddiy jismlar harakatida tashqi ta’sirlarning ham roli bo‘ladi.

Harakat narsaning mavjud sifatini saqlab qolish uchun kurashda hamda narsa mavjud sifatining emirilishi, boshqa holatga o'tishi bilan tavsiflanadi. Ya'ni, borliq va yo'qlik dialektikasida harakat namoyon bo'ladi. Harakatning 5 shakli ma'lum: a) mexanik, b) fizik, v) ximik, g) biologik, d) ijtimoiy harakat shakllari fanga ma'lum. Makro va mikrojismlarda bu harakat shakllari o'ziga xos namoyon bo'lishi mumkin.

Harakat tufayli tabiatda va jamiyatda rivojlanish va taraqqiyot sodir bo'ladi. Quyi darajalar harakat natijasida yuqori darajalarga chiqadi, ammo taraqqiyotning bunday namoyon bo'lishini sodda tushunmaslik, ya'ni har qanday murakkab darajalar quyi darajalarning oddiy takrori degan tasavvur hosil bo'lmasligi darkor, chunki bunday qarash salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, maymundan odam kelib chiqqan degan fikrlar insoniyat faoliyatini g'ayriilmiy tomonlarga burib yubordi. Ijtimoiy hodisalarni biologik qonunlar asosida izohlash ham yomon oqibatlarga olib kelgani ma'lum. Harakat keng miqyosli tushuncha, taraqqiyot esa torroq, ammo chuqurroq tushunchadir. Faqat oldinma, ilgarilama harakatdagina yangi sifat holatlari ro'y beradi va bu taraqqiyot hisoblanadi.

4-m. Fazo va vaqt masalasida substantsional va relyatsional konseptsiyalar bor. Substantsialchilar fazo va vaqt materiyadan ajralgan, mustaqil holda mavjud deydilar. Relyatsionchilar esa fazo va vaqtini moddiy ob'yektlarning o'zaro ta'sirini shakllantiruvchi munosabatlar tizimi, binobarin, ular mustaqil mohiyat emas, deb hisoblaydilar. Shu kontseptsiya to'g'rilingini nisbiylik nazariyasi tasdiqlaydi.

Shunday qilib, fazo va vaqt barcha moddiy ob'yektlar va jarayonlar borlig'inining shakllari bo'lib, fazo va vaqtidan ajralgan narsa yo'q, shuningdek, harakatdagi materiyadan tashqarida fazo va vaqt bo'lishi mumkin emas. Katta sistemalardagi fazo va vaqt unga kiruvchi sistemalar rivoji uchun sharoitdir.

Fazo uchun ko'lam xos bo'lsa, vaqt uchun davomiylik, bir o'lchamlilik, qaytarilmaslik, o'xshashlik xosdir. Barcha moddiy jismlar uchun uch o'lchovli ko'lam kifoya qiladi: jism harakati chiziqni – bir o'lchovli ko'lamni, chiziqning perpendikulyar yo'nalishdagi sig'imi – tekislikni – 2 o'lchovni, tekislikning siljishi – hajmni – 3 o'lchovli ko'lamni tashkil etadi. Vaqt moddiy jismlar uchun 4-o'lchov hisoblanadi va u qaytarilmasdir.

Bundan tashqari, hozirgi zamon faniga fazo-vaqt kategoriyasi kirib keldi, ya'ni fazo va vaqt o'rtasidagi farq juda oz qoladi. Bunga ko'ra, jism tezligiga qarab, uning ichidagi jism harakati sekinlashadi. Masalan, sekundiga 40 km tezlikda uchadigan raketa ichidagi odam yoshi 30 da bo'lib, 4 yoshli bolasi u bilan hayrlashib ,2 yilda qaytganda, 32 yoshli kosmonavt otani 84 yoshli mo'y safid o'g'il kutib olishi mumkin. Agar raketa yorug'lik tezligiga yaqin uchsa, kosmonavtning yoshi bir yoshta oshganda, Yerda 270-280 yil vaqt o'tib ketgan bo'ladi.

Materiya (moddiy olam) abadiy bo'lgani sababli, fazo va vaqt ham mutloqdir.

Xulosa: a) borlik ob'yektiv reallik bo'lib, moddiy va ma'naviy olamdan iboratdir; b) olamdagи barcha moddiy narsalar ilmiy tilda umumlashtirilib, materiya kategoriyasida ifodalanadi; v) materiya abadiy bo'lgani uchun harakat ham abadiydir, faqat materianing ayrim ko'rinishlari vaqtli, uzluksizdir, oldinma harakat esa rivojlanish va taraqqiyotdir; g) fazo va vaqt barcha moddiy ob'yektlar va jarayonlar borlig'ining shakllaridir, u materiyadan ajralmasdir.

2-mavzu. Tabiat va odamzot – borliq shakllari sifatida

Reja:

Kirish so'zi

1. Tabiat borliq shakllaridan biri sifatida.
2. Antroposotsiogenezis omillari.
3. Odamning inson (jamiyatlashgan individ)ga aylanib borishi.
4. Tabiat borlig'i bilan odamzot borlig'i o'rtasidagi ziddiyatlar.

Xulosa.

Ushbu va'zda borliqning o'ziga xos tarkibiy qismi va shakllari bo'lgan tabiat hamda odamzot borlig'i haqidagi hozirgi zamon falsafiy fikrlari bayon etiladi.

1-m. Hozirgi zamon tabiiyotshunoslik fanlari Yer shari harakat natijasida taxminan 3,9 milliard yil avval o'zidan-o'zi vujudga kelganligini ta'kidlaydi. 3 milliard yil avval Yerda hayot nishonalari — mikroorganizmlar va 450 million yil-

muqaddam quruqlikda ilk o'simliklar paydo bo'lgan. Natijada Yer yuzida borliqning biosfera shakli hosil bo'la boshlagan («Katta portlash tarixi jadvaliga qarang!»¹).

Tabiat – keng ma'noda turli-tuman butun olam bo'lib, bunday yondashuvda odamzotga ma'lum narsalardan tortib, galaktikalar, mategalaktikalar, kvazerlar, pulsler, atomlar, elementar zarrachalar va fizikaviy maydonlarni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, Tabiat barcha Koinot, materiya tushunchalarining sinonimi sifatida ham tushuniladi. Tor ma'noda Koinotdagi milliardlab yulduzlar ichida o'rtacha kattalikdagi Yulduz – bizga ko'rinish turgan Quyosh atrofida aylanib, kecha va kunduzi, baxori, yozi, kuzi, qishi bo'lgan va Yer deb ataladigan o'rtacha hajmdagi planetadir. Hozircha fanga shu planetadagina tirik mavjudotlar yashashi uchun qulay sharoitlar mavjudligi ayon: atmosfera (havo), suv, yer, yer osti va yer osti boyliklari, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami va h.k.

Fan nuqtai nazaridan Yer deb ataladigan tabiatda o'simliklar dunyosi va hayvonot olami o'zidan-o'zi vujudga kelganligi isbotlangan. Yerga moslasha olgan o'simliklar va hayvonlar yashaydi, o'zidan-o'zi ko'payadi, moslasha olmagani o'zidan-o'zi yo'q bo'ladi, ya'ni boshqa narsaga aylanadi.

Kosmologiyadagi antropologik tamoyilga muvofiq, kelajakni bashorat qilish mumkin. Bu tamoyilga binoan, odamzot kuzatuvchi sifatida mavjudlik talablaridan kelib chiqqan holda Koinotdagi hodisalarini kuzatib, undan xulosalar chiqarib borishi lozim. Zero, Yer shari Galaktikaning markazidan ham, uning chetidan ham bir xil uzoqlikda va qulay gravitatsion maydon ostida joylashgan. Tirik mavjudotlar, shu jumladan odamzot uchun Yer planetasi o'ziga qulay bo'lgan fazoda yashaydi.

Koinotning harakati va taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida odamzot paydo bo'lib, u endilikda Koinotning birdan-bir kuzatuvchisiga aylandi. Ayni chog'da odamzotning paydo bo'lishi va tarixiy-tadrijiy rivoji natijasida Yerda borliqning yana to'rtta shakli – odamzot borlig'i, ma'naviy borliq, ijtimoiy va virtual borliqlar paydo bo'ldi.

Biosfera – tiriklik sohasi, geosfera – yer sohasi, texnosfera – san'atchilik sohasi degan tushunchalar bor. Ana shulardagi falsafiy mazmunni anglab olish muhimdir.

¹ Baxtiyor To'rayev. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. T., 2011 y. – 100-b.

2-m. Biosfera rivoji natijasi sifatida taxminan 5 million yil muqaddam aqlii mavjudot – avstralopitek (Janubiy odam)lar paydo bo‘lib, yashash uchun birgalashib kurashish zarurati tufayli ularning miya yarim sharlari kengayib, fiziologik va aqliy jihatdan takomillashib borgan. Asta-sekin pitekantrop, sinantrop, neandertal toifasidagi odamlar paydo bo‘lgan va ular ov qurollari yasab, takomillashtirib borganlar. Ular oila-oila, gala-gala bo‘lib yashaganlar, asosan tovush, harakat, mimika tillarida o‘zaro aloqaga kirishganlar.

Odamzotning miya xromasomasi 46 ta bo‘lib, u o‘z tuzilishi jihatidan hayvonlarnikidan farq qiladi. Bu xromosomalari 45 yoki 47 ta tug‘ilgan bolada aql zaif bo‘ladi, unda hayvonlarga xos xatti-harakatlar kuzatiladi. Taraqqiyot natijasida keyingi 50 ming yillik tarixiy davrda qadimiy odamlarning vorisi, ammo ulardan sifat jihatidan farqlanadigan odamlar toifasi – Homa sapiens – Aqlii odamlar paydo bo‘lganlar. Ular miya yarim sharlarida rivojlangan nutq tili markazi shakllanganki, natijada tushunchaviy tafakkur yordamida o‘zaro aloqalar kuchayib, u takomillashib borgan. Nihoyat, odam zoti jamiyat bo‘lib yashashga o‘tib, ijtimoiy muhit shakllanib, jamiyat o‘zini-o‘zi tashkillovchi va boshqaruvchi sistemaga aylangan.

Odamzotning butun xatti-harakati, faoliyat yo‘nalishi avvalo ideal tarzda uning miyasida shakllanadi. Dunyoqarashning haqiqiy voqelikka to‘g‘ri kelishining ahamiyati shundaki, dunyoqarashga ega bunday odamlar borliqqa faol ta’sir etib, uni o‘zgartirish jarayonida yashash sharoitini yaxshilab boradilar. Fanda bu «ikkinchitabiat» deb ataladi. Ya’ni, odamzot aql-idroki, ijodiy mehnati bilan yaratilgan ja’miki narsalar ana shu tushunchada o‘z ifodasini topgan.

Antroposotsiogenezisning asosiy omillari ong va ongli mehnat, til va nutq tili, tafakkur, ijtimoiy-axloqiy ruxsat va taqiqlar bo‘lib, ular ichida hal qiluvchi omil ‘moddiy ishlab chiqarish va ma’naviy boyliklar yaratish hamda mehnat qurollari va predmetlarini takomillashtirib borish jarayonida tarixan odamning fiziologik tuzilishi va sotsial qiyofasi ham o‘zgarib borgan.

Odamning paydo bo‘lishi; borliq shakllaridan biri sifatida uning tarixiy-fiziologik va aqliy takomili haqidagi fikrlar dunyoqarashlik mohiyatiga ega bo‘lgani uchun doimo bu masala munozaralarga sabab bo‘lib keladi.

Ko‘p asrlar davomida olam va odamning paydo bo‘lishi haqida diniy dunyoqarash orqali individlar o‘zlarining ijtimoiy mohiyatlarini anglab keldilar. Diniy dunyoqarashlarda ham Xudoi-taolo^{*} bu «yorug‘ dunyo»ni yo‘qdan bor qilgan deyiladi. Ilmda borliq yo‘qlikdan portlash natijasida o‘zidan-o‘zi hosil bo‘lgan. Demak, borliqning paydo bo‘lishi to‘g‘risida diniy va falsafiy qarashlarda jiddiy tafovut yo‘q, bulardagi yondashuvlardagi farqqa qarab «dushman» obrazi yaratish ilohiyot va falsafiy nuqtai nazardan to‘g‘ri emas, albatta. Hozirgi dunyo – globallashuv jarayonida dunyoqarashlardi tafovutlarga qarab, odamzotida dushman obrazi yaratish, bu sohadagi ziddiyatlarni o‘zining qarama-qarshi tomoniga og‘dirib yuborishga intilish – bashariyat oldida gunohga botish (diniy nuqtai nazardan) bo‘lsa, ilmiy-falsafiy jihatdan esa bashariyat istiqboli uchun xiyonat va jinoyatdir. Binobarin, hozirgi globallashuv jarayonida imon va e‘tiqod erki doirasida fikrlash va amaliyot belgilash – hayot-mamot masalasi bo‘lib turibdi.

Odamzotning ma’naviy hayoti dunyoviylik va diniylik asoslarida mustahkam turmasa va «Shu asoslardan birortasi bo‘shashgudek bo‘lsa, — deydi Islom Karimov, — yana o‘zgalarga tobe va qaram bo‘lishimiz hech gap emas. Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya‘ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o‘rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to‘g‘ri tushuntirib borishimiz lozim. Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to‘ldirmas ekan, bugungi kunning og‘ir va murakkab sinovlariga to‘laqonli javob topish oson bo‘lmaydi»¹.

Ma’lumki, XIX asrning 2-yarmidan boshlab G‘arbiy Yevropada odamning paydo bo‘lishi haqida ilmiy izlanishlar boshlandi. Shu jarayonda ingliz olimi Charlz Darvinning evolyutsion ta’limoti yuzaga kelib, u jiddiy munozaralarga sabab bo‘ldi. Shuni ta’kidlash o‘rinligi, bu ta’limot asosida odamning shu Yer deb atalgan va Quyosh sistemasi tarkibiga kirgan Planetada tirk mavjudotlar ichidagi bir tur sifatida paydo bo‘lishi va tarixiy takomilini bilishni ilmiy asosga burib yubordi. Ch.Darvin

*Xudoi-taolo – umumiy tushuncha, har bir diniy e‘tiqod egalarining o‘z nomi bilan ataladigan xudosi bor. Masalan, islomda u Allah deb atalsa, xristianlikda Uch yuzli yakka xudo deyiladi. Buddaviylikdagi Oliy Rux xudo ma’nosini anglatadi.

¹ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T., «Ma’naviyat» nashr, 2008 y. – 95–96-b.

odamzot qandaydir mo'jiza mahsuli emas, balki Yerdag'i tirik mavjudotlar evolyutsion taraqqiyotining natijasi ekanligiga e'tibor qaratdi.

Darvinnin evolyutsion nazariyasiga asoslangan va Yer ostidan topilgan odam suyaklarini tahlil etish asosida shu haqiqat ayon bo'ldiki, odamzot miyasi xromosomalari har qanday hayvon vazniga nisbatan yirikligi bilan sifat jihatidan farq qiladi. Masalan, odam miyasi xromosomalari 46:ta bo'lib, ular 45 yoki 47 ta bo'lib qolsa, aqli zaif bolalar tug'iladi, unda hayvonlarga xos harakatlar yaqqol sezilib turadi.

Endilikda fanga shu narsa ayon bo'ldiki, dastlabki odamlar gala-gala tarzda yashaganlar, ammo odamzot galalari, hayvon galalarida ijtimoiylik unsur (element)lari borligi bilan farq qilganlar. Masalan, yirtqich hayvonlar xujumini ular birgalashib kurashib qaytaribgina qolmay, balki ularni o'ldirib yeganlar. Bola ko'rgan ayollarni birgalashib hayvonlar xujumidan muhofaza qilganlar va oziq-ovqat bilan ta'minlaganlar.

Ana shunday munosabatlardan tufayli, ong faol ishlashga to'g'ri kelgan. Natijada miya yarim sharlari kengayib borgan sari odamzotning yashash uchun kurash vositalari ham takomillashib borgan.

Dastlabki odamlar fanda Avstralopitek (Janubiy odamsimon) deb ataladi. Chunki arxeologik yodgorlik sifatida uning suyaklari dastavval Janubiy Afrikadan topilgani sababli, u tiplarni ana shu nom bilan atash rasm bo'lgan. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ularning bosh miya kosalarining hajmi dastlab 350 kub sm bo'lgan. Million yillar davomidagi ongli harakat natijasida miya kosalar 700-750 kub sm ga etgach, yangi fiziologik tipdagi odamlar – pitekantroplar paydo bo'lgan. Bu tip odamlar toshlarga shakl berib, qo'pol tarzda bo'lsa-da, ov qurollari yasashga aqlari yetgan. Xitoydan topilgan va miya hajmi kattaroq, fiziologik jihatdan mukammalroq bo'lgan tiplarni sinantrop – Xitoy odam deyish rasm bo'lgan. Sinantroplarning bosh miya hajmi 915-1225 kub sm. bo'lib, ular olovdan foydalanan qobiliyatiga ega bo'lganlar.

Germaniyaning Neandertal g'oridan topilgan odam skeleti miya hajmi 1610 kub santimetrgacha bo'lgan.

Hozirgi zamonda Yer sharining hamma qismida yashayotgan odamlar miya kosasi o‘rtacha 1446 kub sm. bo‘lib, ba’zilarda u 2000 kub. santimetrgacha boradi. Bu tiplarning avvalgi namoyondalari skeletlari dastlab Frantsiyaning Kromonyon g‘oridan topilgani uchun ular Kromonyonlar deb ataladi.

Kromonyon odam miya hajmi 1400 dan 2000 kub santimetrgacha boradi. Biroq miya hajmi 1000 kub. santimetr bo‘lgan olimlar ham borki, demak, miya hajmidan tashqari uning zichligining ham ahamiyati bor ekan. Binobarin, ish unsur (element)lari uchun miya tuzilishi, uning intensiv ishlashiga ham bog‘liq holda ong rivojlangan bo‘lishi mumkin.

Odamzot miyasi nihoyatda murakkab tuzilishga ega bo‘lib, shunga muvofiq undagi assotsiatsiyalar hayvonlarnikidan sifat jihatdan tubdan farq qiladi. Ular miya faoliyatining asosiy, markaziy mexanizmi (murvat)lari hisoblanadi.

Ongli mehnatning dastlabki ijtimoiy turi qurol yasash bo‘lib, bu 2-1,7 million yil muqaddam juda sodda tarzda pitekantroplarda uchraydi, so‘ngra sinantrop va neandertallarda uning nisbatan takomillashib borgani kuzatiladi. Fanda Homa Xabilis – uquvli odamlar nomi bilan ataladigan bu ajdodlarimiz asosan ovchilik va tabiatda tayyor oziq-ovqatlarni yig‘ish bilan shug‘ullanganlar hamda katta hayvonlarni ovlash, ularning hujumini birgalikda qaytarish jarayonida ijtimoiy munosabatlarning sodda shakllari bo‘lgan. Ularda tovush, harakat, qiyofani o‘zgartirish (mimika) tillari bo‘lgan, neandertallar nutq tili elementlaridan ham foydalanishgan. Ammo ularda rivojlangan nutq tili bo‘limgani er ostidan topilgan miya suyaklaridan ma’lum. Rivojlangan nutq tili markazlari Homa Sapiens – Aqlli odamlar, ya’ni bundan 50-40 ming yillar chamasi oldin tarix maydoniga kelgan ajdodlarimizda shakllanganki, antropotsiogenetik, ya’ni tom ma’noda ijtimoiylashish shu ajdodlarimizdan boshlangan. Demak, Marksning odamzot avval boshdanoq ijtimoiy mavjudot edi, degan gipotezasini hozirgi zamon tabiiyotshunoslik fanlari inkor etadi. Ayni chog‘da dinlardagi odamzot hozirgi fiziologik holda birdaniga yaratilgani haqidagi tasavvurlar ham ilmiy-falsafiy haqiqatlarga muvofiq kelmaydi.

3-m. «Ommaviy madaniyat» tufayli tartibsiz jinsiy aloqalar vujudga kelyaptiki, bu—juda xavflidir. Odamzotdagи tabiiylik va ijtimoiylik o‘rtasidagi aloqadorliklarda

ijtimoiy mayllarining yetakchi bo'lishi odamning insonga, ya'ni jamiyatlashgan individga aylanib borishini ta'minlaydi. Genetik jihatdan chegaralangan tabiiy omillarga ijtimoiylik katta ta'sir ko'rsatib, hatto odam hayotining davomiyligi ham uzayib boryapti. Tadqiqotchilarning fikricha, odam o'rtacha 90 yil (ba'zi manba'larda 120) umr ko'rishi mumkin. Ijtimoiylik mayllarining ustuvor bo'lib borishi natijasida qadimda odamlar o'rtacha 22 yosh, XVIII asrlarda 30 yosh, XX asr boshlarida 56 yosh umr ko'rgan bo'lsalar, hozir o'rtacha 70-75 yosh yashayaptilar^{*}. Shunday qilib, odamzot o'rtacha 170 yil yashashi mumkinligi to'g'risidagi Ibn Sino gipotezasi real tusga kirib' bormoqda. Masalan, Nano texnologiyalarni qo'llash orqali hujayralar yemirilishining oldini olib qolish fanga ma'lum bo'immoqdaki, bu holatda istiqbolda odamzot umrini uzaytirish imkoniyatlari voqelikka aylanishi mumkin, deyishga asos bor.

«Odam» va «inson» tushunchalarida umumiylilik bilan birga jiddiy tafovutlar ham borligini anglash ta'lim-tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega. Odamdag'i biologik omil ahamiyatini aslo kamsitmagan holda, uning tabiatи va ruhiy olamida ijtimoiylikning muqimlashib borishi natijasida odamzotining insonga aylanib borishi mumkinligini tarixiy haqiqatlar tasdiqlaydi. Odamda biologik omil yetakchi bo'lsa, insonda ijtimoiylik (ma'naviy omillar) birinchi o'ringa chiqib oladi. Yashash uchun kurash jarayonida inson o'zi mansub bo'lgan jamiyat va ma'naviyat qadriyatlariga asoslanib, xatti-harakat va faoliyat yo'nalishi belgilaydi, ijtimoiy hayotda tarkib topgan va xayrli an'anaga aylangan odob-axloq maromlari, qoidalar, tartib-intizomlarga qat'iy rivoja qiladi, maboda tashqi ta'sirlar ostida ularni nogohon buzsa, vijdon azobida qolib, o'zini-o'zi sira kechirmaydi. Shu ma'noda hozirgi fiziologik tuzilishga ega bo'lgan barcha ongli mavjudot odam turiga kiradi, ammo ular orasida insonga aylanmagan, ya'ni hayvonlarga xos olg'irlik, bosqinchilik, yovvoyilik qusurlaridan holi bo'lmaganlari ham yo'q emas. Masalan, o'g'ri, ta'magir, yulg'ich, poraxo'r, qotil, foxisha v.b. nafs qurbaniga aylanganlar albatta odam, ammo ularni inson qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

* Qadimgi va XVIII asr odamlari ichida 100 va undan ortiq yoshga kirganlar ham bo'lgan. Biroq yosh va o'rta yoshlar o'tasida o'lim ko'p bo'lgani sababli, o'rtacha yosh yuqoridaq kabi bo'lgan.

Odamning insonga aylanib borishida imon tushunchasining falsafiy idroki muhim ahamiyat kasb etadi. Insonda imon diniy dunyoqarash asosida ham, falsafiy dunyoqarash asosida ham shakllanishi mumkin. Imon qaysi yo'nalishda inson psixikasi – ahvoli ruhiyatida muqim bo'lishidan qat'iy nazar, xudo yoki oliy ijtimoiy maqsad (oliy g'oya)ga qalban ishonch va bu ishonchga har qanday sharoitda sodiq qolish uchun ichki ont ichishdan iborat ongning nodir hodisaside. Imonlilikning yana bir sharti so'z (til) bilan amal (ish) birligidir. Mana shu shartlar asosida imonli insonlarda vijdonlilik, halol-poklik, rostgo'ylik, insof-diyonat, sahovatpeshalik, muruvvatlilik, xalq, vatan ishqisi bilan yashash kabri fazilatlar shakllanadi, zero, imonli inson uchun ular muqaddas qadriyatlari bo'lib, hayot ma'nosini belgilaydi. Imonli inson yaqinlari, do'stлari, vatani, xalqiga har qanday sharoitda ham sodiq qoladi, o'lishga rozi bo'ladi-yu, ammo u imoniga xiyonat qilmaydi.

Odam tabiatidagi tabiiylik va ijtimoiylikning o'zaro nisbati haqida gap borganda, ulardan birini ideallashtirish yomon salbiy oqibatlarga olib kelishini e'tiborga olish kerak. Sotsial darvinistlar odam naslini o'zgartirish orqali odamni insonga aylanish jarayonini tezlashtirish mumkin desalar, marksistlar ijtimoiylikni birinchi o'ringa qo'yib, undagi biologik omillar rolini pasaytirishga urinadilar. Har ikki qarash ham ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti uchun zavol bo'lishini tarixiy jarayonlar tasdiqlaydi. Demak, odamzot biologik va ijtimoiy mohiyatlar birligida mavjud bo'ladi, ammo ijtimoiy mayllarning ustuvor bo'lib borishi uning tabiatidagi biologik imkoniyatlarning vogelikka aylanishini ta'minlaydi.

4-m. Tabiat va odamzot borlig'i o'rtasidagi ziddiyatlar Sinergetika qonunlariga binoan o'simliklar olami va hayvonot dunyosi Yer deb ataladigan tabiat borlig'i bag'rida o'zidan-o'zi vujudga kelgan va harakat tufayli o'zidan-o'zi ularning turli-tuman turlari paydo bo'lgan, rivojlangan, takomillashgan.

Yerda taxminan 2 milliondan ziyod.tirik organizm bo'lib, ular shu planetadagi o'ziga xos tabiiy sharoitga muvofiq tarzda organizmlar o'zidan-o'zi vujudga kelgan. Ularni biri-biridan, ya'ni mushukdan yo'lbars, sichqondan kalamush, eshakdan ot kelib chiqqan deyish ilmiy haqiqatlarga xilofdir.

Tabiat o‘zi yangi turlarni vujudga keltiradi. Ular ichida tabiiy muhitga moslashganlari yashab qoladi, o‘zgargan tabiiy sharoitga muvofiqlasha olmagani yo‘q bo‘lib ketaveradi. Chunonchi, avstralopitek, pitekantrop, sinantron, neandertal tipidagi odam zotlari hozir yo‘q, ular tabiatdagi o‘zgarishlarga muvofiqlasha olmagani sababli yo‘q bo‘lib ketganlar. Hatto diniy kitoblarda ham Yer yuzida to‘fon bo‘lishini Xudoi taolo Nux payg‘ambarga ayon qilib, har bir turni saqlab qolishni buyuradi. U xudoi-taolo amrini baho keltirib hozirgi turlarni, jumladan odamzotni ham tabiiy ofatdan saqlab qoladi. Shunday qilib diniy nuqtai nazardan ham ta’sir va aks ta’sirlar bo‘limganda, organizmlar, shu jumladan o‘simliklar turlari ham barmoq bilan sanoqli bo‘lur edi.

Turlar va ular ichidagi organizmlar biridan - biri kelib chiqqan deb qaralsa, evolyutsion nazariyani soddalashtirish va siyqalashtirish bo‘ladi, albatta. Falsafa fani nuqtai nazaridan o‘xshashlik aynanlik emas, zero, ayniyat ichida tafovut bo‘lishini e’tiborga olish zarur. Agar o‘xshashlikni aynan bir xillik deb qaralsa, kulgili bir manzara hosil bo‘ladi: chunonchi, echkidan mol, mushukdan yo‘lbars, arpadan bug‘doy va h.k. hosil bo‘lgan, degan tasavvurlar vujudga keladi.

Sut emizuvchi hayvonlar orasida maymun organizmining tuzilishi, xatti-harakatlarida odamzotga o‘xshash jihatlar bor; albatta: Shunga binoan bevosita yoki bilvosita maymunning bir zoti old oyog‘ini tik holda tutib, quroq ishlatib mehnat qilishi tufayli, u asta-sekin odamga aylangan deb qarash ilmiy-g‘oyaviy nuqtai nazardan xatodir. Chunki beistisno barcha hayvonlar «mehnat qilib» oziq-ovqat topishadi, ba’zilari boshipana qurishadi, ayrimlari ovqat topish va himoyalanish uchun tosh va tayoqlardan foydalanishadi. Sodda tarzda bo‘lsa-da, ayrim hayvonlar ovoz chiqarib, muayyan bir axborotni uzatishadi. Masalan, otda 100 ga yaqin tovush, to‘tiquishda 600 tagacha «so‘z» ifodasi borligi aniqlangan. Biroq, hayvonlardagi mehnat, ish qurollaridan foydalanish, «tillari» ham borligi, ba’zilari ikki oyoqlab bermalol yura olishi ularning fiziologiyasida jiddiy o‘zgarishlar hosil eta olmagan. Zero, ularning xatti-harakatlarida odamzotiga xos onglilik yo‘q, balki hayvonlar tanalaridagi genetik dasturga muvofiq faoliyat (harakat) belgilaydilar.

Odamzotning Yer deb ataladigan borliq – Tabiatdagi yana bir borliq shakli sifatida paydo bo‘lishi, ongli mehnat faoliyati tufayli organizmlarining takomillashib borishi jarayonida uning fiziologiyasida sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi.

Falsafa odamzot faoliyati o‘zini qurshab turgan tashqi borliq – Tabiatni o‘ziga monand tarzda ongli ravishda o‘zgartirish jarayonida borliqning alohida shakli sifatida gavdalanganini isbotlaydi.

Masalan, odamzot borliqning alohida shakli sifatida Yer deb atalgan Tabiat borlig‘ida «Ikkinchi tabiat»ni yaratdi. Toki XX asr boshigacha uning tabiatni o‘ziga mos tarzda o‘zgartirishga qaratilgan faoliyati yerda jiddiy xavf-xatar tug‘dirmagan edi. Atom parchalanishi aniq bo‘lgach va undan foydalanishga o‘tilgach, Ilmiy-teknika inqilobi ITI sodir bo‘lib, uning natijalari tufayli odamzot mehnat faoliyatida sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi va Yer planetasida hayotning qolish-qolmasligi muammosi yuzaga keldi.

Fan-teknika, axborot va nanotexnologiyalarning tobora takomillashib borayotgani misli ko‘rilmagan turmush qulayliklarini yaratdi va istiqbolda bundan-da qulayroq muxitda yashash imkoniyatlari vujudga keldi. Ikkinchi tomonдан, odamzotda yangi sharoitga muvofiq tafakkur va turmush tarzi shakllana olmayotgani, xususan jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit tobora o‘z tarixiy ildizidan mahrum bo‘lib borayotgani tabiat va odamzot borlig‘i o‘rtasida qaltis ziddiyatlar paydo bo‘lib, u o‘zining qarama-qarshi tomoniga og‘ib ketish xavfini paydo qilmoqda. Jahondagi taniqli olimlar XX asr bosqlaridayoq tabiat o‘z taraqqiyotining Noosfera – Aql sohasi bosqichiga o‘tganligini isbotladilar. Binobarin, Tabiat go‘yoki o‘zi yaratgan odamzotning bundan buyongi muruvvatiga muhtoj bo‘lib qoldi. Bu bosqich Yer yuzidagi barcha xalqlar Aql va uning natijasi bo‘lgan fan-teknika, axborot va texnologiyalardan umumplanetar maqsadlar uchun foydalanish zaruratinini anglab olishlari lozim bo‘lib turibdi. Binobarin, jahon hamjamiyati aqlini barcha sohada oqilona, bunyodkorlik ishlariga burib yuborish strategiyasining ishlab chiqib, uni amalga oshirish uchun barcha moddiy va ma’naviy imkoniyatlardan foydalanishni zamonomaz ta‘lab etib turibdi. Bu haqiqatni avvalo Yer Planetasidagi har bir inson anglab etishi uchun u milliy mafkuralarning doimiy predmetiga aylanishi zarur.

Ya'ni, tabiat strategiyasidan aql strategiyasi tomon insoniyat birlashib, yagona yaratuvchi qudrat sifatida dadil qadamlar tashlashini zamon taqoza etmoqda.

Xulosa: a) Yer deb ataladigan tabiatdagina hozircha tirik tabiat uchun zarur shart-sharoitlar borligi ma'lum; b) Yerdagi o'simliklar va hayvonot dunyosi kabi ma'lum tarixiy davrda odamzot borlig'i vujudga keldi; v) Odamzot hayvonlarga xos barcha xususiyatlarga ega, faqat u o'zi yaratgan ijtimoiy muhitda inson – jamiyatlashgan individga aylanishi mumkin; g), XX asrdan boshlab tabiat borlig'i bilan odamzot borlig'i o'rtaсидagi ziddiyatlar – antagonizm (qarama-qarshi) tomon og'a boshlayotgan kuzatilmoqda.

3-mavzu. Ma'naviy borliq: uning tarixiy-tadrijiy rivoji

Reja:

Kirish so'zi.

1. Ma'naviy borliqning tarixiy ildizlari.

2. Ma'naviyat odamning inson – jamiyatlashgan individga aylanishining zarur sharti.

3. O'zbekiston tarixida ma'naviyatga munosabat va ruhning ma'naviy borliqda namoyon bo'lishi.

4. Ma'naviy borliq va uning inson ruhiy olami bilan bog'liqligi.

Xulosa.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab, Prezident Islom Karimov asarlari, turli uchrashuvlardagi nutqlarida respublikada ma'naviyatni qaror toptirish masalasiga birinchi darajali ahamiyat berib kelinmoqda. «Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi, — deydi I.Karimov. — Nuqul pul va foya ketidan quvsak-da, ammo odamlarimiz ruxan qashshoq bo'lib qolishsa — bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q»¹.

Prezident «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida O'zbekistonda yuksak ma'naviyatga asoslangan jamiyat shakllanishi uchun jiddiy kurash olib borish masalasini o'rtaqa tashlab, uning ildizlari o'zbek milliy mentalitetida qanday

¹ Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., «O'zbekiston» nashr., 1994 y – 14-b.

namoyon bo‘lishini tarixiy aspektda ko‘rsatib berdi. Natijada respublikamizda ma’naviyat asoslari ta’lim tizimiga kiritilib, bunga doir o‘quv qo‘llanmalari nashr etilmoqda hamda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday yondashuv O‘zbekiston olimlari va tadqiqotchilari uchun ham yangi bir yo‘nalishda ish olib borishni, bu muammo yechimini topishning falsafiy jihatlariga jiddiy e’tibor berishni taqoza etmoqda.

1-m. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, ma’naviy borliq odamzot ongi bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, uning dastlabki unsur (element)lari Avstralopitek tipidagi odamlarda paydo bo‘lgan va uquvli odam tiplarida shakllana boshlagan. Tom ma’nodagi ma’naviyat esa Homa Sapiens – Aqli odamlar, ya’ni Kromonyon tipidagi hozirgi zamon odamlari ajdodlaridan boshlangan. Bu masala yuzasidan tadqiqot olib borgan mualliflarning fikrlariga qaraganda, ma’naviy borliqning Yer yuzida paydo bo‘la boshlagani va tarixiy-tadrijiy takomilini 5 bosqichga bo‘lish mumkin.

1-bosqich. Odamning paydo bo‘lishidan boshlab, uning ijtimoiy borliq shakllangunga qadar bo‘lgan ma’naviyati. Ma’lumki, ma’naviyat unsurlari rivojlangan hayvonlar, masalan, ot va itlarda ham uchraydi, ammo ular genofondida bunga asos yo‘q, faqat kuzatish va tajriba asosida yillar davomida unga qaragan odamlarga nisbatan bog‘liqlik rishtalari tufayli namoyon bo‘ladi. Sirk artistlari hatto yirtqich hayvonlarni ham shu tufayli o‘ziga itoatkor qilishga erishadilar.

Ma’lumki, dastlabki odamlar – Avstralopiteklar jismoniy jihatdan juda ojiz mavjudot bo‘lganlar. Ularning bo‘ylari 155 santimetrgacha borgan. Jismoniy jihatdan ham nochor bo‘lganlar: tez yugura olmaslik, maymunlar kabi daraxtdan-daraxtga irg‘ib o‘ta olmaslik, kuch jihatidan ojizlik ularning qirilib ketishi uchun yetarli edi. Biroq, ong tufayli ma’naviyat unsurlari borligi natijasida ijtimoiy birlik rishtalari Avstralopiteklar muqarrar halokatdan saqlanib qolishiga imkon yaratgan. Chunki homiladorlik muddatining nisbatan uzunligi, tug‘ilish bilan bolasining yurib keta olmasligi, ona esa moddiy va ma’naviy yordamga muhtojligi vaxshiy hayvonlarga ular yem bo‘lishlari uchun yetarli edi. Ammo Avstralopiteklardan tortib Neandertal tipidagi odamlar tashqi hujumga birgalashib qarshilik ko‘rsata olganlar, xatto hujum qilgan yirtqich hayvonni o‘rab olib, tosh va tayoqlarda urib o‘ldirib, go‘shtini yeyish

imkoniyatiga ega bo‘iganlar. Demak, ma’naviyat tufayli ular, dag‘al bo‘lsa-da, toshdan ov qurollari yasash, keyinroq maishiy hayot anjomlarining ilk namunalarini yaratish, olovdan foydalanish tufayli iqlimi sovuqroq mintaqalarda ham ov qilish va yashash imkoniyatiga ega bo‘iganlar.

Birgalashib harakat qilish natijasida ularning miya yarim sharlari kengayib va takomillashib, shunga muvofiq tarzda fiziologik jihatdan ham tarixan barkamolroq bo‘lib borganlar.

2-bosqich. Kromonyon tipidagi odamlar tarix maydoniga kelib, miyada nutq tili markazi shakllangach, ona-tabiatga mehr, avvalo yer, suv, havo va olovni e’zozlash, yaratuvchilik mehnatini ulug‘lash ruhi barqaror bo‘lib borgan.

3-bosqich. Ilk shahar jamoalari ma’naviyati: metallning kashf etilishi, tosh qurollar o‘rmini mis va bronza qurollar egallay boshlashi borliqqa nisbatan qarashlarda o‘zgarishlarga sabab bo‘igan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, quruvchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullanish, harbiy san’atni egallah kabi faoliyatlar odamzotdan mantiqiy fikrlash qobiliyati takomillashib borishiga sabab bo‘ldi. Xristian va islom dinlarining muqaddas kitoblarida xudoitaolo tomonidan odamning moddiy jismlar – tuproq, loy, qon va h.kdan yaratilishining o‘zidayoq ilmif unsurlar mavjuddir.

Umuman bu bosqichda shakllangan mifologik va diniy dunyoqarashlarda ma’naviy borliq to‘g‘risida falsafiy fikrlar unsurlari mavjud edi.

Tarixan koxinlar, sehrgarlar – sodda faylasuflar bo‘lib, ular olamda sehrli kuchlar borligi, ularga ishonch ruxini singdirishga qaratilgan mafkuraga asos soldilar. Mafkura orqali ular olamning mifologik manzarasini individlar imoni (ishonchi, e’tiqodi)ga aylantirib, ma’naviyatni shu negizda qaror toptirdilar.

4-bosqich. Bu bosqich xalqlarning millat sifatida shakllanishi va milliy davlatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq hodisadir. Bu bosqichda ma’naviyat jahon dinlari va milliy dinlar g‘oyalari hamda ta’sirchan mafkura orqali hamda diniy jamoalarning doimiy kundalik nazorati orqali barqaror bo‘ldi.

5-bosqich. Olam va odamning paydo bo‘lishi, uning tarixiy-tadrijiy takomili to‘g‘risidagi qarashlar dastavval qadimgi Bobil (Vaviloniya) va so‘ngra Gretsiyada

paydo bo'lib, har bir mintaqaga va mamlakatdagi ilm-fan rivojiga qarab, yangicha dunyoqarash vujudga kela boshladi.

Individual va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar tufayli ma'rifatli islom asosida o'ziga xos IX-XII asrlarda Arab-musulmon olamida Uyg'onish davri yuzaga kelib, ilm-fan rivoji yangi bosqichga o'tdi. XIV-XVI asrlarda esa G'arbiy Ovrupoda shakllana boshlagan Uyg'onish davri va ma'naviyatning tobora rivojlanib borishi natijasida ilmiy-texnika taraqqiyoti ro'y berdi. Bu xol butun insoniyat tarixiy takomili va ma'naviy olamida o'ziga xos yangi bosqichning boshlanishi edi. XX asr o'rtalarida ilmiy-texnika inqilobi ro'y berdi. Bu yangi holatlardan natijasida ilmiy-falsafiy dunyoqarash shakllanib, ma'naviyat endilikda ilmiy va diniy negizlarda rivojlanib bormoqda. Demokratik davlatlarda diniy va ilmiy-falsafiy dunyoqarash imon-e'tiqodiga aylangan individrlar yagona maqsad yo'lida yangicha yo'nalishdagi ma'naviyatga asos solmoqdalar.

2-masala. Ma'naviy borliq – bizdan tashqarida bo'lgan tabiat borlig'i kabi mavjud reallik bo'lib, fikr ma'nosida aqliy faoliyat tufayli namoyon bo'ladi. Odamzot fikrlari ma'naviy reallik namunasidir. Ongning barcha shaxsiy, ijtimoiy nodir hodisalarini (fenomeni) vogelik ma'nosiga egadir. Masalan, ko'paytirish tablitsasi – reallikmi yoki yo'qlikmi? – Albatta reallik, ammo u buyum ham, jism ham emas, balki ramziy belgilari shaklida ma'naviy borliqning namoyon bo'lishidir. Yoki kitob, qog'oz shaklidagi realliklarni qanday borliq deyish mumkin? Ular bir tomonidan moddiy borliq, ikkinchi tomonidan ma'naviy borliqning gavdalishidir.

Fanlar qonunlarini olaylik. Ular tadqiqotchi va olim ongingin maxsuli, boshqacha qaraganda, ya'ni bu qonun va qoidalarning umumiy ahamiyati nuqtai nazaridan ob'yektiv hodisalar ifodasidir – real borliqdagi ichki va 'tashqi aloqadorliklar, bog'lanishlar, o'zaro ta'sir va aks ta'sirlarning namoyon bo'lishidir. Aynan fan qonunları, kategoriyaları, tushunchaları, metodları, metodologiyası, tamoyillari tufayli odamzot olamni va o'zini-o'zi anglab, «Ikkinchi tabiat» – ijtimoiy borliqni yaratdi, demak, ular ma'naviy yuksalish samarasi bo'lgan holda, moddiy borliqning yangi shakllarini yaratish imkoniyati vogelikka aylandi.

Sirli ma'noga ega bo'lgan afsona va ertaklarni olaylik. Ular insoniyat fantaziyasini maxsullaridir. Masalan, «Qanotli uchar otlar» yoki «uchar gilamlar» kabi afsonalar insoniyat fantaziyasining maxsuli, ya'ni yuzaki qaraganda ular borliq emas, balki odamzot orzularidir. Biroq, xuddi shunday orzular odamzotni izlanishlarga da'vat etib, mana endilikda samolyotlar, raketalar bunyodga keldi: xo'sh bular bir tomondan moddiy borliq bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'naviy borliqning natijalari emasmi?!

O'zbekistonda insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish, yuksak ma'naviyatga asoslangan jamiyat shakllanishiga yo'l ochish to'g'risidagi kontseptsiya hozircha orzu, ammo unga intilish, xalq ommasi harakatining natijasi o'laroq, istiqbolda ana shunday ijtimoiy borliq yuzaga kelishi mumkin, albatta.

Odamzot yo'qlik ma'nosida o'lim vasvasi bilan mavjud bo'ladi. Shu sababli borliqni tahlil etishni odamzot o'zidan boshlamog'i lozim: men kimman, niymaman, abadiyat bormi, u qanday namoyon bo'lishi mumkin va h.k. savollarga javob topishga intilladi. Aynan mana shu izardrobi savollarga javob izlash natijasi o'laroq dastlab bizga ko'rinnmaydigan, mavjudligi noma'lum, umuman bilish qiyin bo'lgan «Sirli kuchlar» borligi to'g'risidagi qarashlar sintezi sifatida Yer sharidagi barcha mamlakat va qit'alarda bir-biridan ajralgan holda turli ko'rinishdagi mifologik dunyoqarash shakllandi. O'sha «Sirli kuchlar» borligi, ular odamzotning barcha faoliyatini nazorat qilib turishi va baholashi to'g'risidagi tasavvurlar natijasi o'laroq, yo'qlikdan ijtimoiy borliq hosil bo'ldi. Mifologik dunyoqarash o'sha davr sodda faylasuflari, ya'ni donishmandlari – koxinlar, sehrgarlar tomonidan «borligi», «borliqligi» g'oyaviy jihatdan «isbotlab» borildi. Bunday qarashlarga sidqidildan ishongan, zarracha ham shubhalanmagan individlar tufayli jamiyatda ma'naviyat qaror topib bordi, boshqacha aytganda, «yo'qlik»dan ma'naviy borliq vujudga keldi.

O'n sakkiz ming olamni, shu jumladan odamzotni ham yaratib, uning fe'l-atvorini o'z maloikalari, farishtalari orqali nazorat ostiga olib, uni baholab boradigan Xudo-i-taolo^{*} borliqmi yoki yo'qlikmi? Ateistlar uchun u yo'qlik, ammo diniy

*Xudo-i-taolo – umumiy tushuncha, har bir kitobiy dinlardagi xudo xususiy tushunchadir: - Islomda Alloh, xristianlikda uch yuzli yakka-yu yagona Iloh – Ota xudo, Bola xudo va muqaddas ruh, Buddavyiylikdagi Olyi ruh ham xudo darajesidagi borliq, milliy dinlardagi xudolar tufayli ham o'ziga xos borliq shakllangan. Masalan, yakudiyilar o'z

ulamolar, ilohiyotchilar va dindorlar uchun u yakkayu yagona oliv borliq bo'lib, odamzot muqaddas kitoblarda o'z mujassamini topqan g'oyalar, nuqtai nazarlar, yo'l yo'riqlar, pand-nasihatlar asosida hayot ma'nosini anglashi tufayli, o'z borlig'ini yaratadi va abadiyatga doxil bo'ladi – o'lgandan keyin tirilishiga qattiq va so'zsiz ishonch, ixlos (e'tiqod), ya'ni imon tufayli o'z berlig'ini yaratadi: halol-pok yashash, o'zi mansub bo'lgan jamiyatda tarixan shakllangan odob-axloq marom (norma)lariga qattiq rioya qiladi, xaromdan hazar, birovlarning haqiga xiyonat qilmay va o'z davlati qonunlari doirasida yashashga intilib, ma'naviy boy, axloqiy pok individga aylanadi, ya'ni jamiyatda ma'naviyatni barqaror qiluvchi kuch sifatida o'zini namoyon qiladi. Demak, Xudoi = taolo shunday insonlar faoliyati tufayli oliv borliq sifatida namoyon bo'ladi.

Avval mifologik dunyoqarash asosida, so'ngra diniy-ilohiy dunyoqarash tufayli har bir mintaqqa xalqlarida o'ziga xos ma'naviyat qaror topib, odam jamiyatlashgan individ—insonga aylanib borish yo'liga kirgan ekan, bu albatta ma'naviy boy, axloqiy pok individlar fe'l-atvorida borliqning yuksak shaklda namoyon bo'lishidir. Ayni chog'da ma'naviy tuban, axloqiy nopol odamlar – o'g'rilar, tovlamachilar, poraxo'rlar, bosqinchilar ham har bir jamiyatda bor bo'lib, ularning jirkanch faoliyatları tufayli ijtimoiy borliq g'ayriinsoniy tusda namoyon bo'lishi mumkin ekan – bu holatlarni ham nazarda tutish, inson degan ulug' nomga isnod keltirayotgan jamiyat tanasidagi bu «viruslar»ga qarshi jiddiy kurash jarayonida yuksak ma'naviyatga asoslangan ijtimoiy borliq shakllanishi uchun kurashish individlarga qudrat baxsh etishi mumkin. Ularning bu faoliyatları natijasi o'laroq, chin ma'nodagi yangicha borliq hosil bo'lishiga ishonch ruhini qaror toptirish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

3-m. Ilgarilari G'arbiy Xitoydan tortib, Tuva, Yоqutiston, Oltoy, Volga daryosining har ikki sohili, Kaspiy dengizingin G'arbiy tomoni, Vizantiya (hozirgi Turkiya) ning Sharqiyl tomoni, Shimoliy Eron va G'arbiy-Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan territoriya (mintaqa)də istiqomat qilib kelgan asosiy qabilalar, elatlar

mamlakatlarida bo'ladimi, yoki boshqa mamlakatlarda yashaydimi, baribir, ularning voqelikka munosabatlari o'zlar e'tiqod qilgan din talablariga asosan muvofiq keladi.

maskanini tarixan Turkyurt, Turon deb nomlab kelingan. O'zbek atamasini Volga bo'yalarida hukmronlik qilgan Shayboniylar va Ashtarxoniylar muloqotga kiritishgan. Ular Rossianing birlashgan qo'shinlari hujumiga bardosh berolmay, XVI-XVII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo deb atalayotgan hudud (territoriya)ni bosib olishgach, o'zbek xalqi atamasi kirib keldi.

Shayboniylarning Turonda markazlashgan o'zbek davlati barpo etish yo'lidagi urushlari besamar ketib, uning o'rnila Buxoro amirligi hamda Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. XIX asr 2-yarmidan boshlab Rossiya Qo'qon xonligi territoriyasi – Farg'ona vodiysi va Xo'jand, Toshkent; Jizzax, Sirdaryo viloyatlari, hozirgi Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismini bosib olib, unda Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan harbiy rejim (tartib) o'rnatdi. 1924 yilda SSSR tashkil topgach, hozirgi maskanni O'zbekiston deb ataldi va bu erda shu vaqtidan boshlab o'zbek xalqi millat sifatida shakllana boshladi.

Bu fikrlarni ta'kidlashdan maqsad shuki, hozirgi yosh avlod o'z ajdodlari yashagan keng territoriyada shakllangan ma'naviyatning qonuniy vorislari ekanliklarini bilishlari zarur. Birinchi jahon dinining muqaddas kitobi¹ «Avesto» aynan ana shu katta territoriyada yashagan qabila va elatlarni birlashtirish ehtiyojlari-tufayli vujudga kelganligini ta'kidlash joiz. Enasoy (Eniso'y) daryosi qirg'oqlaridagi toshlarga yozilgan bitiklarda Turon qavmlarini birlashishga chaqiriqlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Chunki ushbu xalqlar birlashgan davrlarda hozirgi ma'naviyatning ta'mal toshi qo'yilgandir. Boshqacha aytganda, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqlapqoq va tojik xalqlarining tarixi ham, tarixiy taqdiri ham mushtarak bo'lganligi tufayli, ularning ma'naviyati, madaniyatida tafovutdan ko'ra aynanlik ustuvordir. Demak, o'zbek xalqi va millati ma'naviyati haqidagi fikrlarimiz tarixan shu qardosh xalqlar ma'naviyatida ham u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi, albatta.

Arab-musulmon olamida IX-XII asrlarda ro'y bergan Uyg'onish davri jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Eradan oldin Gretsiyada shakllangan, falsafa nomi bilan atalgan va xristian dini ilohiyotchilari hamda siyosatchilari tomonidan o'sha davr faylasuflari asarlарini o'qish taqiqlab qo'yilgani uchun ular xalq xotirasidan o'chirilgan edi. G'arbiy Xitoydan Ispaniyagacha

hududdagi turli ma'naviyatga mansub xalqlarni faqat islom aqidalarini bilan boshqarishning iloji yo'q edi. Shu sababli taraqqiyatparvar ulamolar va islom ilohiyotchilari ta'sirida Arab xalifaligiga bosh bo'lgan siyosatchilar qadimgi Yunoniston olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilish, ularga sharxlar yozishga ijozat berdilar. Bog'dod va Buxoro kabi shaharlarda Fanlar akademiyalari faoliyat boshladi. Madrasalarda dunyoviy ilmlardan ham dars berish yo'lga quyildi.

Agar Rossiya va G'arb mamlakatlarda nashr etilgan falsafaga doir asarlar va darsliklarga nazar solsak, ularda Arab-musulmon olamida sodir bo'lgan Uyg'onish davri avvalo G'arbiy Ovrupo, qolaversa butun dunyo mamlakatlari ma'naviy-ma'rifiy olamiga ko'rsatgan ta'sirini iqror etmaydilar yoki ma'lumot uchun shunchaki bir esga olib o'tadilar, Markaziy Osiyo xalqlari allomalarining ilm-fan, falsafaga qo'shgan hissalarini esa ko'pincha tan olmaydilar. Ularni ham arab olimlari sirasiga qo'shadilar. Buning sababi shuki, Arab-musulmon olamida ro'y bergan Uygonish davrida Markaziy Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarini asosan arab tilida yozganlar. Faqat mustaqillik sharofati bilan bu ko'xna xalqlar butun dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini chor-nochor tan olishga majbur bo'lmoqdalar. AQSH olimlari Markaziy Osiyoniy yangidan kashf etayotganliklarini mammuniyat bilan ta'kidlamoqdalar. Shu tufayli AQSH davlatining sobiq siyosiy arbobi – Davlat sekretari Killari Clinton xonim O'zbekistonga kelganda, «Men matematika fanining otasi al-Xorazmiy yurtiga kelganimdan mammunman» dediki, bu e'tirofda katta ma'no bor. Zero, shunday katta davlat arbobining e'tirofi e'tiborni ham nazarda tutadi. Demak, Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida tilga olib o'tilgan buyuk allomalarimizning ilm-fan yo'lidagi fidoyiliklari ruhi yosh avlodda bargaror bo'lgandagina O'zbekistonda tom ma'nodagi yuksak ma'naviyat vujudga kelib, bu o'z navbatida yangi sivilizatsiyaga asos bo'lib qolish ehtimoli ham bor, albatta.

4-m. Ma'naviy borliq individual va ijtimoiy ongda namoyon bo'ladigan, odatda rux bilan bog'liq hodisa ekanini nazarda tutish kerak. Boshqacha aytganda, ma'naviy boylik kabi ma'naviy tubanlik ham bu borliqning o'ziga xos ko'rinishlaridan iboratdir. Buni dastavval payqagan vatandoshimiz Zardusht Sepitomadir. U Oliy

ibtido – Axuramazda timsolida ezgulik ruhini, Axriman timsolida esa yovuzlik ruhi borligiga e'tiborni qaratgan edi. Zardushtiylik dini ezgulik bilan yovuzlik ruhlari o'rtasidagi uzoq davom etadigan beomon kurashda jamiyatda ezgulik, ya'ni ma'naviy boy, axloqiy pok odamlardan iborat jamoa g'alaba qozonishiga ishonch va e'tiqod ruhini singdirishga intilgan. Ma'naviy boy, axloqiy pok individlar bu dinda «A'l Odam» sifatida talqin etiladi. Binobarin, Zardusht bu dinning payg'ambari sifatida odamlarni ezgulik tomonida turib Axriman – yovuzlik ruxiga qarshi kurash jarayonida jamiyatda chinakam ma'naviyatni qaror toptirishga undaydi. U avvalo odamlarni o'simliklar dunyosi, hayvonot olami va odamzot yashashining zarur sharti bo'lgan yer (tuproq), suv, havo va olovni e'zozlash orqali ma'naviy boy, axloqiy pok odamlar jamiyati shakllanishiga umid bog'lagan edi. Hatto o'sha davrlarda tuproq zaharlanib qolmasligi uchun o'liklar tanasini maxsus tepaliklarda ma'lum muddat saqlab, ularning ustuxonlarini ostodon (maxsus qutilar)da ko'mish rasm bo'lgan edi. Bu odat unsur (element)lari xristianlik va buddaviylikda o'ziga xos shakllarda saqlanganini ta'kidlash lozim.

Ruh ma'naviy borliqda uch ko'rinishda namoyon bo'ladi: a) individ (shaxsiy) ruh; b) umumiy (ob'yekтив) ruh; v) ob'yektlashgan ruh.

1) Shaxsiy ruh alohida holat sifatida individlarda muayyan - vaziyatlarda ko'tarink'i yoki tushkunlik ruhi; dadillik va jasoratlilik yoki jur'atlilik va jur'atsizlik, botirlik yoki qo'rqaqlik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Undan tashqari ruh individlar qalbi, ko'ngli, didi ma'nolarida ham qo'llaniladi. Birovni yoki biron-bir odamni, kasbni yaxshi ko'rish yoki yomon ko'rish, ko'ngilchang yoki bag'ritosh odam, imonli yoki imonsiz odam kabi iboralarda ifodalanadi, ijtimoiy-borliqda shunga muvofiq munosabat belgilanadi.

2) Umumiy (ob'yekтив) ruh jamiyat – ijtimoiy borliq bilan bog'liq hodisadir.

3) Ob'yektlashgan ruh tarixiy shaxslar, ilm-fanga katta hissa qo'shgan olimlar va diniy falsafa (ilohiyot) shakllanishida muxim rol o'ynagan ulamolar hamda tarixiy shaxslar g'oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi, ya'ni ular ruhining ob'yektlashishi ma'nosini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tarixiy shaxslar ikki toifaga bo'linadilar:

a) shaxslarning dunyoqarashlari, g‘oyalari ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qilgan bo‘lsa, ular minnatdor insoniyat qalbida ibrat maktabi sifatida abadiy yashaydilar;

b) agar tarixiy shaxslarning dunyoqarashi, siyosiy qarashlari ijtimoiy taraqqiyotni ma’lum muddatda turg‘unlikka yoki orqaga ketishga sabab bo‘lsa, undaylar butun insoniyat nafratiga duchor bo‘ladilar, mazkur shaxslar insoniyat tavqila’natiga uchrab, ana shunday shaxslar yana paydo bo‘lmaslik choralarini qidiriladi.

Hukmron dunyoqarashlar – mifologiya, din va ilmiy falsafa ham ob’yektlashgan ruh doirasiga kiradi.

Ishlab chiqarish (ijtimoiy mehnat) va ijod maxsuli bo‘lgan fan, texnika, axborot va nano texnologiyalar; muayyan jamiyatdagi amaldagi davlat qonunlari, ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qiladigan qadriyatlar, axloq, san’at, maorif, madaniyat kabilalar ob’yektlashgan ruhning amalda namoyon bo‘lishidir. Shaxs sifatida ularda ishtirok etganlar faoliyatida ma’naviy borliq bir vaqtning o‘zida jonli ruh sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa: a) ma’naviy borliq odamzot ongi bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, uning tarixiy ildizlari juda qadimiydir; b) ma’naviyat – odamning inson (jamiyatlashgan individ)ga aylanishining zarur sharti; v) O‘zbekiston tarixida ma’naviyatga munosabat masalaşı turlicha bo‘lgan; g) ma’naviy borliq tarixan xilma-xil ko‘rinishlarda individlar va shaxslar ruhida namoyon bo‘lib, u ijtimoiy borliqqa yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4-mavzu. Ijtimoiy va virtual borliq shakllari

Reja:

Kirish so‘zi.

1. Jamiyat—ijtimoiy borliqning o‘ziga xos bir shakli sifatida.
2. Shaxslarning tabiat ya’jamiyat qonunlarini anglab olib faoliyat yo‘nalishlari belgilashlari muammozi.

3. Ijtimoiy hodisalar, tarixiy jarayonlarning sub'yekti va harakatlantiruvchi kuchlari.
4. Virtual borliq (qudratli kuch) haqidagi mulohazalar.
Xulosa.

Odamlarning ijtimoiy birikmasi bo'lgan jamiyat, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida diniy, badiiy, ilmiy va falsafiy adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. ITI shitob ketayotgan, bu jarayon nafaqat insoniyat ongi, shuuri, ruhiy olami, ma'naviy-axloqiy qiyofasining o'zgarishiga o'z jiddiy ta'sirini o'tkazmoqda, ayni chog'da tabiat o'zining Noosfera – Aql sohasi davriga kirgan bir paytda, individ va shaxslarda ijtimoiy hodisalarga ilmiy-falsafiy yondashuvni qaror toptirish hayot-mamot masalasi bo'lib turibdi. Endilikda fanga virtual borliq shakli ham ayon bo'layotganini ushbu va'z (leksiya)da anglab olasizlar.

1-m. Ilgarigi va'zda odamzot ham borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida shu ona-tabiat bag'rida boshqa tirik mavjudotlar kabi o'zidan-o'zi vujudga kelganligi tarixiy aspektda isbotlandi. Falsafiy nuqtai nazardan jamiyat ham borliqning yana bir shakli sifatida odamzotning tarixiy-tadrijiy rivoji va takomili natijasida huddi boshqa mikro va makro organizmlar kabi o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi sistemadir. Binobarin, bu sistema borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida va albatta Kromonyon tipidagi odamlarning tarix maydoniga kelishi, ularning ongli faoliyati bilan bog'liq xodisadir. Borliqning bu shakli ham muayyan qonunlar asosida mavjud bo'ladi va takomillashib boradi. Kromonyon tipidagi odamlarning tarix maydoniga kelishi miqdor va sifatning o'zaro o'tish va inkorni inkor qonunlari asosida ro'y berган. Bu tip odamlar ilgarigi tipdagи odamlarning vorisi sifatida, miya yarim sharlarida nutq tili markazi hosil bo'lishi tufayli ular ilgarigi tiplar kabi gala-gala yashashdan jamoa-jamoа shaklida yashashga o'ta boshlashgan. Bunday fijtimoiy birliklar tarixan takomillashib borgan.

Ikki jinsning yakkanikohlikka asoslangan oila shaklida yashashga o'tishi, urug', qabila, elat (xalq) va millatlarning vujudga kelishi, shu birliklarda o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishlari o'zidan-o'zi vujudga kelgan qonuniy jarayonlandir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida davlatlarning kelib

chiqishi, mulkiy munosabatlар, ishlаб chiqarish munosabatlari, har bir jamiyatning o‘z bazis va ustkurmasi bo‘lishi, bozor iqtisodi munosabatlari (bularni iqtisod nazariyasi va sotsiologiya fanlari batafsil o‘rgatadi)— ana shu ijtimoiy hodisalar albatta falsafa fani qonunlarida o‘z ifodasini topgan ichki va tashqi aloqadorliklar, o‘zaro ta’sir va aks ta’sirlar natijasidir.

Tabiat qonunlari bilan jamiyat (**ijtimoiy**) qonunlar o‘rtasida umumiylilik va ayrimlik bor. Har ikki yo‘nalishdagi qonunlar ob’yektiv tasnifga ega, ya’ni ular odamlarning ongi, xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda amal qiladi. Bu qonunlar orqali har qanday butunlik bir sistema shaklida o‘zidan-o‘zi harakatga kelib, o‘z strukturaviy tuzilishiga ega bo‘ladi.

Tabiat qonunlari odamzot paydo bo‘imasdan oldin ham mavjud bo‘lgan, ular quyosh sistemasi va bizning koinotimiz doirasidan tashqaridagi sistemalarda ham amal qiladi. Jamiyat qonunlari faqat **aqlii** mavjudot —Kromonyon tipidagi odamlarning ijtimoiy birliklaridagina bo‘ladi va shu jarayonlardagi ishtirokiga qarab individlar shaxsga aylanadi.

Jamiyat qonunlarining **amal qilishi** odamlar va ular uyushmalarining ongli faoliyati bilan bog‘lanib ketadi. **Tabiat qonunlari** uzoq tarixiy davrda amal qiladi, jamiyatning ba’zi qonunlari nisbatan qisqa muddat davomida o‘z hukmini o‘tkazadi. Tabiatning yangi qonunlari kashf etilishi birdaniga ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi, ijtimoiy qonunlarning kashf etilishi va unga amal qilinishi esa katta ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin. Har bir tarixiy davr va mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlarga muvofiq ravishda individlar muayyan sotsial qiyofaga ega bo‘ladilar. Sotsial guruhlarning tub manfaatlari va ehtiyojlarini teranroq anglab, ularni aniq-ravshan maqsadlar sari yetaklovchi individlarda shaxsiy qobiliyatlar rivojlanib, o‘sha guruh, butunlik (urug‘, qabila, elat, millat, sinf, partiya, mehnat va o‘kuv jamoasi va h.k) etakchisiga aylanadi. O‘z navbatida shaxslarning dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofalariga monand tarzda o‘sha sotsial butunliklar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladilar.

Tabiat va jamiyat qonunlari o‘rtasida farqlar bilan birga yana **bir** mushtaraklik shuki, biosferaning Noosfera (Aql sohasi) bosqichiga o‘tishi qonuniy jarayon bo‘lib,

buni anglab faoliyat yo‘nalishi belgilash tabiat (Yer)ni ham, jamiyatni ham muqarrar halokatdan saqlab qolishi mumkin.

2-masala. Tabiat va jamiyat qonunlarining o‘ziga xos xususiyati shuki, tabiat va uning hodisalari bilish ob’yekti, ammo ularning o‘zлari bilish sub’yekti emas. Jamiyat hodisalarini bilish ob’yekтив tasnifga ega, ayni chog‘da u sub’yekтив omillarga ham bog‘liqdir. Zero, jamiyat bir-biri bilan ehtiyojlar va manfaatlar mushtarakligida uyushgan odamlar va ijtimoiy guruhlarning yaxlit birligi, birlashmasidir. Ehtiyoj ob’yekтив reallikka sub’yekтив talabni ifodalaydi. U muayyan ijtimoiy tizimning maromli harakati va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitni anglatib, narsa va hodisalarga odamlarning aniq munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ehtiyojlar shaxsiy, guruhiy, sinfiy, kasbiy, milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo‘ladi. Ehtiyoj har bir odam, ijtimoiy guruh, sinf, elat, millat yashashi, faoliyati, ravnaqi uchun zarur bo‘lgan o‘zaro muvofiqlik, muvozanat holatini saqlashga qaratilgan maqsadga muvofiq talablarni qondirish deb tushunilsa, to‘g‘ri bo‘ladi. Ehtiyojlar qanday tus olishi shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ilmiy-falsafiy anglashga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Ijtimoiy manfaatlar ob’yekтив bo‘lib, uni ilmiy idroki shaxsning turmush tajribasi, tarixiy xotirasi, ilmiy salohiyoti, insoniy sifatlari, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘lanib ketadigan imon-e’tiqodining g‘oyaviy yo‘nalishiga ham bog‘liqdir. Masalan, milliy manfaatlarni chuqur anglagan odamlar va ijtimoiy guruhlar o‘z manfaatlarini milliy va umumbashariy manfaatlarga bo‘ysundiradilar, chunki ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari ana shu katta manfaatlar doirasida shakllansagina to‘laroq va maqsadga muvofiqroq bo‘ladi. Bunday ehtiyojlarni qondirish yo‘lidagi barcha faoliyat ijtimoiy taraqqiyot uchun xizmat qiladi, binobarin, ijtimoiy qonunlarning amal qilish yo‘llari ravonlashadi. Shu ijtimoiy birlik (bir butunlik) mohiyatida ma’lum hududda muayyan jamiyat va ma’naviyat tarkibida uyushgan individlar o‘z tarixini yaratish, o‘z takdirlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Agar ular ijtimoiy qonunlarni anglab, ularning amal qilish maylasiga rioya etsalar, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradilar, aksincha bo‘lsa, ijtimoiy taraqqiyot sustlashishi va hatto tanazzulga yuz tutishi mumkin. Biroq, ijtimoiy taraqqiyot ob’yekтив tasnifga ega bo‘lgani sababli, qonunlar o‘zlariga yo‘l ochib

oladilar va albatta ijtimoiy taraqqiyot pastdan yuqoriga, soddadan murakkabga qarab rivojlanib boradi. Individlar, ularning guruhlari va yo'lboshchilari ijtimoiy qonunlarga amal qilgan taqdirdagina insoniyat porloq istiqbolga ega bo'la oladi.

3-masala. Jamiyat qonunlari ham eng umumiy, umumiy va xususiy (juz'iy) qonunlar tipologiyasiga ajratiladi. Falsafa fani qonunlari va kategoriyalarida o'z ifodasini topgan o'zaro aloqadorliklar, bog'lanishlar ijtimoiy hayotda ham namoyon bo'ladi. Binobarin, bu eng umumiy qonunlar, kategoriyalar, tushunchalarni bilish jamiyatni ilmiy boshqarish imkoniyatini vogelikka aylantiradi. Insoniyat tarixiy takomilida, sotsial-guruhrar, elatlari, millatlar hayotida o'xshash shart-sharoitlarda birdek amal qiladigan qonunlarni umumiy qonunlar deb ataladi. Masalan, moddiy ishlab chiqarish bilan ma'naviy boyliklar yaratish o'rtaсидаги munosabatlarni bozor munosabatlarining ikki tomoni o'rtaсидаги yoki ehtiyojar bilan manfaatlar o'rtaсидаги munosabatlarni anglatadi.

Muayyan jamiyat taraqqiyoti va tanazzulining aniq bir bosqichlari, holati to'g'risida ravshan tasavvurga ega bo'lish uchun xususiy (juz'iy) ijtimoiy qonunlarni ham anglab olish zarur. Bunday qonunlarning amal qilish doirasi ma'lum bir makon va zamonda cheklanganligi va ular jamiyat taraqqiyotining faqat ayrim bosqichlarigagina xos aloqadorliklarni ifodalashi bilan farqlanadi. Masalan, sobiq Sho'rolar va "sotsialistik lagerga" uyushgan davlatlar davrida amal qilgan planli-proportsional deb atalgan qonunning harakat yo'li shu davlatlar tugashi bilan to'xtadi. Yoki talab va taklif o'rtaсидаги munosabatlarni kabi umumiy qonunlar O'zbekiston sharoitida o'ziga xos, betakror amal qilishi u qonunlarga xususiylik baxsh etadi. Prezident Islom Karimov asos solgan O'zbekistonda bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tishning besh tamoyili ijtimoiy qonunlarning amal qilishiga o'ziga xoslik baxsh etadi. Umuman olganda, eng umumiy, xususiy qonunlar bir-biri bilan dialektik aloqadorlikda bo'lib, ular bir-birini ham iqror qiladi, ham istisno etadi. Shunday qonunlar va qonuniy aloqadorliklar tufayli jamiyat o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim sifatida bir butunlikni hosil etadi. Jamiyat qonunlarini bilmaslik yoki ularga amal qilmaslik volyuntarizm—o'zboshimchalikka olib keladiki, bu har qanday jamiyat va davlatni jar

yoqasiga keltirib qo'yishi mumkin.

Jamiyat qonunlari ham ob'yektiv bo'lgani sababli, ularni anglab olish, ulardan ijtimoiy amaliyotda samarali foydalanish uchun davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etayotgan shaxslar shu sohadagi bilimlar turkumi bilan qurollangan bo'lishlari lozim. Tabiiyotshunos yoki texnikashunos o'z sohasi bo'yicha kashf etilgan qonunlar va qonuniyatli aloqadorliklarni o'zlashtirib olishi kifoya qilsa, jamiyat qonunlarini bilish uchun falsafa, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, davlat qurilishi asoslari, ruhshunoslik, dinshunoslik, etnografiya, antropologiya kabi qator fanlardagi qonuniyatli aloqadorliklarni anglab olish kerak bo'ladi. Zero, ijtimoiy qonunlar ko'p hollarda ziddiyatli munosabatlar, manfaatlar ta'sirida amal qilishi tufayli, ular «yetakchi mayllar» shaklida namoyon bo'ladi. Bunda qonun talabidan kelib chiqadigan ijtimoiy-tarixiy jarayonlar umumiy – tekis rivojlanish yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri emas, balki manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi yoki yaqinligida uyushgan turli jamoalar faoliyati ta'sirida ko'plab chetga og'ishlar, orqaga ketishlar, buzilishlar bilan birga boradi va piravordida o'sha qonunlar ta'sirida jamiyat muqarrar ravishda o'ziga taraqqiyot yo'lini ochib oladi.

Ijtimoiy qonunlar «sof» holda emas, balki «yetakchi mayl» shaklida va «taxminiy» tasnidfa namoyon bo'ladi, natijada bu qonunlar alohida metodologik yondashuvni taqoza qiladi. Har bir tarixiy davrda yetilgan ijtimoiy ehtiyojlarni anglash, bu ehtiyojlarni qondirishdan manfaatdor kuchlarni birlashtirish uchun ana shu «yetakchi mayllar»ni anglab yetgan, uning harakat yo'unalishlariga monand odamlar faoliyatini aniq ijtimoiy maqsadlar sari yo'naltirishga qobiliyatli tarixiy shaxslar, ularning g'oyalarini amalga oshirishga kamrabasta bo'lishga uyushgan siyosiy partiyalari va ijtimoiy harakatlar kerak bo'ladi.

Albatta tarixiy jarayonlarning sub'yekti xalq ommasi, ya'ni moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan barcha odamlardir. Shu odamlarning mehnati, izlanishlari tufayli ijtimoiy-siyosiy munosabatlar takomillashib boradi. Masalan, o'tni, g'ildirakni, par mashinasini, elektr dvigatelini kashf etgan odamlar, avtomobil, samolyot yoki murakkab asbob-uskulalarni ijod qilgan yoki islohot dasturlari bilan chiqadigan odamlar shu ishlari qanday ijtimoiy oqibatlarga olib kelishini aniq-

ravshan tasavvur qilishmagan, oddiy tirikchilik tashvishida yurgan odamlar uchun bularning oqibati bilan qiziqishning keragi ham yo‘q. Biroq, ularning ana shu faoliyatlari muayyan qonuniyatli bog‘lanishlar bilan vobasta ekanini tarixiy shaxslar (olimlar, taraqqiyat parvar ulamolar, siyosiy arboblar v.b.) anglaydilar va shunday faoliyatlarni rag‘batlantiradilar. Demak, tarixni xalq ommasi yaratadi, ammo o‘sha ommanning yetilgan ehtiyojlarini idrok etishda va ob‘yekтив ijtimoiy manfaatlarni anglashida tarixiy shaxslarning betakror o‘mi va roli bo‘ladi.

Tarixiy shaxslarni ikki toifaga bo‘lish mumkin: a) jamiyatdagi «yetakchi mayllar»ni anglab, ijtimoiy taraqqiyotga boshchilik qiladigan shaxslar; o‘z kashfiyotlari jamiyat ina’naviy-axloqiy muhitini sog‘lomlashtirish, ijtimoiy adolatni qaror toptirishga yordam beradigan g‘oyalar, dasturlar bilan chiqqan olimlar, ulamolar ham tarixiy shaxstar sirsiga kiradi. Bularga Zardusht Sepitoma, Muhammad Ibn Abdulloh, Amir Temur v.b., IX-XII asrlar, XIV-XV asrlarda o‘tgan va arab-musulmon olamida Uyg‘onish davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarni hamda G‘arb va Sharq mamlakatlarida o‘tgan olimlar, ulamolar, tarixiy taraqqiyotga yo‘l ochgan barcha shaxslarni kiritish mumkin; b) «Yetakchi mayllar» (ijtimoiy qonunlar)ni nazar-pisand qilmay, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini ma’lum bir muddat to‘sib qo‘ygan, tarixda o‘zlaridan yomon nom qoldirgan Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon, Gitler, Lenin va boshqalarga o‘xhash shaxslar hamda ilmiy va diniy bilimlari sayoz bo‘lgan, ammo lo‘ttibozliklari bilan ma’lum bir guruhni o‘z ta’siriga olgan aqidaparast shaxslar turixda o‘zlaridan yomon nom qoldiradilar.

Xalq ommasi tushunchasini xalq galasi (olamon) tushunchasidan farqlamoq darkor. Kattarni-kichikmi har bir jamoaning o‘z yetakchisi bo‘lganidagina u muayyan sotsial qiyofaga kiradi. Ana shu shaxsning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, ma’naviy qiyofasi muayyan jamoa faoliyatida moddly tus oladi. Xalq ham huddi shu kabi qanday tarixiy shaxsga ergashsa, uning g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishga intilsa, muayyan sotsial qiyofaga ega bo‘ladi, ya’ni xalq ommasiga aylanadi, aks holda u olamon qiyofasida o‘zini namoyon etadi. Olamon esa aniq-ravshan g‘oyaviy-siyosiy maqsadga ega bo‘lmagan odamlar galasiga aylangan ijtimoiy kuch sifatida buzg‘unchilik, talonchilik ye‘liga osongina kirib ketadigan ijtimoiy harakatdir.

Demak, xalq ommasi «yetakchi mayllar»ni anglab, ilg'or g'oyalar, sotsial dasturlarga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy yetuk, barkamol shaxslar ortidan borgandagina, u tarix ijodkori, tarixiy jarayon sub'yektiga aylanib, ijtimoiy borliqning bir shakli sifatida o'zini namoyon etadi.

4-masala. Fanda virtual^{*} borliq tushunchasi ham bor. Bu fazo va vaqtida moddiy borliqqa ters bo'lgan sub'yektiv narsalar yoki sub'yektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy shaklidir. Boshqacha aytganda, u kelajakda yaratish mumkin bo'lgan hamda inson ongi va ijtimoiy ongda hayolot sifatida mavjud borliq shaklidir.

Virtual borliq hozirgi davrda aniq (real) borliqda harakat qilayotgan hayolot kompyuterda go'yoki real tusda o'z ifodasini topadi. Ushbu vaziyatda ob'yektiv borliqning tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rmini maxsus kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliqni qo'l bilan ushslash, inson sezgi a'zolari yordamida bilish mumkin emas. Biroq, odamzot kompyuter vositasi orqali bu ongdagi hayoliy olamga kirib, kuzatish orqali unga ta'sir ko'rsata oladi: ushbu virtual borliq mustaqil harakat qilib, voqelikni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, shu ma'noda virtual borliq inson borlig'i va ijtimoiy borliqning o'ziga xos yana bir shakli va ma'naviy olamining ifodasidir.

Masalan, Prezident Islom Karimov O'zbekiston istiqbolda yuksak ma'naviyatga asoslangan jamiyat (ijtimoiy borliq) shakllanishi mumkinligini tarixiy aspektda asosladи. Ushbu bir arbobning fikri, g'oyasi mafkuraviy vositalar, uslublar yordamida keng xalq ommasi ongidan joy olsa, demak, hozircha hayoliy olam ifodasi bo'lgan konseptsiya individual va ijtimoiy ongda reallik tusiga kirdi. Shu yo'nalishda ijtimoiy harakat qanchalik amaliy tusga kirsa, shunchalik u muayyan tarixiy muddatda voqelikka aylanishi mumkin. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda istiqbolda shakllanishi nazarda tutilgan ijtimoiy borliq, G'arb olamidagi eng e'tiborli jihatlari saqlangan holda, undan sifat jihatdan farq qiladigan inson va jamiyat borlig'i shakllanishi ham mumkin. Yoki O'zbekiston Konstitutsiyasida insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish nazarda tutilgan. Bu, o'zbekistonliklar uchun hozircha istak,

*virtual – lotincha so'z bo'lib, u qudratli kuch yoki qudratli qobiliyat ma'nolarini anglatadi.

maqsad sifatidagi namoyon bo'lib turibdi. Istiqbolda esa shunday davlat shakllanishi mumkin, albatta.

Tarixga murojaat etaylik. Odamzot o'z hayolotida "uchar gilamlar", "uchar otlar"ni yaratib, shu orzular bilan ko'p asrlar yashadi. Endilikda samolyot, vertalyot, raketalar mazkur orzular ifodasi sifatida vujudga kelib, virtual borliq aniq(real) tusga kirdi. Hozircha odamlarda kosmosni o'zlashtirish, boshqa olamlarga sayohat qilish orzusi turibdi. Hatto, yorug'likka yaqin tezlikda uchadigan raketalarda odamzot yerdagi yil hisobida ming yil va undan ortiq yashash imkoniyati borligi ravshan bo'lmoqda. Hozircha bu odamzot hayoloti sifatida namoyon bo'lib turibdi. Istiqbolda yorug'lik tezligiga yaqin (sekundiga 250-280 kilometr) tezlikda uchadigan raketalar bunyod bo'lishi mumkin. Bunday raketalar ichida sayohatga kirgan odam ikki yoshga o'sgan paytda, erda 550 yil vaqt o'tib ketadi. Boshqacha aytganda, 30 yoshda kosmik parvozda bo'lgan 32 yoshga kirib qaytganda, Yerda 5,5 asr o'tib ketgan bo'ladi. Sabab shuki, fizika qonuniga binoan, harakat qancha tez bo'lsa, raketa (moslama) ichidagi odamdag'i harakat shunchalik sekinlashadi, go'yo harakat to'xtab qolganday bo'ladi. Boshqacha aytganda, fazo va vaqt o'rtasida farq qolmay, harakat fazo-vaqt tusiga kiradi. Bu hozircha inson ongida, hayolotidagi vogelik bo'lgani uchun unga ishonish qiyin. Biroq, bu imkoniyat vogelikka aylangach, yangi bir olam – virtual borliq tushunchasiga ishonch kuchayadi.

Virtual borliqda mavjud narsalarning manba'i inson ongi va u bilan bog'liq hayolotidir. Binobarin, u ong, ong osti sohasi va odamzot fantaziysi sifatida kompyuterda mavjud bo'lsa-da, biroq aslida u inson ongi mahsulidir. U yaratilgandan so'ng inson ongiga bog'liq bo'Imagan holda borliqning yangi bir shakli sifatida yashab, individual va ijtimoiy ongga o'z ta'sirini o'tkazadi hamda ongning barcha shakllari mazmuni – bilimlar, ilmlar, emotsiya (his-hayojon)lar, kayfiyatlar va ongning boshqa unsur(element)larida idrok etiladi.

Hozirgi davrda virtual borliq inson ma'naviy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Undan, avvalo, fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirish, ximiyada kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, shuningdek, geologiya va geografiya fanlarida foydalaniamoqda. Muhandislik sohasida, xususan,

xavfli sharoitlarda – ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib hoshqarishda virtual (qudratli kuch) borliq shaklini anglash asqatmoqda.

Muhandislik dizaynini avtomatlashtirish jarayonida virtual borliq shakli kompyuter yordamida raketalar, samolyotlar, avtomobillar, ulkan binolar konstruktsiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirilmoqda. Xususan, virtual borliq texnologiyasidan harbiy sohada keng fodalanilmoqda. Ta'lim sohasida mashq trinajyorlarini yaratishda, shuningdek, virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish imkoniyati vujudga kelmoqda. Masalan, virtual kutubxonalarda odamzot kompyuter yordamida kitob javonlarining virtual tasviri bo'ylab harakat qilishi, kerakli adabiyotlarni topishi va ularni o'qishi, zarur holatiarda undan nusxa ko'chirishi mumkin.

Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan tortib, ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalarning ajralmas qismi sifatida hozirgi zamonda borliqning yana bir shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borliqda inson o'z tasavvuri va ongi mahsuli bo'lgan virtual olamda yashay boshlaydi.

Borliqning virtual shaklida kuzatish, o'rganish, tahlil etish, nazorat predmeti bo'lish imkoniyati mavjud barcha narsa, hodisalarni o'z ichiga oladi. Ayni chog'da biz yashab turgan olamda hozirgi zamon fani va odami anglashi qiyin bo'lgan jumboqlar va mo'jizalarga limmo-lim ekanligini anglash hamda odamzot oddiy bilishdan murakkab bilishga, sodda bilishdan chuqur bilishga tomon ketayotganini fahmlashga imkon yaratadiki, borliq haqidagi hozirgi tasavvurlarimiz takomillashib borib, bilish chegaralarimiz yanada kengayishi mumkin.

Xulosa: a) jamiyat ijtimoiy borliqning bir shakli sifatida muayyan qonunlar asosida o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi sistemadir; b) tabiat va jamiyat qonunlaridagi umumiylilik va ayrimliklarni anglab, ulardan ijtimoiy taraqqiyotda foydalanish mumkin; v) ijtimoiy qonunlar odatda «yetakchi mayllar» sifatida namoyon bo'ladiki, ularni anglash orqali jamiyatni ilmiy boshqarish mumkin; g) virtual borliq odamzot ongi va hayolotida bo'ladigan, ammo istiqbolda aniq-ravshan tusga kirafigan reallikdir.

III BOB. GNOSEOLOGIYA – OLAMNI BILISH HAQIDAGI TA'LIMOT

1- mavzu. Ong va bilishning tabiiy-ilmiy va falsafiy masalalari

Kirish so'zi.

1. Ong—yuksak darajada shakllangan materiya ko'rinishi—odamzot miyasining mahsuli.
2. Ijtimoiy ong, uning asosiy shakllari, darajalari va tuzilishi (strukturasi).
3. O'zini-o'zi anglash muammosi.
4. Milliy o'zlikni anglash.

Xulosa.

Ushbu va'zda ong va ijtimoiy ong haqida ilmiy- falsafiy fikrlar bayon etiladi hamda ularni anglash borliqni falsafiy idrok etish imkonini berishi ta'kidlanadi.

1-masala. Boshqa tirik mavjudotlar kabi tabiat taraqqiyotining muayyan bosqichida odam zoti paydo bo'lganligi ilgarigi va'zda dalillandi. Ma'lumki, moddiy narsalarning barchasiga axborotli in'ikos xos. Tirik organizmlarda in'ikosning quyidagi darajalari mavjud: a)ta'sirlanish; b) sezish; v) neyrofiziologik in'ikos; g) psixik (ruhiy) in'ikos. Bularning rivoji ijtimoiy muhitda yangi bosqichga ko'tariladi.

Tirik organizmlarda in'ikosning psixik darajasi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) asab sistemasiga ega bo'lgan organizmlarda aniq vaziyatga qarab shoshilinch tarzda o'zidan-o'zi yo'nalish belgilash; 2) noaniq vaziyatda harakat yunalishi belgilash uchun hayot tajribasi, fahm-farosat (intuitsiya) va bilim kerak bo'ladi. Bularning birinchisi uchun tanadagi genetik dastur kifoya qilsa, ikkinchisi uchun albatta bilim, tajriba, fahm-farosat kerak. Odamzot genetik dasturdan tashqari yana bilish orqali olam sir-asrolarini ichiga tarixan tobora ko'proq va chuqurroq kirib bormoqda.

Axborotli in'ikosda ongosti va ongsizlik holatlarini ham inobatga olish lozim. Ongosti hodisisi muayyan vaziyatda ongli faoliyat bilan bog'lanmagan, ammo ongli harakatlarning yuz berishiga ta'sir etadigan ruhiy holatdir. Individual (betakror) ong, ijtimoiy ong, mashinaviy ong (elektron «miya», «sun'iy aql») kabi ong turlari mavjud. Rux ong bilan mustahkam bog'liq bo'lib, u shaxsiy ruh, jamoa ruhi, ijtimoiy

ruh, milliy rux, ob'yektlashgan ruh shakllarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, insoniyashgan ruh va g'ayriinsoniy ruh ham bo'lib, ular odamlar va ijtimoiy guruqlar hatti-harakatlari, faoliyatlarida moddiy tusga kiradi.

2-masala. Ijtimoiy ong muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy borliqni in'ikos ettiradigan ijtimoiy kayfiyatlar, kechinmalar, his-tuyg'ular, g'oyalar, qarashlar, gipoteza va nazariyalar majmuidir. Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lsa-da, ammo u nisbiy mustaqillikka egadir. U quyidagilarda zuhur bo'ladi:

1) ijtimoiy ong siyosiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy, ilmiy, falsafiy qarashlar shaklida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy borliqning ijtimoiy ong shaklida namoyon bo'lishi birqator oraliq omillarga bog'liq holda vujudga keladi;

2) turlicha fikrlar, g'oyalar, qarashlar, nazariyalar rivojida vorislik saqlanadi, shu tufayli o'tmishni yalpi qoralash ham yoki yalpi ideallashtirish ham taraqqiyot uchun zavol bo'ladi;

3) ba'zi hollarda ijtimoiy ong ijtimoiy borliqdan o'zib ketadi. Olimlar, buyuk siymolar mavhum imkoniyat darajasida turgan voqelikni fahmlab, insoniyatni porloq kelajakka da'vat etuvchi g'oyalarni ilgari suradilar. Natijada bu g'oyalar atrofida uyushgan elatlar, xalqlar, millatlar va ularning uyushmalari ma'lum bir ijtimoiy maqsad yo'lida birlashib harakat qiladilar;

4) ijtimoiy ong ijtimoiy borliqdan orqada qolishida ham uning nisbiy mustaqilligi namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ongning axloq va din kabi shakllari uchun turg'unlik xos, ya'ni ular o'zlarini keltirib chiqqargan voqelik yo'q bo'lganida ham ayrim odamlar, sotsial guruqlar ongida, xulq-atvorida saqlanib koladi. Masalan, xizbuttahrir, akromiy kabi islomdagi radikal mazxablar individual va ijtimoiy ongda yo'q bo'lgan voqelikning in'ikoslaridir.

Ijtimoiy ongning quyi darajasi odatiy (kundalik) ong, yuqori darajasi esa nazariy ongdir. Odatiy ong muayyan ijtimoiy muhitda o'zidan-o'zi shakllanadi, nazariy ong esa voqelikning ichki va tashqi muhim aloqalarini, qonuniyatlarini ifodalagani uchun u o'qish, o'rganish, muayyan sohaning bilimdoni bo'lishni taqoza etadi. Odatiy-ong nazariy ong rivoji uchun bir turtki vazifasini o'tashi mumkin, nazariy ong esa odatiy ongni yangi mazmun bilan boyitib, real hayotga yaqinlashtiradi.

Ijtimoiy ong strukturasi ijtimoiy psixologiya (ahvoli ruxiya) va ijtimoiy mafkura tarzida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy psixologiya individlarning kundalik hayot ta'sirida stixiyali tarzda (o'zidan-o'zi) hosil bo'ladigan xis-tuyg'ular, kayfiyatlar, kechinmalar,hayollar,orzu-armonlar majmuidir. Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy vogelik va keljakni o'zida in'ikos ettiradigan, muayyan ijtimoiy maqsadlarni odamlar, sotsial guruxlar anglab olishlariga imkon tug'diradigan fikrlar, g'oyalar, qarashlar, gipotezalar, nazariyalar fizimi hamda muayyan ustuvor g'oyani inson imon-e'tiqodiga, xalq ommasi maslagiga aylantirish vositalari, usullari yig'indisidir. Ijtimoiy ongning har ikki darajasi bir-biriga ta'sir o'tkazadi.

3-masala. Odam biologik mavjudot sifatida hayvonlarga xos barcha xususiyatlarga ega. Biroq, u ijtimoiy muhit (jamiyat)da yashashi tufayli o'zida muayyan bir ijtimoiy mohiyatni ham gavdalantiradi. Shuning uchun «odam» va «inson» tushunchalarida umumiylilik bilan birga ayrimlik (muhim tafovut) xam borligini e'tiborga olish kerak. Odam biosotsial mavjudot sifatida muayyan vaziyatlarda hayvonlardagi kabi ikki nafs ovorasi sifatida o'zini namoyon etadi. Agar odamda ijtimoiy mohiyat birinchi o'ringa chiqsa, u o'z nafslarini chegaralash qobiliyatiga ega bo'ladi va u chin ma'noda sotsiobiologik mavjudot — insonga aylanadi. Muayyan jamoa, jamiyat, ma'naviyat- tomonidan tarixan e'tirof etilgan odob-axlok marom— (norma)lari, qonun-qoidalar, tartib-intizomlar doirasida faoliyat ko'rsatadigan, shu nuqtai nazardan o'zini-o'zi nazorat eta oladigan individlar inson deyiladi. Binobarin, odamning insonga aylanishi uchun oliy bir ibtido yoki oliy bir ijtimoiy maqsadga komil ishonch, ma'naviy tayanch zarur. Inson shu ishonchi doirasida harakat qilib, o'zini- o'zi nazorat etish imkoniyatiga ega bo'ladi va shu jarayonda u ma'naviy pok, axloqiy barkamol inson sifatida o'zi yashayotgan ijtimoiy muhit sog'lom tusda rivojlanishiga hissa qo'shish uning hayot ma'nosiga aylanadi. Muayyan dunyoqarashni gavdalantiradigan imon (ishonch va e'tiqod tuyg'usi) tufayli odamda insof-diyonat, vijdon, saxovat, muruvvat kabi oliyanob ahloqiy sifatlar shakllanadi.

Odam uchun eng qiyin, eng aziyatli muammo—o'zini-o'zi, ya'ni hayvondan farq qiladigan mavjudot ekanligini anglashdir. Odamning insonga aylanishining

quyidagi shartlari bor: a) o'zini-o'zi, ya'ni hayvonlardan farq qilishni his etish (sezish); b) o'zini-o'zi idrok etish (fahmlash); v) muayyan ma'naviyat va ijtimoiy guruhga mansubligini anglash; g) Odam o'z «Meni»ga, ya'ni mustahkam g'oyaviy nuqtai nazarga ega bo'lishi, o'z qadr- qimmatini bilishi, boshqalarni ham o'zidek qadrlay olishi orqali u tom ma'nodagi ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

Odamzotning o'zini anglashi uchun ham yuksak ijtimoiy maqsadlar ifodasi bo'lgan g'oyalarga qatiy ishonch, ichki axdnoma (imon) hamda ideal kerak. Odamning insonga aylanishida ajdodlarning pand-nasihatlari, o'gitlari, da'vatlari, tajribalari ham muhim o'rin tutadi. Odamda chin insoniy sifatlar yoki g'ayriinsoniy qusurlar shakllanishida mafkura hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ilgor g'oyalar asosida shakllangan ijtimoiy institutlar, ta'sir o'tkazish vositalari odamdagи insoniy sifatlarni ro'yobga chiqarsa, teskari, yo tuban g'oyalar asosida qaror topgan ijtimoiy institutlar, ta'sir o'tkazish vositalari individlarda toshbag'irlik, loqaydlik, odam zotiga bepisand qarashdan iborat kusurlar shakllanishiga sabab bo'lishi tarixdan ma'lum.

4-masala. Milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash millat ma'naviy olamining qo'sh qanotidir. Milliy o'zlikni anglash iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa munosabatlar mustaqil davlat, til va madaniyat asosida inson ongida o'z ifodasini topadi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga ega bo'lgach, mustamlaka sharoitida yo'qolib borayotgan milliy g'urur, iftixon his-tuyg'ulari rivojlanib, milliy o'zlikni anglash oshib borayotgani kuyidagi xolatlarda namoyon bo'immoqda:

- 1) individlarda o'zbek xalqi va boshqa xalqlar namoyondalarining o'z tarixi va ma'naviy merosini o'rganishga qiziqishida;
- 2) o'z milliy tili ijtimoiy vazifalarini kengaytirishdan manfaatdorlikda;
- 3) O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun ko'rsatadigan jonbozlikda;
- 4) milliy birliq va totuvlik zarurligini tushunib, shu asosda faoliyat belgilashda;
- 5) bozor iqtisodi munosabatlariga to'la-to'kis tezroq o'tib olib, iqtisodiy bo'xronidan chiqib olish uchun ko'rsatayotgan fidoyilikda;

- 6) milliy madaniyatga nisbatan loqaydlikka barham berish zaruriyatini anglashda;
- 7) respublikada yashayotgan boshqa millat namoyondalari bilan samimiy, beg'araz qardoshlik aloqalarini barqaror etish uchun kurashda o'z ifodasini topmoqda.

Milliy o'zlikni anglash milliy kalandimog'likni ham, milliy maxdundlilikni ham inkor etadi. Diniy zaminda ixtiloflar chiqishiga yo'l qo'ymaslik milliylik alomatidir. Insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish va grajdalanlik jamiyati shakllanishi uchun kurash jarayonida milliy ong va milliy o'zlikni anglash rivojlanib, u ayrim qusurlardan xoli bo'lib boradi.

Xulosa: a) ong va onglilik tufayli odam o'zida insoniy sifatlarni qaror toptiradi; b) ijtimoiy ong ijtimoiy borliq ifodasi bo'lib, u nisbiy mustaqillikka egadir; v) odam uchun eng qiyin muammo—bu, o'zini-o'zi anglashdir; g)o'zini-o'zi anglab, insonga aylangan odam albatta milliy o'zligini boshqalardan ko'ra aniqroq his etadi va milliy manfaatlarni himoya qilish jarayonida umumbashariy birlikka ham o'z hissasini qo'shadi.

2-mavzu. Bilish jarayonining darajalari va bosqichlari

Reja:

Kirish so'zi.

1. Bilish—voqelik jarayonlarining inson ongidagi in'ikosi.
2. Bilish jarayonining bosqichlari.
3. Haqiqat va uni aniqlash mezoni.
4. Ilmiy bilish va uning o'ziga xos hususiyatlari.

Xulosa.

Olamni bilish, ayniqsa uni falsafiy anglash murakkab, ziddiyatli jarayon bo'lib, odamzot sodda bilishdan murakkabroq bilishga, sayoz bilishdan chuqur bilishga tomon boradit, shu jarayonda o'zi yashayotgan ijtimeiy muhitni o'zgartirib, o'zi ham ijtimoiy mavjudot sifatida o'zgaradi.

1-masala. Olamni inson ongi bilishga qodirmi, degan savolga olimlar qadim zamonlardan buyon javob qidiradilar va turlicha xulosalarga keladilar. Ba'zilar inson ongi olamdag'i narsa va hodisalarni bilishga qodir desa, boshqalari odam ongi narsalarning faqat yuzaki tomonlarinigina bila oladi, narsa esa, «o'z ichida» mavjud bo'lgani uchun uni bilish qiyin, deydiilar. Yana birlari umuman olamdag'i narsa va hodisalarni bilish mumkin emas, degan nuqtai nazarlarda turadilar. Dinlarda esa olam, undagi narsalar, hodisalar haqidagi haqiqatlar muqaddas kitoblarda o'z ifodasini topgan, binobarin, ana shularni bilib olish orqali u xristian, buddaviy, musulmon, yaxudo kabi sifatlarda insonga hos hususiyatlarga ega bo'lib, u o'zini-o'zi anglaydi, degan fikr ilgari suriladi.

Ilmiy falsafa inson va uning turli uyushmalari narsa va hodisalar, ulardagi ichki barqaror aloqadorliklarni bilishga qodir, bizning shu choqqacha to'plagan bilimlarimiz, xususan fan, texnika, axborot va nanotexnologiyalar sohasidagi yutuqlarimiz shundan dalolat beradi, deb hisoblaydi. Odamzotning bilish chegarasi cheklangmagan, ammo har bir aniq tarixiy davrdagi bilish imkoniyati cheklangan, xolos.

Bilish moddiy va ma'naviy (ruhiy) borliq—voqelik jarayonlarining inson ongidagi in'ikosidir. Fan qonunlari tabiat va jamiyatda inson ongi, irodasiga bog'liq bo'Imagan holda mavjud ob'yektiv jarayonlar ifodasidir. Bilish faol, ijodiy tasnifga ega bo'lib, olamdag'i qonuniyatli aloqalarni anglab olish orqali uni insonga monand tarzda o'zgartirishga qaratilgan alohida faoliyatdir.

«Bilim» va «ilm» tushunchalarida ayniyat va tafovut bor. Bilish odam bolasining tug'ilishidan boshlanadi, tabiat va ijtimoiy muhitga moslashish, unga faol ta'sir o'tkazish jarayonida u takomillashib boradi. Fan insoniyat tarixan to'plagan barcha bilimlarni muayyan tizimga solib, uni ilmga aylantiradi. Maxsus muassasalarda, ustozlar ko'magida odam muayyan ixtisosga xos ilmga ega bo'ladi. Kitob va kompyuter ilmga ega bo'lishning qudratli vositalaridir. Endilikda kompyuter texnikasi rivoji va takomillashib borishi natijasida ilm olish, -uni takomillashtirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar vujudga kelmoqda, elektron kutubxonalar barpo etilmoqda.

Bilish ob'yekti—ob'yektiv olam, sub'yekti esa odam va uning turli uyushmalaridir. Ob'yekt quyidagi ko'rinishlarga ega: a) moddiy borliq; b) tabiat (Yer) borlig'i; v) odamzot borlig'i; g) ma'naviy borliq; d) ijtimoiy borliq; j) virtual borliq shakllarida namoyon bo'ladi. Sub'yekti quyidagi ko'rinishlarga ega: a) individ, shaxs, tarixiy shaxslar; b) ilmiy muassasalar, ta'lif tizimi, mehnat jamoalari, davlat va jamiyatni boshqarish muassalari jamoalari; v) ijtimoiy-siyosiy va jamoat tashkilotlari; g) kompyuterlar, boshqa informatika vositalari.

2-masala. Bilish 2 bosqichda— hissiy va mantiqiy bilishda namoyondir. Bilishning boshlang'ich bosqichi jonli mushohada bo'lib, unga **sezish**, idrok va tasavvur shakllari kiradi. Sezishlar yordamida narsa va hodisalarni bilib olamiz va idrok qilamiz, ularning xossalari, o'xshashliklari va tafovutlarini anglaymiz. Idrok, sezgidan farqli ravishda, narsaning yaxlit timsoli (obrazi)ni yaratadi. Idrok vositasida odam narsaning turli xossalarni qayta takror mushohada qilib, ularning birlashgan obrazini yaratadi. Jonli mushohadada asbob-uskunalar, turli moslamalarning roli katta, ular hissiy bilish chegaralarini tobora kengaytirib bormoqda. Tasavvur narsa va hodisalarning avvalgi ta'siri natijasida xotirada qolgan taassurotlarni qaytadan tiklab, yangi obrazlarni yuzaga keltiradi. Shu tariqa u bilishning ikkinchi, yuqori bosqichiga ottishda go'yoki bir ko'rik vazifasini o'taydi.

Aqliy bilish (mavhum tafakkur) hissiy bilishdan sifat jihatidan farq qiladi. Uning yordamida inson ongi aniq (konkret) narsadan uzoqlashib, ularning bir nechta (turkumi)ga xos bo'lgan umumiylilikka e'tiborni qaratib, narsa-hodisalar mohiyati va fan qonunlarini kashf etish imkoniyatini vogelikka aylantiradi. Aqliy bilishning **tushuncha, muxokama (hukm)** va **aqliy xulosa** shakllari bor. Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy, zaruriy jihatlarini ifoda ettirib, ularning sifati, mohiyati va miqdor muayyanliklarining alohida shaklda in'ikos etishidir. Odamzot olamni til va nutq tili vositasi-ila tushunchalar yordamida anglab boradi. Har bir fan shu jihatdan o'z tushunchalari, kategoriyalari, qonunlari orqali muayyan sohadagi ichki bog'lanishlar, aloqadorliklarni anglab olishga imkon yaratadi. Tushuncha mazmunan ob'yektiv, shaklan sub'yektivdir. Shu jihatdan bitta tushunchani turlicha talqin etish mumkin.

Odamzot fikrlovchi mavjudotdir. Voqelikda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni ong yordamida ilg‘ab olib, har bir tarixiy davrda va muayyan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy- axloqiy muhitda u haqda o‘ziga xos muhokama yuritadi, biron-bir narsani, hodisani yo iqror qiladi – tasdiqlaydi, yoki inkor etadi. Buni hukm deb yuritiladi. Bu hukm nechog‘lik haqiqat yo unga yaqin, yohud uzoq bo‘ladi—muhokama yurituvchining bilim darajasi, dunyoqarashi, tafakkur tarziga bog‘liqdir. Masalan, vahhobiylilik ijtimoiy ofatdir. Vahhobiylilik nuqtai nazarida turganlar uchun u fazilatdir va h.k.

Aqliy xulosa ikki yoki bir necha muhokama (hukm) dan shakllanadigan bilimdir. Aqliy xulosa muayyan fikrlarni taqqoslash, bog‘lash asosida mavhum tafakkurni hosil etadi. Aqliy xulosa ijodiy tasnifga egadir. Ijodning mifologik (afsonaviy), diniy, badiiy, ilmiy, texnikaviy, falsafiy shakllari mavjud. Bular har birining olamni bilishda o‘z tarixiy o‘rni va roli bor. Olamning ilmiy- falsafiy manzarasini hosil etish yo‘lidagi ijodiy izlanishlar ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lsa-da, ammo XX asrdan boshlab, u anchayin mukammal maqom tusiga kirib, inson ongi misli ko‘rilmagan parvozlar sari yo‘nalish olmoqda.

3-masala. Haqiqat muammosi falsafiy bilish markazida turadi. U dunyoqarash, insonning hayotdagи o‘z urnini anglash bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

Haqiqatning ilmiy-falsafiy talqini, birinchidan, borliq tushunchasi bizning ongimizga bog‘liq bo‘limgan ob‘yekтив reallikning aynan ifodasi hisoblanadi, bunda hodisalar ichida yashiringan mohiyat anglashiladi; ikkinchidan, «voqelik» tushunchasiga sub‘yekтив borliq ham kiradi; uchinchidan, bilish va uning oqibati—haqiqat, shuningdek, ob‘yektning o‘zi insonning ashyoviy-hissiy amaliyoti bilan uzviy bog‘liq holda tushuniladi; to‘rtinchidan, haqiqat jarayon hisoblanadi va unga konkret yondashish zarurdir.

Haqiqat ham sub‘yektda va ham sub‘yektdan tashqarida mavjuddir. Haqiqat sub‘yekтив deganda, u odam va insoniyatdan tashqarida mavjud emasligi nazarda tutiladi; haqiqat—ob‘yekтив deganda, odamzot tasavvurlarining haqiqiy mazmuni na odamga va na uning turli uyushmalariga bog‘liq bo‘ladi demakdir.

Olamda haqiqat emas, balki narsa va hodisalarning sifat butunligi, mohiyati va xususiyatlari bor bo'lib, odam ongi ularni haqiqat sifatida ifodalaydi. Binobarin, voqelik qanday bo'lsa, shundayicha ifodalash ob'yektiv haqiqatdir. Odamzot tafakkur yordamida narsa va hodisalardagi eng umumiy xususiyatlarni mavhumlashtirib, ularning mazmunini to'laligicha anglashga intiladi. Biroq, odamning bilishi tarixan cheklangan bo'lib, narsa va hodisalarni anglash nisbiy tasnifga egadir. Ya'ni, bugun yoki ~~bu~~ asrda haqiqat bo'lib tuyulgan ob'yekt haqidagi bilim ertaga yoki kelgusi asrda haqiqat bo'lmay qolishi mumkin. Demak, har kanday nazariyaga nisbiy haqiqat ifodasi sifatida qaralmog'i lozim. Nisbiy haqiqat to'la bo'lмаган, tugallanmagan haqiqatdir. Bu hol haqiqatning ob'yektivligini aslo inkor etmaydi. Haqiqat individlar, ijtimoiy guruhlar, insoniyatga bog'liq bo'lмаган ob'yektiv reallik deganda, uni albatta konkret (aniq) tushunish zarur. Haqiqat aniq-ravshan (konkret) bo'lishi kerak. Ya'ni u yoki bu hodisaga xos aloqalar va o'zaro ta'sirlar, o'sha ob'yektning mavjudligi va rivoji muayyan shart-sharoit, o'rinni va vaqtga bog'liqdir. Zero, ob'yektdagi o'zgarishga muvofiq tarzda u haqdagi bilimlarimiz ham o'zgaradi. Masalan, atom haqidagi Demokrit nazariysi va hozirgi zamondagi bu soxadagi bilimlarimiz aynan emas, ammo Demokritning qarashlari ma'lum tarixiy davrdagi konkret bilimlarga muvofiq kelardi. Ob'yekt (atom) o'sha-o'sha, ammo u muayyan shart-sharoitda parchalanishi ma'lum bo'lгach, atom haqidagi tasavvurlarimizda o'zgarishlar sodir bo'ldiki, uning oqibatida ilmiy-texnika inqilobi – ITI yuzaga keldi.

Odamzot ob'yektni to'la idrok etishga harakat qilaveradi. Agar narsa va hodisa haqida, uning u yoki bu xususiyatlari, munosabatlari to'g'risida tugal bilim bo'lsa, u mutloq haqiqat bo'ladi. Demak, nisbiy haqiqatlar yigindisi mutloq haqiqatdir. Fan qonunlari mutloq haqiqat tasnifiga egadir. Yoki Amir Temur 1336 yilda tug'ilgan. Bu ham mutloq haqiqatdir.

Mavhum haqiqat, ya'ni barcha zamon va makonlar uchun birdek to'g'ri hisoblanadigan haqiqat yo'q, bo'lishi ham mumkin emas.

Haqiqatni yolg'ondan va yanglishishdan farqlash lozim. Ijtimoiy amaliyotda ob'yektga ters bo'lgan bilimlarni haqiqat etib ko'rsatish hollari uchraydi. Ob'yekt haqidagi yolg'on bilimlarni haqiqat deb bilish odamni va insoniyatni boshi berk

ko'chaga olib kirib qo'yadi. Shu ma'noda yolg'on hayotni buzuvchi, vayronkor g'oyalar ifodasidir. Haqiqatning esa yaratuvchilik, bунyodkorlik xususiyati nihoyatda kuchli. Ob'yeqt haqida aniq, to'la bilimga ega bo'lish kerak, ana o'shanda haqiqatga ega bo'lgan odamlar, ijtimoiy guruuhlar ijodkorlik, bунyodkorlik bilan shug'ullanib, barkamol inson sifatida o'zlarini namoyon eta oladilar. Haqiqatgо'lyik, haqiqat uchun kurashish, fidoyilik kabi sifatlar inson ma'naviy-axloqiy yetukligining ifodasi hisoblanadi. Haqiqat uchun kurash—adolat uchun kurash tushunchasi bilan uzziy bog'lanib ketadi. Haqiqatga yetish yo'lida adashish, yanglishishlar bo'ladi, biroq, baribir bu hol odamzotni yanglishishlar oldini olish uchun izlanishlar qilishga da'vat etadi. Shu ma'noda yanglishishni yolg'ondan farqlash lozim. Haqiqatni yolg'ondan va yanglishishdan farqlaydigan mezon — ijtimoiy-tarixiy amaliyotdir. Amaliyot sinovidan o'tgan bilimlarimiz haqiqat tasnifiga ega bo'ladi.

4-masala. Bilish inson ongi bilan bog'liq bo'lib, ilgari aytganimizdek, odam tug'ilishidan boshlab umrining oxirigacha bilish jarayonini boshidan kechiradi. Odam olamdag'i hodisalar haqida kichik va katta muhitda olgan taassurotlari asosida o'z o'rmini aniqlab olish maqsadida «zarra» izlanishlar olib boradi. Biroq, bu «izlanishlar» insonga narsa va hodisalarning ustki, o'tkinchi aloqadorliklarini ilg'ab olishga imkon yaratса-da, ammo ularning asl mohiyatini bilishga ojizlik qiladi. Demak, bilishning bu shakli odam hayoti uchun zarur, lekin uning olamning ilmiy manzarasini hosil etish uchun mutlaqo kifoya emas.

Bilishdan maqsad ijtimoiy-zaruriy ehtiyojlarni mumkin qadar to'laroq qondirish yo'llarini, usullarini izlab topishdan iboratdir. Bilish bilmaslikdan bilishga, sayoz bilishdan chuqr bilishga, to'la bo'lmagan bilimdan mukammalroq bilimga ega bo'lishga qarab harakat qilish, mashaqqatlari izlanishdan iborat cheksiz jarayondir. Bu, tadqiqotchilar, olimlar va ilmiy muassasalar uzoq vaqt davomida amalga oshiradigan maqsadli izlanish bo'lib, bunda ilmiy-tadqiqot ishlari avvalo muammoni anglash, odam va odamlar uyushmalari e'tiborini uni hal etishga qaratishdan boshlanadi. Muammo o'z yechimiga muxtoj bo'lib turgan masala, vazifadir. U ilmiy bilish tizimida hali bilib olinmagan va ammo hal qilinishi millat va umuman bashariyat uchun nixoyatda ko'p naf etkazishi mumkin bo'lgan mavhum imkoniyatdir. Ilmiy

muammoni savol va masaladan farqlash lozim. Savolga javob berish, masalani yechish ilgari to'plangan bilimlarga asoslansa, muammoni hal etish uchun ilgarigi bilimlar bir turtki bo'lishi mumkin, ammo ular fanda ko'ndalang turgan va yechimini kutayotgan vazifalarni hal eta olmaydi. Ilmiy bilishda «muammoli vaziyat» tushunchasi bor. Bu bilishdan bilmaslikka va undan bilishga borish jarayoni bo'lib, u muammoni anglash, uni ko'ndalang qo'yish, hal etish vaziyatidir. Bilish bilan bilmaslik o'rtasidagi ziddiyatlari holat muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Muammoning yechimini topish ziddiyatlarni hal etish imkonini vujudga keltiradi. Demak, eski tushunchalar bilan yangi tushunchalar, tushunchalarni eskicha talqin qilish bilan yangicha talqin etish orasida ziddiyatlar paydo bo'ladi. Ularni hal etish uchun chuqur bilim bilan birga izlanuvchining jasorati, fan yo'lidagi fidoyiligi, izchilligi katta rol o'ynaydi. Hozir bozor iqtisodi munosabatlari infratuzilmalari rosa shakllanmagan, bozor munosabatlarini tartibga soluvchi sog'lom raqobatning yetarli darajada mayjud emasligi olimlar, tadqiqotchilardan faqat fidoyilik, o'z xalqi, millati, mustaqil davlati yo'lida jasorat ko'rsatishni, mahrumliklarni matonat bilan yengib o'tishni taqoza etmoqda. ITI sharoitida esa misli ko'rilmagan muammalar paydo bo'lib, ular o'z yechimini kutmoqda. Ilmiy muammolarni yechishda tadqiqotchi o'z sohasi bo'yicha shakllangan ilmiy bilish uslub (metod)larini o'zlashtirib olishi, ayni chog'da dunyoqarash va olamning ilmiy manzarasini hosil etish bilan bog'liq bo'lgan falsafiy bilimlar bilan qurollanishi katta ahamiyatga molikdir.

Xulosa: a) bilish ziddiyatli jarayon bo'lib, odamzot sayoz bilishdan chuqur bilishga, sodda bilishdan murakkab bilish tomon tarixiy jarayonlarni boshidan kechirib, o'z extiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi; b) bilish jarayoni ikki bosqichda—hissiy va aqliy (mantiqiy) bilishda namoyon bo'ladi; v) haqiqat ham sub'yektda, ham sub'yektdan tashqarida mavjuddir; g) ilmiy bilish muammoni anglash, uni qo'yish va hal etishga kirishish jarayonidir.

**3-mavzu. Qonun va falsafa fani qonunlari olamni ratsional (aqliy) bilish omili
sifatida**

Reja:

Kirish so‘zi.

1. Qonun tushunchasi, u olamni falsafiy bilish vositasi ekanligi.
2. Miqdor va sifatning o‘zaro o‘tish qonuni.
3. Dialektik ziddiyatlilik qonuni.
4. Inkorni inkor qonuni.

Xulosa.

Odamzot qonunlar orqali olamning sir-asrorlarini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Falsafa fani qonunlari dunyodagi o‘zgarishlar, paydo bo‘lish va yo‘qolishlar, rivojlanish va taraqqiyot murvatlari (mexanizmlari)ni anglab olish imkoniyatini vujudga keltiradiki, ushbu va’z shu masalaga bag‘ishlanadi.

1-masala. Qonun narsa va xodisalar o‘rtasidagi ob‘yektiv, muhim, zaruriy, yalpi umumiy, ichki, takrorlanadigan, barqaror aloqadorliklar ifodasıdir. Qonun bilan qonuniyat tushunchasi o‘rtasida tafovut bor. Qonun qonuniyatning bir, aniq (konkret) tomonini ifoda etadi, qonuniyat esa umumiy yo‘nalish, mayl (tendentsiya)ni anglatib, turkum qonunlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Olamni bilish qonunlarini huquqiy qonunlar bilan aralashirmslik kerak. Huquqiy qonunlar muayyan davrda davlatning jamiyat va individlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan sub‘yektiv tarzdagi aloqadorliklarni ifodalaydi. Fan qonunları borliqning o‘zida inson irodasi, xohish-istagiga bog‘liq bo‘limgan holda ob‘yektiv mavjud aloqadorliklar, o‘zaro ta’sirlar ifodasıdir. Binobarin, bu qonunlar olimlar, tadqiqotchilar tomonidan kashf etiladi.

Xususiy, umumiy va eng umumiy qonunlar bo‘ladi. Xususiy qonunlar muayyan bir ob‘yektning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rtasidagi yoki materiya harakatining biron-bir shakli doirasida mavjud bo‘lgan ichki aloqadorliklar ifodasıdir. Umumiy qonunlar narsa va hodisalarining katta majmualari o‘rtasidagi aloqadorliklarni anglatadi.

Eng umumiy qonunlar esa tabiat, jamiyat va tafakkurdagi barcha aloqadorliklar, o'zgarishlar va taraqqiyot murvatlarini anglab olish, voqealar rivojining piravord oqibatlarini oldindan faxmlash imkonini beradi. Bu qonunlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- a) narsa va hodisalarni har tomonlama va o'zaro munosabatda taxlil etish tamoyili;
- b) narsa va hodisalarni o'zaro aloqada va bir-birini taqozo etishda olib qarash bilan birga ularning doimiy harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda olib qarash tamoyili;
- v) narsa va hodisalarni paydo bo'lish, rivojlanish va yo'q bo'lish (boshqa narsaga aylanish) jarayonida ko'rish tamoyili;
- g) har qanday narsa va hodisani taxlil etishda unga konkret tarixiy nuqtai nazardan yondashish tamoyili.

2-masala. "Dialektika" so'zi grekcha bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi suxbat qurish, baxslashish san'ati, demakdir. Tarixan bu tushuncha bilishning bir uslubi, shuningdek ta'lilot sifatida talqin qilib kelinadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari, jumladan Abu Nasr Forobiy, Aflatun va Arastuning bu masalaga yondashuvlarini taxlil etar ekan, dialektikaga bilishning bir uslubi (metodi) va baxs san'ati sifatida yondashgan. Nazarimizda, dialektikaga shunday yondashish to'g'ri bo'ladi. Agar unga alohida ta'lilot (nazariya) sifatida yondashsak, ta'lilot (falsafa) ichida ta'lilot yaratib, falsafa fanining qadriga ma'lum darajada putur yetkazgan bo'lamiz. Binobarin, yalpi umumiy qonunlarni taraqqiyot va o'zgarishlar to'g'risidagi qonunlar sifatida falsafa fani qonunlari deb atash to'g'ri bo'ladi*.

Miqdor va sifatning o'zaro bir-biriga o'tish qonunini anglash uchun miqdor, sifat, me'yor, xossa kategoriyalarini bilish lozim. Miqdor narsa va hodisalar muayyan miqdori chegaralariga ega bo'lishini anglatadi, ya'ni ma'lum bir narsa (butunlik)ga muayyan miqdor xos bo'lib, narsadagi ayrim miqdoriy xossalar me'yor doirasida

* "Falsafa" va "falsafa fani" tushunchalaridagi syniyat va tafovutni anglab, munosaba bildirish muhimdir. "Falsafa" biron-bir falsafiy qarash, falsafiy oqimni anglati, "falsafa fani" tushunchasi barcha falsafiy qarashlar, nuqtai nazarlar sintezi sifatida yalpi umumiy tasnifga egadir. Masalan, Aristotel falsafasi, Forobiy falsafasi, Gegev falsafasi, Marks falsafasi kabi iboralar bitta shaxsingan olamga, odamga, jamiyatdagi munosabatlarga individual yondashushi natijasi bo'lsa, falsafa fani barcha shu kabi individual yondashuvlarni umumleshtirib, fan xoliga kelganini anglatadi.

ko‘payib yoki ozayishi uning sifatiga jiddiy putur yetkazmasligini anglatadi. Me‘yor narsa va hodisada o‘z sifatini saqlab qoladigan miqdoriy chegara, o‘lchovdir. Me‘yor narsaning sifati bilan bog‘liq jarayondir. Olamdagi har qanday narsa paydo bo‘lish, rivojlanish va yo‘q bo‘lish jarayonida ekan, albatta u miqdoriy o‘zgarishlarni boshidan kechirib turadi. Ammo harakatning ma‘lum bir bosqichida miqdorning me‘yordan ortiq yoki kam holatga tushishi narsa sifatini o‘zgartirib yuboradi, u boshqa sifat (holatga) o‘tadi. Bu esa qonuniyatdir. Biroq harakat, taraqqiyot davom etadi. Bu qonun tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Miqdorning ko‘payishi yoki ozayishi me‘yordan o‘tsa, narsa sifatini o‘zgartiradi, ya’ni sifatdagi narsa va hodisa miqdorning ko‘payishi yoki ozayishiga sabab bo‘ladi.

Narsalar sifati ularning xossalari orqali namoyon bo‘ladi. Xossa narsa sifatining boshqa narsa bilan o‘zaro aloqadorligidagi tashqi namoyon bo‘lishidir. Har bir narsa asosiy va noasosiy xossalarga ega bo‘ladi. Masalan, metall zichlik, siquvchanlik, issiqlik o‘tkazuvchanligi, cho‘ziluvchanlik xossalariiga ega. Sifat narsaning barcha xossalarni birgalikda bog‘lovchi butunlikdir. Sifat o‘zgarishi xossalarning o‘zgarishiga olib keladi, ammo narsadagi ayrim xossalarning o‘zgarishi sifatga putur yetkazmaydi. Sifat narsa va hodisaning doimiyligi, barqarorligi ifodasidir.

3-masala. Ilgari qarama-qarshiliklar birligi va kurashi deb atalgan qonunni dialektik ziddiyatlilik qonuni deyish ma‘quil. Chunki ziddiyat yalpi umumiylashtirishiga ega, qarama-qarshilik esa ziddiyatlilikning faqat bir tomoni, uning namoyishkorona ko‘rinishidir.

Narsalarni doimo harakatda, o‘zgarishda, tomonlarning o‘zaro ta’sirida olib qaralgandagina ularning negizida ziddiyat borligi ayon bo‘ladi. Har qanday narsa vujudga kelgandan boshlab o‘z ichki ziddiyatliligi tufayli barqarorlik va beqarorlik holatini boshidan kechirib turadi, shuning uchun ular abadiy mavjud bo‘lmaydi. Barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar bir butun ichidagi qarama-qarshi tomonlar, mayllar, jihatlarning bir-birini taqozo etishi va ayni chog‘da bir-birini istisno qilishi holatida mavjuddir. Tomonlarning biri bo‘lmasa, ikkinchisi ham bo‘lmaydi.

Binobarin, bunday holatda narsaning o‘zi yo‘q, demakdir. Biroq, narsaning o‘zini tashkil etgan fizikaviy-kimyoviy unsur (element)lar qoladi, ular boshqa shakllarga kiradi.

Ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat kategoriyalari orqali dialektik ziddiyatlilik qonunini anglab olish mumkin. Ayniyat tafovut laxzasini o‘zida jo etgan holatdir. Narsaning bir xilligi, o‘xhashligi uning aynan emasligi – tafovuti borligini anglatadi. Tafovut na faqat boshqa narsaga nisbatan, balki narsaning o‘z-o‘ziga nisbatan ham tafovut sifatida namoyondir. Demak, narsa ayniyat va tafovutlar birligidan iboratdir.

Qarama-qarshilik har qanday butunlikning ajralmas xossasi bo‘lib, ziddiyatlilikning ko‘rinishlaridan biridir. Ziddiyatlilikning shu ko‘rinishi tufayli narsalar o‘zidan-o‘zi harakatda, mavjudlikdadir. Masalan, atomlardagi musbat va manfiy zaryadlar, mikro va makrojismlardagi o‘zaro markazga intilish va markazdan qochish, narsalarda barqarorlik va beqarorlik-harakat manba’laridir.

Ziddiyatlilik hamma narsa, hodisa va jarayonlarga xos. Ichki va tashqi, asosiy va noasosiy, bosh va bosh bo‘limgan, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar bo‘ladi. Uyg‘unlik nouyg‘unlik holatiga o‘tgach (kelisha olmaslik), konflikt yuzaga kelib, antagonizmga aylangach, u qarama-qarshi tomonlarga og‘ib ketadi. Masalan, oila, etnik, diniy zamindagi ziddiyatlar qarama-qarshi tomonga ajralib ketsa, katta mojaralar kelib chiqarib, ilgarigi butunlik o‘zining qarama-qarshi tomoniga aylanib ketadi. Masalan, oila ijtimoiy birlik shakllaridan biridir. Unda ziddiyatlar bo‘lishi muqarrar. Agarda oila birligini mustahkam turishidagi ma’suliyatini anglagan individlar bo‘lsa, undagi ziddiyatlar qadamba-qadam bartaraf etib borilib, butunlik saqlanib qoladi. Aks holda ziddiyatlar o‘zining qarama-qarshi tomoniga og‘ib ketadi va butunlik yo‘q bo‘ladi. Tabiat-jamiyat-inson o‘rtasidagi ziddiyatlar ba’zan antagonizmga og‘ib ketayotgani yomon oqibatlarga olib kelmoqda.

4-masala. Inkor va vorislik kategoriyalari orqali inkorni inkor qonunini tushunib olish mumkin. Dialektik inkorning oddiy muloqotdagи inkordan tub farqi shuki, u taraqqiyotning zarur jihatи bo‘lib, eski o‘rnida paydo bo‘layotgan yangi narsada vorislik saqlanishini taqoza etadi va shu vorislik tufayli yangi rivojlana oladi.

Voqelikda to‘la va to‘la bo‘lImagen inkorlar mayjud. Inkor to‘la bo‘lganda narsa o‘zining qarama-qarshi tomoniga og‘ib ketadi va yangi sifatdagi narsa hosil bo‘ladi. To‘la bo‘lImagen inkorda narsa asosan o‘z sifatini saqlaydi.

Vorislik narsa va hodisada, shuningdek, bilishda yangi bilan eski o‘rtasidagi ob‘yekтив zaruriy bog‘lanishni anglatadi. Vorislikka e’tiborsiz qarash ijtimoiy hayotda yomon oqibatlarga, larzalarga olib keladi.

Har bir narsa va hodisa o‘zini-o‘zi inkor etish jarayonida mavjud bo‘lib, natijada taraqqiyot sodir bo‘ladi. Inkorning yangi bosqichi bo‘lishi uchun quyi bosqich sharoit xizmatini o‘taydi. Inkorning 2-bosqichida taraqqiyot yuz beradi. Shuning uchun bu qonun inkorni inkor deb ataladi. Inkorni inkor qonunida ilgarilab, yuqorilab harakat mayli ustivordir, ya’ni soddaning murakkabga, quyining yuqoriga o‘tish mayli yetakchidir. Biroq, inkorni inkorda taraqqiyot bir chiziqli, tekis shaklda emas, balki orqaga qaytish, yonboshta ketish, tanazzul holatida bo‘lish shaklida ham ro‘y beradi. Har qanday sharoitda ham taraqqiyot inkorni inkor tufayli o‘ziga yo‘l ochib oladi.

Demak, taraqqiyot falsafiy inkorlarning benihoya davomiyligidan iborat bo‘lib, bu inkorni inkorda o‘zidan burungi har bir bo‘g‘inlarni faqat rad etib qolmay, balki eskidagi ijobiy jihatlarni o‘zida saqlab qola olgani uchun taraqqiyot sodir bo‘ladi. Inkorni inkor qonuni notirik va tirik tabiatda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi; moddiy sistemalarning o‘zidan-o‘zi tashkillanishi va boshqarilishi to‘g‘risidagi sinergetik qarashlar inkorni inkor qonunida o‘z ifodasini topgan.

Xulosa: a) qonun narsa va hodisalardagi ob‘yekтив ichki muhim, yalpi umumiy, zaruriy, barqaror aloqadorliklar ifodasidir; b) narsa va hodisalarda miqdoriy o‘zgarishlar ko‘payib yo ozayib, yangi sifatlar hosil bo‘ladi, bu o‘z navbatida miqdorning ko‘payishi yoki ozayishiga sabab bo‘ladi; v) narsa va hodisalarning o‘z ichidagi ziddiyat tufayli harakat sodir bo‘ladi; g) taraqqiyot falsafiy inkorlarning benihoya davomiyligidan, uzlusizlikning uzlukliligidan iboratdir.

Reja:

Kirish so'zi

- 1.Falsafiy kategoriyalar va ularning boshqa fan kategoriyalaridan farqi.
- 2.Olamdag'i umumiy aloqadorlikni ifodolovchi kategoriyalar.
- 3.Narsa va hodisalar tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar.
- 4.Narsa va hodisalar o'rtasidagi sababli bog'lanish (determinizm) ni anglashga imkon yaratuvchi kategoriyalar.

Xulosa.

Materianing xilma-xil ko'rinishlarida namoyon bo'ladigan olam hodisalari, ular o'rtasidagi o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va albatta taraqqiyot in'ikosi falsafaning juft kategoriyalarida~~da~~ στ ifodasini topadiki, ushu va'z ana shu qonuniy bog'lanishlarni tushunib olishga yordamlashadi.

1-masala. «Kategoriya» yunoncha so'z bo'lib, u «guvoh», «ta'rifi», «ifoda» degan lug'aviy ma'nolarga ega. Ularning falsafiy ma'nosi esa ob'yektiv olamdag'i narsa, hodisalardagi umumiy va muhim bog'liqliklar, munosabatlar ifodasidir. Falsafiy kategoriyalar boshqa fanlar kategoriyalaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, ular ob'yektiv olamdag'i eng umumiy qonuniyatli aloqadorliklar in'ikosidir. Ikkinchidan, falsafiy kategoriyalar ob'yektiv olamning eng umumiy va muhim tomonlarini ifodalabgina qolmay, bilish bosqichlari va tayanch nuqtasi ham hisoblanadi. Uchinchidan, ular olamdag'i narsa va hodisalarni ilmiy bilish uchun metodologik asos bo'ladi. Falsafiy kategoriyalar bir tomonдан, narsalarning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishga yordam beradi, ikkinchi tomondan ob'yektiv dunyodagi narsa va hodisalar haqida yangi bilimlar olish va to'plashga sabab bo'ladi. To'rtinchi tomonidan falsafiy kategoriyalar shakllanishi asosida inson va uning uyushmalari barcha faoliyatining yig'indisi bo'lgan amaliyot yotadi va ayni chog'da ular amaliyot yo'lini yoritadi. Beshinchidan, boshqa fanlar kategoriyalari tabiat, jamiyat va tafakkurga xos bog'lanishlar, aloqadorliklarning muayyan bir

sohasini ifodalasa, falsafiy kategoriylar ob'yektiv olamdag'i eng umumiy aloqadorliklar, o'zaro bog'liqliklar va o'zaro ta'sirlarni aks ettiradi.

Falsafiy kategoriylar ilmiy bilish metodologiyasi, ma'lum narsadan noma'lum narsaga o'tish natijalarini izlab topish uslubidir. Bu kategoriylar mayjud narsalar moxiyatini bilishnigina emas, shu bilan birga, ularning istiqbolda o'zgarish va rivojlanish yo'nalishlarini ham anglab olish imkoniyatiga ega qiladi.

Falsafa fanining juft kategoriylari olamdag'i ziddiyatl'i va sababli bog'lanishlar, o'zaro ta'sir va takozolarni ifodalash hususiyatiga qarab ularni shartli ravishda quyidagi uch turkumga ajratish mumkin.

2-masala. 1-turkum. Ayrimlik, xususiylik va umumiylit hamda mohiyat va hodisa kategoriylari olamdag'i umumiy aloqadorliklar ifodasidir.

Fazo va vaqtida bir-biridan chegaralangan, individual sifat va miqdor muayyanligiga ega bo'lgan narsa va xodisalar ayrimlik kategoriyasida ifodalanadi. Umumiylit esa narsa xossalari va munosabatlari o'rtasidagi o'xshashlik, bir butunlikni anglatadi. Ayrimlik bilan umumiylitni go'yo bog'lovchi sifatida xususiylik mayjud bo'ladi. Bu kategoriyanı bilish ilmiy tadqiqotlarda ham, ijtimoiy hodisalarни anglashda ham xatoliklar, adashishlardan saqlaydi. Masalan, dinga umumiylit tushuncha, islomga xususiy tushuncha, vaxxobiylilikka ayrim tushuncha sifatida qaralsa, bir xil munosabat bo'ladi, maboda vahxobiylilik ideallashtirilib, unga umumiylit sifatida qaralsa, boshqacha, g'ayriilmiy munosabatlar vujudga kelib, odamlar, ularning ijtimoiy uyushmalari faoliyati noto'g'ri izga tushib ketadi. Bu kategoriylar birgalikda va bir kontekst (matn)da olib qaralgandagina to'g'ri xulosalar chikarishga imkon tug'diradi.

Mohiyat olamdag'i narsa va xodisalar o'z ichida pinhon bo'lgan (yashiringan) eng muxim, eng zarur va nisbatan barqaror aloqadorliklar, munosabatlar birligi ifodasidir. Moxiyat yalpi umumiy aloqadorlik ifodasi sifatida konuniyatga teng keladi.

Hodisa mohiyatning tez o'zgaruvchan, harakatchan va turli shakllarda namoyon bo'ladigan tashqi tomoni bo'lib, ularni o'rganish jarayonida narsaning moxiyatini anglab olamiz. Masalan, tarixda organizmlar xilma-xil shakllarda, xossalarda namoyon bo'lsa-da, ammo ularning mohiyati modda almashinuvdir.

Tovushlar juda ko‘p, ammo ularning mohiyati tebranuvchan taranglikning biror ta’sir ostida harakatga kelishidir. Ilm-fan, inson kuzatuvlari va tajribasi narsa va hodisalardagi mohiyatni topishga qaratilgan bo‘lib, bunga ularning tashqi tomonidan oson ilg‘ab olinadigan hodisalarini orqali erishiladi. Mohiyat va hodisa aloqadorligida mohiyat belgilovchi va hodisa belgilanuvchi, mohiyatdan kelib chiquvchidir.

3-masala. 2-turkum. Mazmun va shakl hamda butun,qism element,sistema va struktura kategoriyalari. Narsa va hodisalar sifatini ifodalovchi ichki jarayonlar, muhim unsurlar bir butunligi yig‘indisi mazmundir. Shakl esa mazmunning mavjudlik, namoyon bo‘lish va taraqqiy etish, uning tuzilishini ifodalash usulidir. Har bir narsa mazmun va shakl birligidan iboratdir. Ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish xatoliklarga olib keladi. Masalan, sobiq Sho‘rolar davrida shaklni mazmundan ustun ko‘yish formalizm va aqidaparastlikka olib keldi. SHaklni mazmunning soyasida qoldirish ijtimoiy hayotda tartib-intizomning izdan chiqaradi, anarxiya va lo‘ttibozlikka sabab bo‘ladi.

Butun, qism, element, sistema, struktura kategoriyasi olamdagি narsa va hodisalar ichki va tashqi tomonidan tartibli tuzilishi, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi va bir-birini taqoza etishini anglatadi.

Butun narsa va xodisa uni tashkil etgan qismlardan iborat yagonalikdir. Butun qismlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ularning muayyan tartibda tashkillanishi va ichki o‘zaro bog‘liqligi ifodasidir. Qism butun tarkibiga kiradigan, uning doirasidagina o‘z vazifasi (funksiyasi)ni bajara oladigan alohidalikdir. Qismlar ham o‘z navbatida ma’lum element (unsur)lardan tashkil topadi. Sistema butunlik jismlarining tartibli tarzda joylashuvini ifodalaydi. Sistema tarkibidagi har bir kism va element o‘z vazifasi (funksiyasi)ni maromli bajarish uchun ular albatta o‘z ‘ornida turib strukturani tashkil etishi shart. Struktura (tuzilish) butunni tashkil qilgan kism va elementlarning tartibli bog‘lanishi, butun doirasidagi ular munosabatlarining o‘zaro taqozasidir. Element va struktura qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi. Elementlar o‘zgaruvchan, struktura esa turg‘unlik, o‘zgarmaslikka moyil bo‘ladi. Masalan, koinot, quyosh, odam, atom yoki har qanday qurilma qism va

elementlarning muayyan tartibli tuzilishiga ega bo'lib, har bir kism va element o'z o'rnda turib, bir butunlikni hosil etishi kerak. Masalan, quyosh, yer, odam.

Yuqoridagi ikki juft kategoriya narsa va hodisalar tuzilishi, ularning mazmun va shakl jihatidan yaxlitligini anglatadi.

4-masala. 3-turkum. Sabab va oqibat; zaruriyat va tasodifiyat; imkoniyat va voqelik narsa va hodisalar o'rtasidagi sababli bog'lanish (determinizm)ni anglab olishga imkon beradi.

Sabab deb muayyan shart-sharoitlarda boshqa bir narsa, hodisani yuzaga keltirgan yoki o'zgartirgan narsa yoki harakat ta'siriga aytildi. Sababiyat shunday ichki aloqadorlikki, bu aloqada har safar bir hodisa bo'lganda, muqarrar ravishda ikkinchisi uning oqibati sifatida ro'y beradi. Masalan, infektsiya tushsa, kasallik sodir bo'ladi, talaba yalqov bo'lsa, fanlarni o'zlashtira olmaydi.

Sababni bahonadan va sharoitdan farqlash lozim. Bahona biron oqibatning yuzaga kelishiga bir turki bo'ladi, ammo uni belgilamaydi. Masalan, ba'zi diniy ekstremistlar ma'naviyatni faqat islom bilan bog'lashlari sabab emas, balki o'z qarashlarini zo'rlik bilan hayotga singdirish uchun bahonadir. Sabab va oqibatga uni qurshab turgan hodisalar ta'sir o'tkazadi, bularning yig'indisi sharoitdir. Sharoit ayni bir voqeanning boshlanishi uchun zarur bo'lsa-da, lekin u o'z holicha oqibatni keltirib chiqarmaydi.

Zaruriyat narsa va hodisalarning ichki mohiyati bilan mustahkam bog'liq bo'lib, bu mohiyatdagi qonuniy aloqadorliklar, strukturaviy tartibga egalikni ifodalaydigan va muayyan sharoitda muqarrar ravishda ro'y beradigan yoki ro'y berishi lozim bo'lgan napsa va hodisalarni anglatadi. Masalan, tirk organizmlarda modda almashinuvni.

Zaruriyatning ichki va tashqi, umumiy va ayrim, dinamik va statistik turlari mavjud.

Tasodifiyat muayyan narsa va xodisaning bevosita ichki mohiyati, muqarrar qonuniy aloqadorligidan emas, balki uning tashqi, beqaror, noizchil, anglanishi qiyin bo'lgan o'tkinchi aloqadorliklar va munosabatlardan kelib chiqadi. Masalan, bir xil

sharoitda o'qiyotgan talabalarning turlicha darajada ilm olishi tasodifdir. Ammo tasodiflarda ham qandaydir uzoq aloqadorliklar bo'ladi.

Imkoniyat va vogelik ob'yektiv va sub'yektiv tasnifga ega bo'lgan ichki va tashqi aloqadorliklar, o'zaro ta'sirlar ifodasidir. Imkoniyat ob'yektiv vogelikda potentsial (ehtimollik) darajasida mavjud bo'lgan, taraqqiyot jarayonida va muayyan shart-sharoitlarda ro'yobga chiqadigan mumkinlikdir. Masalan, olovdan foydalanishning boshlanishi, g'ildirakning kashf etilishi va h.k.

Vogelik harakat va taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan narsa va xodisadir. Demak, vogelik amalga oshgan, o'zini namoyon etgan imkoniyatdir. Muhim va nomuhim, qaytariladigan va qaytarilmas, mavhum va real imkoniyat turlari mavjud.

Ehtimollik tushunchasi imkoniyat va vogelik chegaralarini anglashga yordam beradi. Ehtimollik imkoniyatni qidirishda qidoriy o'lchovidir. Imkoniyat mavjud bo'lgan chegara ehtimollik bilan tafsiflanadi; u imkoniyatni va ehtimollikni mutloq aniq miqdorlarda ifodalashi mumkin emas. Shuning uchun «taxminan», «oz imkoniyat», «ko'p imkoniyat», «teng imkoniyat» iboralari qo'llaniladi. 0 va 1 imkoniyat ikkalasi bo'lib, ma'lum bir vaqtida u to'la imkoniyat, boshqasida umuman yo'q imkoniyat bo'lishi mumkin.

Xulosa: a) falsafaning juft kategoriyalari olamdagi eng umumiyoq aloqadorliklar, bog'lanishlar, o'zaro ta'sirlar va taraqqiyot murvat (mexanizmlari in'ikosidir; b) ularni uch turkumga ajratish mumkin: 1) olamdagi umumiyoq aloqadorliklarni ifodalovchi kategoriylar; 2) narsa va hodisalar tuzilishini aks etgiruvchi kategoriylar; 3) narsa va hodisalar o'tasidagi sababli bog'lanish (determinizni) anglashga imkon yaratuvchi kategoriylar.

S-mavzu. METODOLOGIYA – OLAMNI ILMIY BILISH USLUBLARI HAQIDAGI TA'LIMOT

Reja:

Kirish so‘zi.

1.Olamni falsafiy bilishda tarixan shakllangan dogmatik, sofistik, eklektik, metafizik, sinergetik uslub (metod)lar.

2.Dialektik uslub va tadqiqot tamoyillari.

3.Ilmiy bilishning empirik darajasida qo‘llaniladigan uslub (metod)lar.

4.Ilmiy bilishning nazariy darajasida qo‘llaniladigan uslub (metod)lar.

Xulosa.

Ushbu va’z (leksiya)da olamni falsafiy bilish, idrok etish yo‘lida tarixan shakllangan bilishning uslub (metod)lari hamda tadqiqot tamoyillarini anglab olish mumkinki, bu—har qanday soha mutaxassisi uchun ham amaliy, ham nazariy axamiyatga egadir.

1-masala. Inson miyasining mavhumlashtirish qobiliyati natijasi bo‘lgan tafakkur jarayonlarini anglab olishda uslub (metod) tushunchasining mazmunini bilib olish lozim. Uslub, ya’ni metod yunoncha «methodos» so‘zidan olingan bo‘lib, u odatda tadqiqot yo‘llari, nazariya, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Tadqiqot uslublari aniq fanlarda va falsafa fanida o‘ziga xos hususiyatlarga egaki, ularni bir-biri bilan aralashtirish mumkin emas. Aniq fanlarda ishlataladigan tadqiqot uslublari ilmiy bilish metodlari turkumiga kiradi. Falsafa fanida uslub tushunchasi keng ma’noda olamni falsafiy anglash tafakkur tarzi mantiqi, konun-koidalari, tamoyillari, shakllari ifodalansa, tor ma’noda falsafiy bilimlarni xosil etish vositalari tushuniladi.

Metod bilish jarayonida amal qilinadigan tamoyillar, yondashuvlar, qoidalar, talablar tizimidir.

Metadologiya ilmiy bilishning birqator sohalariga umumi yondashuv tamoyillari tizimidir. Falsafiy metadologiya dunyoqarash (ontologiya), gnoseologiya (bilish) hamda tafakkur tarzining o‘ziga xos xususiyati bilan uzviy bog‘lanib ketadigan yalpi umumi yondashuvlar tizimidir.

«Tafakkur uslubi» va «ilmiy tafakkur uslubi» tushunchalari bor. Ko‘p xollarda «tafakkur uslubi» «o‘rganish uslubi», «yondashish uslubi»ning sinonimi sifatida qo‘llaniladi. SHu ma’noda muayyan muammoga yondashish, o‘rganish uslubi sifatida tarixan bilishning metafizik, eklektik, sofistik, dogmatik va dialektik uslublari mavjud bo‘lgan. Endilikda ilmiy bilishning sinergetik uslubi ilmiy muloqotga kiritildi.

Ilmiy bilishning aoosiy maqsadi tabiatdagi, jamiyatdagi, inson ruxiy olamidagi xodisalar mohiyatini bilishdan iborat. Shu maqsad yo‘lidagi izlanishlar tufayli, tabiiyotshunoslik negizida ilmiy bilishning metafizik uslubi tarkib topdi. Bu uslubda tabiatdagi narsalarni bir-biridan ajratgan, harakatsiz holda o‘rganilib, ana shu o‘rganilayotgan ob‘yektning ichki jixatlarini bilib olishga asosiy e’tibor qaratiladi. Tabiiyotshunoslik, texnikashunoslik fanlarida bu metoddan foydalanib kelinadi. Chunki bu sohalarning izlanuvchilari ayrim-ayrim narsalardagi ichki aloqadorliklarni o‘rganishga asosiy e’tiborni qaratib, natijador narsalarni vujudga keltiradilar.

Olamdagi narsa, xodisalar doimo harakatda, bir holatdan boshqa xolatga o‘tish jarayonini boshidan kechirib turadi. Falsafiy bilishda bu xol o‘z ifodasini topishi kerak, albatta. SHuning uchun falsafadan va ijtimoiy-gumanitar fanlardan natijador maxsu‘ni talab etish o‘rinsizdir. Bilishning metafizik uslubi qadimda va O‘rta asrlarda falsafada ham qo‘llab kelingan. Ammo olamdagи muqarrar o‘zgarishlarni bu uslub yordamida to‘lasicha qamrab olib bo‘lmaydi.

Sofistik tafakkur tarzi asosida shakllangan bilishning sofistik metodidan qadimgi dunyodan to hozirgacha foydalanib kelinadi. Antik dunyoda notiq va donishmand odamlarni sofistlar deyishgan. Biroq, ba’zilar sofistik metod orkali haqiqat niqobi ostida rost bilimlarni yolg‘ondakam bilimlar bilan almashtirishga urinib keladilar. Forobiy shuning uchun xam «suf» — donolik, «istiyas» — yolg‘on, ya’ni «yolgon donolik» deb sufiylik tafakko‘r tarzi va metodini qoralagan. Sofistlar tabiiy tildagi omonimiya, amfiboliyalardan foydalanib, odamlar e’tiborini haqiqiy bilimdan chalg‘itadilar. F. Bekon ta’biri bilan aytganda, sofistlar haddan tashkari maxmadonadirlar, amalda ulardan hech qanday naf yo‘q. Bizning davrimizda

vahhobiylar, hizbut-tahrirchilar, akromiylar va boshqa mazxablar sofistik metoddan foydalanib, odamlarni, ayniqsa ayrim yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmoqdalar.

Bilishning eklektik metodidan ham foydalanadilar. «Eklektika» yunoncha suz bo'lib, «tanlayman» degan ma'noni anglatadi. Eklektiklar muhim va nomuhim, asosiy va noasosiy bog'lanishlar, aloqadorliklar o'rtaсидagi farqni hisobga olmay, narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlarini bir-biriga qorishtirib yuboradilar. Falsafa fani nuqtai nazaridan, ob'yektiv dunyodagi narsa va xodisalar o'zaro aloqada va munosabatda bo'lib, ular tarixan aniq (konkret) bog'lanishlar va doimiy harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'lar ekan, bunda ichki va tashqi bog'lanishlar, o'zaro ta'sir va aks ta'sirlarning farqiga bormaslik bilishning eklektik uslubining cheklanganligidan dalolatdir.

Bilishda tarixan dogmatik uslub ham qo'llab kelinadi. Dastavval bu uslub yordamida faylasuflar barcha narsaga shubxa bilan qarovchi (skeptiklar)ga qarshi kurashganlar. Chunki bu uslubga ko'ra, haqiqatligini shubha ostiga olish mumkin emas, deb hisoblangan tushunchalar yordamida olam xodisotlariga munosabat bildiriladi. Ilm-fanning ma'lum bir sohasida etarli bilimga ega bo'lmagan individlar, o'zları buni sezmag'an holda yoki mafkuraviy ta'zyiq ta'sirida, dogmatik uslub yordamida tadqiqot olib borishadi. Zamon va makondagi o'zgarishlarni e'tiborga olmay, o'zgarmas (aqida) deb hisoblangan tushunchalar bilan bilishga intiluvchilarni odatda dogmatiklar, ya'ni aqidaparastlar yoki harfxo'rlar deyish rasm bo'lgan.

Bilishning dogmatik uslubidan dinlarda keng foydalanib kelinadi. Chunki muqaddas diniy kitoblardagi g'oyalar, fikrlar, nuqtai nazarlar ilgari qanday ifodalangan bo'lsa, aynan o'shandayicha talqin etish dogmatik uslubda fikrashni taqoza etadi. Ayni chog'da bu uslubdan ilmiy va falsafiy izlanishlarda foydalanish amaliyoti borligidan ko'z yummashlik lozim. Masalan, sobiq Sho'rolar davrida kommunistik partiya Markaziy qo'mitasi, Siyosiy byurosi, uning birinchi rahbari aytgan so'zlar, mulohazalar, qarorlar negizida fikrash talab qilinardi. Ya'ni, ko'zga ko'ringan olimlar, tadqiqotchilar ham yuqorining qarori doirasida fikrash, mulohaza yuritishga majbur edilar. Bunday yondashuv ilm-fan taraqqiyoti va umuman ijtimoiy amaliyotda turg'unlikni yuzaga keltirdi. Ijodiy fikrash go'yoki jilovlab qo'yildiki,

oqibatda ilgarigi ijtimoiy taraqqiyot tanazzulga yuz tutdi, bu tarixiy xatolik boshqacharoq shaklda yana takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

XX asrda fanda sinergetik uslub tushunchasi paydo bo'ldi. Sinergetika yunoncha so'zdan olingen bo'lib, u xamkorlik, ta'sir o'tkazish ma'nolarini anglatadi. Sinergetik yondashuvlar ochiq sistemalardagi tartibga tushmagan, beqaror, noteng, chiziksiz munosabatlarni tadqiq etishda qo'l keladi. Notenglik vogelikdagi barcha jarayonlarning tabiiy holati ekan, demak, o'zini-o'zi tashkillash notenglik jarayonlarining tabiiy intilishini anglatadi. Bu uslub tabiat va jamiyatdagi tartibsiz xolatlar kanday qilib o'zidan-o'zi tartibga tushishini anglab olish imkonini beradi. Olamni falsafiy bilishga yordam beradigan bu uslubni ideallashtirib, uni dialektik uslub o'rniqa qo'yish ham, bu uslub faqat tabiiyotshunoslik fanlari uchun e'tiborli deb qarash ham xatodir. Sinergetik uslubni o'z o'mida qo'llash vogelikdagi tartibsiz xolatlarning o'zidan-o'zi tartibga tushish qonuniyatlarini bilib olishga yordam beradi.

2-masala. Olamni bilishning dialektik tafakkur uslubiga vatandoshimiz Zardusht asos solgan. Uning fikricha, olamda ikki qarama - qarshi kuch (rux) o'rtaida abadiy kurash boradi. Ezgulik ruhi yovuzlik ruhi ustidan g'alaba qozonishida imonli (A'lo) odamlarning harakati, faoliyati katta o'rin tutadi. Eramizdan oldingi V-IV asrlarda kadimgi Yunonistonda dialektika ham bilish metodi, xam haqiqatni topish uchun baxs san'ati deb ta'riflanganini Forobiy ta'kidlaydi. Hozirgi ilmiy falsafaning asosiy metodi dialektikadir. U narsa va xodisalarning moxiyatini, ularning bir-biri bilan aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy qonunlar, kategoriylar, tamoyillar yordamida ohib berish bilan boshqa metodlardan farq qiladi.

Yuzaki qaraganda olamda narsa va hodisalar qandaydir alohida-alohida, bir-biriga bog'lanmagandek va go'yo harakatsizdek tuyuladi. Aslida ular bir butun borliqning ayrim-ayrim holda ko'ringan narsa va xodisalari bo'lib, doimiy harakatda va bir xolatdan boshqa xolatga o'tishdadir. Bilishning dialektik uslubida narsa va hodisalar o'zaro aloqada va bir-birini taqoza etishda, ayni vaqtida ular doimiy harakatda, o'zgarishda va bir holatdan boshqa xolatga o'tishda olib qaraladi. Olam

hodisalariga bunday yondashuv odamni, tadqiqotchini adashuvlardan, yanglishuvlardan saqlab, dunyoning chinakam ilmiy manzarasini vujudga keltiradi.

Dialektik mantik formal mantiq bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat o'ziga xos tamoyillari bilan ajrab turadi. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki, falsafa fanida dunyoqarash bilan uzviy bog'lanib ketgan yalpi umumiy metodda tadqiqot olib boriladi. Binobarin, dialektik uslubning tamoyillari ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu tamoyillarni ikki guruhga bo'lish mumkin: a) ob'yektivlik, sistemalilik, tarixiylik va dialektik ziddiyatlilik tamoyillari; b) mavhumlikdan aniq (konkretlik)ka ko'tarilib borish, mantiqiylik va tarixiylik birligi tamoyillari.

Bilishning dialektik metodi ana shu tamoyillarga tayangan holda olamni ilmiy - falsafiy anglash imkoniyatini voqelikka aylantiradi va jamiyatda ma'naviyatni qaror toptirishning kudratli vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

3-masala. Falsafa o'z tadqiqot soxasiga ega bo'lган, binobarin, falsafa fani yo'nalishida tadqiqot o'tkazuvchilar ilmiy bilishning boshqa fanlar foydalanadigan uslublariga ham tayanadilar.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari bo'ladi. Avvalo ilmiy bilishning empirik darajasida qo'llaniladigan metodlarni ko'rib chiqaylik. Ilmiy bilishning empirik (tajribaga asoslangan) daroji individlarning zarur extiyojlarini qondirish jarayonida ularning kundalik tajribalari negizida qo'Iga kiritadigan dalillar, ma'lumotlarga tayangan xolda olamdag'i, tevarak-atrofdagi xodisalarni bilish, ularga munosabat bildirishga asoslanadi. **Kuzatish, o'Ichash, chamlash, taqqoslash, eksperiment (ilmiy tajriba)** kabi uslublar ilmiy bilishning empirik darajasida qo'llaniladi.

Kuzatish—voqelidagi narsa va hodisalarni muayyan, aniq maqsadga qaratilgan uslubidir. Kuzatish bevosita (asbobsiz) va bilvosita asbob-uskunatlardan foydalanish asosida bo'lishi mumkin. Tadqiqotning xususiyatidan kelib chikib, izlanuvchi har ikkisidan ham o'z o'rnila foydalanadi.

O'Ichash—bilish jarayonida narsaning miqdor, xajm muayyanligini aniqlash uslubidir. Bunda narsaning xossalari, boshqa predmetga nisbatlari aniqlanadi.

Chamalash—narsa va xodisalarning taxminiy parametrlarini aniqlab, ma'lum bir harakat yunalishini belgilash uslubidir. Bunda tadqiqotchining o'zi tanlagan ixtisosi, o'rganayotgan ob'yekti haqida to'plagan bilimlari darajasiga qarab, uning chamalashi narsaning haqiqiy holatiga yaqin kelishi yoki kelmasligi mumkin.

Taqqoslash—tadqiqot olib borish nazarda tutilgan ob'yektning boshqa ob'yektga o'xshash va farqli tomonlari, ular o'rtaqidagi aloqadorliklar, munosabatlarni o'rganish uslubidir. Taqqoslash uslubi yordamida tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan ob'yektning aniq holatini bilib oladi.

Eksperiment—kuzatishning yuqoriroq darajasi bo'lib, uning yordamida tadqiqotchi ob'yektga faol ta'sir ko'rsatadi. Sun'iy sharoitlar yaratish orqali tabiiy sharoitda kuzatish bilan hosil etish mumkin bo'limgan bilimlar yuzaga keladi. Eksperiment fikri va ashyoviy bo'lishi mumkin.

4-masala. Ilmiy bilishning nazariy darajasi fan yordamida to'plangan ilmlar asosida olamdagи narsa va hodisalar mohiyatini anglashga qaratilgan bo'ladi. Bunda inson tafakkurining mavhumlashtirish (abstraktsiyalash) qobiliyati ishga tushadi. Ilmiy bilishning nazariy darajasida **analiz** va **sintez**, **induktiv** va **deduktiv**, **analogiya**, **ideallashtirish**, **modellashtirish**, **tizimlash** (sistemalash), **mavhumlik** va **aniqlik** (konkretlilik), **aksiomatik**, **gipotetik** - deduktiv, tarixiylik va mantiqiylik uslublari qo'llaniladi.

Analiz tadqiqot ob'yektining o'zini mayda bo'laklarga bo'lib, ular o'rtaqidagi o'zaro bog'lanishlar va ta'sirlarni o'rganish uslubidir. Nafaqat narsa va hodisalar, balki nazariy qoidalar, nuqtai nazarlar, yondashuvlar ham fikran bo'laklarga bo'lib o'rganiladi. Biroq, analiz sintez yo'li bilan to'ldirilgandagina narsa va hodisalar mohiyati haqida bir butun bilim hosil bo'ladi.

Sintez analiz natijasida fikran yoki jisman bo'lingan unsurlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, ilgarigiga yaqin yaxlitlikni vujudga keltirish uslubidir.

Induktsiya va deduktsiya ilmiy xulosalar chiqarish uslubidir. Induktsiyada ayrim narsalar to'g'risidagi juz'iy xulosalar chiqariladi. Deduktsiya esa narsalarning turkumlari to'g'risida umumiyl xulosalardan ayrim narsalar haqida xususiy xulosalarga o'tish uslubidir.

Analogiya (o'xhashlik, aynanlik, moslik) hodisalar xususiyatlarining o'xhash tomonlarini o'rganish uslubidir.

Ideallashtirish metodida bilish ob'yekti ideal (namuna) holida o'rganiladi. Reallik ideallik bilan almashtirilganda ob'yektga ta'sir o'tkazish imkoniyati vujudga keladi, ya'ni real narsa, hodisa ega bo'lmagan xossalari ham o'rganilib, reallikning namunaviy andozasi hosil bo'ladi.

Modellashtirish—murakkab va qiyin bo'lgan ob'yektlarni tadqiq qilishda qo'llaniladigan uslubdir. Model fikri yoki moddiy bo'lishi mumkin, har ikki xolda ham ob'yektning mohiyati uning modeli obraziga sun'iy ravishda o'tkaziladi. Hozirgi paytda matematik modellashtirish uslubi EHMda keng ravishda qo'llanilmoqda. Endilikda davrning umumbashariy (ekologik, demografik, znergetik v.b.) muammolarini hal qilishda matematik modellashtirish va eksperimentning ahamiyati ayniqsa oshib bormoqda.

Sistemalash (tizimlash) uslubi muayyan tarzda o'zaro bog'langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan unsurlar majmuini o'rganishni o'z ichiga oladi. Buning yordamida o'rganilayotgan yoki izlanilayotgan ob'yektning boshqa ob'yektlar bilan umumiyligi bog'lanishlari, munosabatlari ayon bo'ladi.

Mavhumlikdan anqlikka, anqlikdan mavhumlikka o'tish uslubi ham ilmiy bilishda keng qo'llanib kelinadi.

Aksiomatik uslub tadqiqotning aksioma (isbotlangan haqiqat) larga asoslanib, nazariy xulosalar chiqarishdir. Gipotetik-deduktiv uslubda tajriba ma'lumotlari majmuiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Tarixiylik va mantiqiylik uslubida tarixiy jarayonlarning butun ichki mantiqi bilan payqab olishga intilish yotadi. Mantiqiylik uslubida ko'r-ko'rona harakat bo'lmaydi, balki u tarixiy hodisalarini umumlashtiradi, shu jarayonda tarixiylikni tasodifiy cheklanishlardan saqlaydi.

Ma'lumki, olamning mifologik, diniy-mistik, badiiy, ilmiy va ilmiy-falsafiy manzarasi tarixan hosil etib kelinadi. Yuqoridaq uslublarni obdon o'zlashtirib olish olamning ilmiy-falsafiy manzarasini yaratish orqali odam va insoniyat faoliyatini yo'nalishlarini xatoliklarga og'ib ketishdan saqlab, ijtimoiy taraqqiyot va inson

kamolati qonuniyatlarining ichki murvatlari (mexanizmlari)ni anglab olish qobiliyatini shakllantiradi. Zero, olamning ilmiy-falsafiy manzarasi nazariy qoidalar, tamoyillar va gipotezalardan tashkil topgan va olam haqida tarixan to‘plangan negizli (bazaviy) fikrlar majmuasidir.

Olamning ilmiy-falsafiy manzarasini hosil etishda ilmiy bilish uslublari, tamoyillaridan tashqari ilmiy bilish shakllari ham muhim rol o‘ynaydi. Bular **faraz**, **gipoteza**, **ilmiy nazariya**, **ilmiy bashorat** shakllaridir. Faraz hali etarli tekshirilmagan va fahm-farosatga tayanadigan ilmiy taxmindir. Gipoteza olam haqidagi bilimlarga tayanib turib, muayyan qonuniyatli aloqadorlik borligi haqida fikr yuritishdir. Agar gipoteza isbot etilsa, nazariyaga aylanadi. Nazariya voqelikning muayyan sohasidagi bilimlarga tayanib turib, narsa va hodisalarning eng chuqur aloqadorliklari, sababli bog‘lanishlari, ichki qonuniyatlarini ifodalaydigan bilimlarning sistemaga solingan shaklidir. Nazariy bilim salmog‘i favqulodda qobiliyatli va kuchli fahm-farosat (intuitsiya)ga ega bo‘lgan shaxslarda voqealar rivojining borishiga tayanib turib, keljakni oldindan ko‘rish, bashorat qilish iste’dodi bo‘ladi. Bashorat ilmiy bilimlar, qonunlar, uslublar talablarini e’tiborga olgan holda hodisalarning istiqboldagi holatini oldindan ko‘ra bilishdir.

Xulosa: a) ilmiy bilish uslub (metod)lari olamni ilmiy-falsafiy anglashda betakror o‘ringa ega; b) bilishning dogmatik, sofistik, eklektik, metafizik, sinergetik uslublari mavjud; bilishning dialektik uslubi va tamoyillari tarixning og‘ir sinovlaridan o‘tib, olamiing falsafiy manzarasini anglab olish imkoniyatini tug‘dirib kelmoqda; v) ilmiy bilishning empirik darajasi kundalik tajribalar asosida to‘planadigan bilimlarga tayanib turib, tevarak-atrofdagi hodisalar haqida muayyan xulosalar chiqarish uslubidir; g) ilmiy bilishning nazariy darajasi empirik bilish darajasiga tayanib turib, olamdagи narsa va hodisalarning mohiyatini anglab olish uslubidir. Bunda ilmiy bilish shakllarining ham o‘ziga xos o‘rnini bor.

6-mavzu. Aksiologiya – Qadriyatlar orqali bilish haqidagi ta’limot

Reja:

Kirish so‘zi.

1. Qadriyatlar tushunchasi. Uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni.
2. Qadriatlarning asosiy turlari.
3. Milliy, mintaqaviy va umumbashariy qadriyatlar.
4. Mustaqillik sharoitida qadriyatlarga munosabat.

Xulosa.

O‘tgan va’z (lektsiya)da jamiyat tushunchasining falsafiy mazmunini anglab oldingiz. Ushbu va’zda qadriyatlar, ularning jamiyat taraqqiyoti, inson hayotidagi o‘rni haqidagi falsafiy ta’limotni anglab olasiz. Zero, muayyan jamiyatga uyushgan individlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, elatlari, millatlarning qadriyatlarni anglab, unga amal qilib faoliyat belgilashlari ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qiladi. Shu sababli ular olamni, odamzot o‘zini-o‘zi anglashida alohida ahamiyatga egadir.

1-masala. Qadriyatlar deb muayyan bir tarixiy sharoitda mamlakat, mintaqa va jahon hamjamiyatiga uyushgan individlar uchun bag‘oyat ahamiyatli, qadrli hisoblangan, shuningdek, elatlari, xalqlari, millatlari, ijtimoiy guruhlar va individlar manfaatlari, maqsadlari ifodasi bo‘lgan tabiat va jamiyat xodisalari, ma’naviy va moddiy boyliklarga aytildi. Qadriyat — voqelikdagi narsa va xodisalarning umumbashariy, ijtimoiy-ahloqiy, ma’naviy-madaniy ahamiyatini ta’kidlash uchun qo‘llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksilogik kategoriadir. Ular avvalo moddiy ishlab chiqarish va mintaqaviy boyliklar yaratish bilan bog‘liq xodisadir.

Qadriyat falsafiy atama sifatida dastavval Lattse tomonidan ilmiy muloqotga kiritilgan. Ma’lumki, odamzot his-tuyg‘ulari barcha narsaga qaratilgan bo‘lib, nimani hurmat qilish, e’tirof etish individual tasnifga egadir. E’tiborga sazovor narsa va hodisa bir individ uchun ulkan qadriyat sifatida namoyon bo‘lsa, boshqalar uchun shunchaki bir yoki umuman qadrli hisoblanmasligi mumkin. SHakl jihatidan qadriyatlar ijobiy yoki salbiy, nisbiy yoki mutlaq, sub’yektiv yoki ob’yektiv ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Bulardan tashqari o'zgarmas va yalpi umumiy qadriyatlar to'g'risida ham fikrlar mavjud. Masalan, muhabbat his-tuyg'ulari o'zining jozibadorligi, nozikligi jihatidan turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: a) ehtirosni qondirish; b) o'z huzur-halovatini o'zga jinsda ko'rish; v) insoniyatni ulug'lashda; g) kasbiga, millatiga, Vataniga bo'lgan cheksiz hurmatda. Bularning har biriga bo'lgan munosabat individning shaxsiy sifatlari, muayyan dunyoqarashi va ma'naviy olamiga monand keladigan baholashlariga muvofiq tarzda namoyon bo'ladi.

"Qadriyat" va "baho" tushunchalarini farqlash muhimdir. Qadriyat real va orzudagi narsa yoki xodisa (mavjud yohud ideal)dir, baho esa unga munosabati bildiradi. U yoki bu narsa va xodisani qadrlash yoki qadrsizlanadirish individ va ular uyushmalarining unga munosabati – ijobjiy yoki salbiy bahosiga bog'liq bo'ladi.

Qadriyat avvalo muayyan dunyoqarash, shundan kelib chiqadigan baholash tamoyillariga bog'liq. Muayyan bir dunyoqarash nuqtai nazaridan qadrli bo'lgan narsa, hodisa boshqacha dunyoqarash nuqtayi nazaridan qadrsiz bo'lishi mumkin. Masalan, markscha falsafiy dunyoqarash nuqtayi nazaridan tadbirkorlar sinfi "burjuaziya" nomi bilan atalib, Sho'rolar davrida ular sha'niga tavqila'natlar otildi, chunki davlat va bolsheviklar partiyasining ularga bahosi o'ta salbiy bo'ldi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, tadbirkorlar sinfiga baho ijtimoiy ongda ijobjiy bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shamoqdalar. Islom dini nuqtai nazaridan ichkilikka baho salbiy, binobarin, u musulmonlar uchun qadrsiz; xristian dini nuqtai nazaridan ichkilikka baho ijobjiy, shu sababli u qadrli hisoblanadi. Agar xristianlarga marhumlarni yodlash uchun qabristonga ichkilik olib borib xotirlash qadrli bo'lsa, islom nuqtai nazaridan bunday xatti-xarakat o'taketgan axloqsizlik hisoblanadi. Islomda ko'p xotinlilik ma'qullansa, xristianlikda bunday baho g'ayriinsoniy hisoblanadi va h.k.

Shaxs yoki ijtimoiy guruh qadrlaydigan narsa, hodisa muayyan bir tarixiy davrda ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa bir tarixiy sharoitda uning aksi bo'lishi mumkin. Masalan, arava bir necha asr mobaynida bag'oyat qadrli bo'lib, o'sha davr ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qilgan, zero u moddiy

ishlab chiqarish va ma'naviy boyliklar yaratishida muhim o'rin tutgan. Endilikda fan-texnika rivojlangan bir paytda ular nisbatah qadrsizlandi.

Qadriyatlar individlar mehnat faoliyati majmui bilan bog'liq hodisa bo'lgani sababli, ular shu jarayonda mustaqil soha sifatida amal qiladi. Odamzotning ehtiyojlarini qondirish sirasiga kirmagan narsa, hoidisalar qadriyatli bo'lmaydi. Masalan, yer ostida ilgarilari ham neft, ko'mir, gaz bo'lgan, biroq ulardan foydalanish amaliyotga kirmagan davrlarda qadri bo'limgan. Qachonki, ular yonilg'i sifatida qo'llanila boshlangach, mazkur narsalar umuminsoniy qadriyatga aylandiki, hozirgi davrda maromli hayotni ularsiz tasavvur etish mumkin emas.

Barcha xalqlar uchun babbaravar qadriyatlar ham bor, masalan, tinchlik, barqarorlik, farovonlik hamma elat, xalq, millatlar uchun qaderli, albatta. Biroq mafkuraviy ta'sir mayllari qaysi tomonqa og'ishiga qarab, muayyan bir tarixiy sharoitda ma'lum bir xalq va xalqlar uyushmalari uchun ular qadrsizlanishi mumkin. Masalan, ba'zi xalqlar, millatlar uchun muayyan bir tarixiy vaziyatda tinchlik, barqarorlik, farovonlikka putur yetkazuvchi yalpi qirg'in qurollari oliv qadriyatga aylanishi mumkin, sulhparvar xalqlar tichun ular nihoyatda qadrsiz, xatto nafrat his-tuyg'ularini vujudga keltiradigan narsalardir.

Umuminsoniy ma'naviy va moddiy qadriyatlarga baho har doim ijobiy bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Masalan, individ va shaxslar ozodligi, salomatligi, har biş odamning maremli yashashi, ilm qolishi, keksayganda ijtimoiy kafolatlanish yoki non, suv, musaffo havoga doir qadriyatlar o'z qadrini doim saqlab qolaveradi.

2-masala. Qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi:

I. a) inson va uning hayoti—eng oliv qadriyatdir; b) tabiiy qadriyatlar – yer va yerosti, yer usti boyliklari, suv, havo, o'simliklar va hayvonot olami; v) odamzot mehnati va aql-zakovati bilan yaratilgan "ikkinchi tabiat" ning ja'misi; g) ma'naviy-madaniy qadriyatlar; d) ahloqiy qadriyatlar; j) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar. Ayni chog'da turli shakldagi mulkdorlarga tegishli bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar ham borligini nazarda tutish kerak.

II. Qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi.

III. Qadriyatlar jamiyat rivojining inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazaridan taraqqiyotga xizmat qiladigan (progressiv) va taraqqiyotga to'siq bo'ladigan (reaktsion) qadriyatlarga ajratiladi. Qadriyatlar aksariyati odamzotning erkin, farovon, hamjihatlikda yashashi, ma'naviy-ahloqiy kamolotga erishuv uchun xizmat qilishi kerak. Binobarin, ularni asrash, avaylash, muhofaza qilish, qadrlash, yuksaltirish shaxsiy hayot uchun ham, ijtimoiy taraqqiyot uchun ham katta ahamiyatga ega.

Shunday bo'lishiga qaramay, ayrim sabablarga ko'ra, qadriyatlarni qadrsizlanishi, poymol etilishi natijasida ba'zi odamlar, ijtimoiy uyushmalarda yovuzlik ruhining ta'sirida qonunbuzarlik, ahloqsizlik, har bir millatga xos xayrli an'analarga zid keluvchi xatti-harakatlar ham mavjuddir. Individlarning qadriyatlarga iste'molchi yoki oddiy kuzatuvchi, befarq qarovchi kayfiyatlariga qarshi g'oyaviy kurash olib borish muhimdir.

Hayotda hech bir narsa abadiy bo'limgani kabi qadriyatlar ham turg'un tushunchalar emasligini nazarda tutish kerak. Binobarin, ma'lum bir tarixiy davrda, muayyan mamlakat, mintaqada va jahonda qadrli bo'lgan narsa va hodisa boshqa paytda, joyda qadrsizlanishi, ma'lum bir vaqtida qadrsizlangan narsa boshqa vaqtida qadriyatga aylanishi ham mumkin. Masalan, ilgarilari O'zbekistonda paranji qadriyat bo'lgan, endilikda u qadrsizlangan. Avvallari kalta ko'ylik kiygan, badanlarini oshkora namoyish etgan qizlar va ayollar qadrsizlangan, endilikda G'arb madaniyati ta'sirida, bizda ham asta-sekin bunday kiyimlar qadrlanib, uni kiyganlarga ehtirom oshib bormoqda. Ayni chog'da ayollarning ochiq-sochiq yurishi natijasida erkaklardagi ularga nisbatan jo'shqin ehtiros his-tuyg'ulari susayib ketmoqda.

Muayyan bir narsa va hodisaning qadrlanishi yoki qadrsizlanishi ma'lum bir siyosat va milliy mafkura mazmuni qanday yo'naliш olishiga ham bog'liq.

3-masala. Qadriyatlar amal qilish doirasi (chegaralari)ga ko'ra milliy, mintaqaviy, umumbashariy turlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab va nozik ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u avvalo har bir etnos va millatning o'zigagina xos ma'naviyati bilan bog'liq uning tili, ma'naviyati, an'analari, tarixiy xotirasi orqali baholashning betakror usulidir. Har bir

mamlakatga uyushgan turli etnoslar uchun umumiy bo'lgan qadriyatlar milliy qadriyatlar sirasiga kiradi. Ayni chog'da muayyan mamlakatda titul millatning o'ziga xos qadriyatları ham bo'lib, ular shu millat nomi bilan ataladi. Masalan, Rossiyada juda ko'p etnoslar, millatlar yashaydi. Biroq ruslar titul millat bo'lganligi sababli ularning o'ziga xos qadriyatları mavjud, shu tufayli rus millati qadriyatları ajralib turadi. SHuningdek, O'zbekistonda 130 dan ortiq millat namoyondalari* bor.Ular O'zbekistonning teng huquqli grajdanolari sifatida o'zlariga xos qadriyatlariga ham egadirlar. SHu o'ziga xos qadriyatları tufayli, boshqa etnos va millatlarda tillari, an'analari, ma'naviy-ruhiy holatlari bilan bog'liq ravishda o'ziga xosliklari namoyon bo'lib turadi.

O'zbeklar O'zbekistonda titul millat bo'lgani sababli, o'zbek milliy qadriyatları ham bor. Binobarin, milliy qadriyatlar va o'zbek milliy qadriyatları tushunchalarining birinchisi umummilliyl, ikkinchisini ayrimlik deyish mumkin, ya'ni har bir etnos namoyondasi va o'zbek millati umumiylilik ichidagi ayrimlikdir. Boshqacha aytganda, falsafada umumiylilik, xususiylik va ayrimlik kategoriyasiga muvofiq, o'zbeklar va qoraqalpoqlar O'zbekistonda umumiylilik ichidagi xususiylik bo'lsa, boshqa etnoslar xususiylik ichidagi ayrimlikdir. SHu nuqtai nazardan qaraganda O'zbekistonda faqat o'zbeklar va qoraqalpoqlar millat sifatida yashaydilar, boshqa mamlakatlardagi o'zbeklar esa o'sha mamlakatlarda yashayotgan o'zbek millati namoyondasi hisoblanadi.

Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlar va o'zbek millati qadriyatları degan tushunchalar muloqotga kira boshladi. Ularning 1-si umummilliyl, umuminsoniy bo'lsa, 2-sini esa umumiylilik ichidagi ayrimlik, ya'ni o'zbek etnosining tarixiy takomili bilan bog'liq hodisa, deyish mumkin. Bu qadriyatlar umummilliyl, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlarga ters emas, balki o'zbeklarning tarixan shakllangan va faqat ularning o'zlariga xos qadriyatlaridir. Masalan, mehmonnovozlik barcha millatlarda bor, biroq o'zbeklarda bu o'ziga xos milliy va

*Adabiyotlarda, jumladan ilmiy, falsafiy, badiiy adabiyotlarda «millat vakillari» iborasi qo'llanishi, bu tushuncha haqqiqiy holadan e'tiborni chalg'itadi. Chunki ularni, masalan ruslar yoki boshqalarni biron- bir davlat bu mamlakatda yashashlari uchun vakil qilmagan. Shu tufayli, ularni boshqa mamlakatlarda millat bo'lib yashayotgan ijtimoiy uyushmalarning bu mamlakatdagi namoyondasi deyish, to'g'ri bo'ladi

psixologik tarzda namoyon bo'ldi hamda baholanadi. Chet eldan kelgan sayohatchilar o'zbeklarning mehmonga, mehmonorchilikka munosabatlaridagi o'ta samimiyatliliqi, xolisligiga qoyil qoladilar. Yoki ojilaviy munosabatlardagi qadriyatlar ham o'z milliy koloriti bilan boshqa millatlarga jozibali ko'rini, unga ijobiy baho beriladi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov "O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida bunday deydi: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manba'i xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz adolat, tenglik, axil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda". Zero, o'zbeklar inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksak baholaydilar. Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash – milliy mafkuramiz umumiy ruhini tashkil etadi, chunki o'zbeklar va O'zbekiston xalqlari mintaqada yashayotgan milliy respublikalar birligi, hamkorligi, hamjihatligiga rahna solishdan manfaatdor tashqi kuchlar borligini yaxshi anglaydilar. SHu tufayli Markaziy Osiyo xalqlari orasida tinchlik, barqarorlikka yuksak baho berish, uni umummintaqaviy qadriyatga aylantirish O'zbekiston davlati siyosatida etakchi mayl (tendensiya) hisoblanadi.

Odamning muayyan millatga mansubligini anglash tuyg'usi avvalo o'z xalqi tarixi, ma'naviyati, o'ziga xos qadriyatlarini bilishdan boshlanadi. Agar odamda milliy ong va g'urur omonat bo'lsa, u o'zligini yo'qotib, o'z millati ma'naviyati, turmush tarzini qadrlash qobiliyatidan mahrum bo'lib, inson sifatida barbob bo'ladi.

Milliy xilma-xillik tabiat ato etgan eng ulug' ne'mat bo'lib, kichik bir etnosning o'z tili, o'ziga xos ma'naviyati, madaniyatidan maxrum etishga qaratilgan har qanday harakatga umuminsoniy xalokat sifatida qaralmog'i lozim. Chunki biron-bir etnos va millatni milliy qadriyatlар (avvalo tili) dan mahrum etishga urinish butun bashariyat oldidagi eng katta jinoyat sifatida baholanishi zarur.

Mintaqaviy qadriyatlар iqtisodi, ma'naviyati, madaniyat, umumiy tarixi, tili, dini, an'analarini bir-biriga yaqin, tarixiy taqdiri' mushtarak bo'lgan xalqlar, millatlar umumiy manfaatlariga xizmat qiladigan, ularni jipslashtiradigan tabiiy va ijtimoiy

hodisalar tushuniladi. Masalan, Markaziy Osiyoda o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar va qoraqalpoqlar millat sifatida o'z davlati, teritorial birligi, ma'anaviyati va madaniyatidagi o'ziga xoslikdan tashqari, umumiy manfaatlari, tarixiy xotirasi va mushtarak taqdiri ifodasi bo'lgan qadriyatlar mavjud. Ular doimo og'a-inidek, bir jon-bir tan bo'lib yashagan davrlarda qudratli davlatlarga ega bo'lganlar, quda-andachilik aloqalari natijasida va boshqa omillar tufayli yagona taqdirda ega bo'lib qolganlar. Ular an'analari, turmush tarzları, ma'naviy olami va madaniyatidagi umumiy jihatlar tufayli yalpi umumiy qadriyatlar shakllangan. Bolajonlilik, oilani ulug'lash, mehmonnavozlik, do'stlik, qardoshlik, o'zaro hamkorlik, hamdo'stlik kabi his-tuyg'ular mintaqaga xalqlari, millatlarining umumiy qadriyatiga aylangan. Bu qadriyatlarni e'zozlash, ko'z qorachig'idek asrash orqali mintaqaga xalqlari jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rinnariga ega bo'lismeni har bir grajdan anglab olishida milliy mafkuralarning o'mni va ta'siri ulkan.

Umumbashariy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, xalqlar va elatlarning umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Zero, jahondagi biron ta xalq, millat boshqa millatlardan, umumiy sivilizatsiyadan ajralgan holda ayro yashay olmaydi. Har qanday millat tarixan boshqa xalqlar, millatlar tajribalaridan ijodiy foydalangan holda taraqqiyotga erishishi mumkin. Globallashuv jarayoni ketayotgan hozirgi davrda Er yuzida xalqaro timchlikni saqlash, xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlash, yadro qurollari poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, xavfli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, fan, texnika va texnologiya ravnaqi uchun kurash, ekologik inqiroz oldini olib qolish umumbashariy qadriyatlar sirasiga kiradiki, barcha davlatlar, xalqlar ularni e'zozlash orqali ravnaq topishlari mumkin.

O'z mohiyatiga ko'ra, qadriyatlarning insonparvarlik, tabiiy, ma'naviy, madaniy, axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy turlari mavjud. Qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti va inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra, progressiv yoki reaktsion bo'lishi mumkin. Ijtimoiy taraqqiyot, inson kamolati va bashariyat ravnaqi uchun xizmat qiladigan barcha qadriyatlар progressiv (taraqqiyparvar), buning aksini

ifodalaydigan qadriyatlar esa reaktsion (teskarichi) hisoblanadi. Urushlar, unga tayyorgarlik ko‘rish, qurollanish poygasini avj oldirish, millatlar, xalqlar orasini buzib, ular ustidan hukmronlik qilishga, terrorchilik harakatlarini rag‘batlantirish – bular endilikda taraqqiyotga zomin bo‘ladi, ular insoniyatga qarshi qaratilgani uchun qadrsizlanishi lozim.

4-masala. Biror narsa, hodisaning qadrlanish yoki qadrsizlanishida siyosat va mafkuraning roli katta. Masalan, sobiq SHO‘rolar davrida milliy tilning qadrsizlana borishi va rus tilining qadri oshishida bolshevistik siyosat mafkurasining roli katta bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqilligi arafasida davlat tili haqidagi Qonunning qabul qilinishi bunday g‘ayritabiyy jarayonlarning yo‘lini to‘sdi, albatta. Biroq, baribir, o‘z milliy tilini qadrlamaydigan, xatto uni xorijiy tillar soyasida qoldirishdan uyalmaydigan manqurt o‘zbeklar hamon uchrayotgani har bir sog‘lom aql egasini jiddiy tashvishga soladi. Toshkent va boshqa ba’zi-bir shahar ko‘chalari bo‘ylab yurganeringizda, faqat rus yoki boshqa xorijiy tillardagi e’lonlar, reklamalarni ko‘rib, qaysi mamlakatda ekanligingizni unutishga sal qoladi. Ba’zi yirik yig‘inlar rus tilida olib boriladi, uni o‘zbek tiliga tarjima qilib berish lozim topilmaydi.

Adabiyotlarda, jumladan, ilmiy asarlar va tadqiqotlarda o‘zbek tilini qashshoqlashtirish, dag‘allashtirish xo‘satlari uchraydi. Har qanday til boshqa tillar, jumladan, fan-texnika taraqqiyoti natijasida boyib boradi, albatta. Biroq, ularning boyishi mavjud milliy tillarga doir so‘zлarni siqib chiqarish hisobiga bo‘lmasligi lozim. Masalan, o‘zbek tilida “bekat” so‘zi bor. Hozir buning o‘rniga “ostanovka” so‘zi qo‘llanilayotgani, u so‘z iste’moldan chiqib bormoqda. Yoki o‘zbek tilida “marom” so‘zi bo‘la turib, keng miyosda u ma’nodagi “norma” so‘zi qo‘llanilishi natijasida o‘zbek tili ham dag‘allanib, ham qashshoqlashib bormoqda. Har ikkisini sinonim so‘zlar sifatida muloqotga kiritilsa, til boyiydi, albatta. Demak, o‘zbek tilini O‘zbekistonda Davlat tili sifatida qadrlash va baholash darajasini har bir fuqaro jiddiy o‘ylab ko‘rishi maqsadga muvofiqdir.

Tarixdan ma’lumki, elat, xalq va millatni boshqa yirik xalqlar, millatlarga assimilyatsiya etish avvalo uning tilini qadrsizlantirish va yo‘q qilishdan boshlangan.

Holbuki har bir etnos, u ko‘p yoki oz miqdorda bo‘lishidan qatiy nazar, vujudga kelish va ravnaqi tabiat va jamiyat qonunlari asosida ro‘y beradi. Jahondagi milliy xilma-xilliklar xuddi genetik dasturlardagi turli-tumanliklar kabi taqdirning tasodifiy “xazillari” dan “Homo Sapiens”ni himoya etish vositasidir. Chunki har bir milliy ma’naviyat va madaniyat – odamzot tarixiy tajribasining buyuk xotirasidir. Milliylikni, demak, ma’naviy-madaniy rang-baranglikni yo‘qotish go‘yoki genetik dastur xilma- xilligidan mahrum bo‘lish kabi nihoyatda xavfli, insoniyat kelajagi uchun xalokat bilan barobar xatarlidir. Chunki har bir etnik birlik (u ko‘p sonli yoki kam sonli bo‘lishidan qat’iy nazar) tarixan to‘plagan tajribasi, qadriyatlar va ularni baholash mezonlari negizidagina umumplanetar, umuminsoniy xotira va qadriyatlar qaror topishi mumkinligini har bir davlat siyosati, mafkurasi, ma’naviyatida o‘z mujassamini topishi davr taqozosidir.

Qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati bag‘oyat ulkan. Chunki ularda insonlarni yuksak ma’naviyat, ibratli odob-ahloq, olajanob fazilatlari, yaxshilikni ulug‘lab yomonlikni qoralashga qaratilgan da‘vatlar, pand-nasihatlar, o‘gitlar ja’muljam bo‘lib, insoniyatning yashashi, farovonlikka erishish istaklari ularda mujassamlashgan.

Xulosa: a) qadriyatlar muayyan dunyoqarash, borliqni xis etish, shu bilan bog‘liq baholash tamoyillariga bog‘liqdir; b) qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, asosan olti turga bo‘linadi; v) qadriyatlar amal qilish chegarasiga ko‘ra, milliy, mintaqaviy, umumbashariy turlarga bo‘linadi; g) bir narsa, hodisaning qadrlanishi yoki qadrsizlanishida siyosat va mafkuraning roli (mavqeい) katta.

IV BOB. Hozirgi zamonning global muammolari

Reja:

Kirish so‘zi.

1. “Global muammolar” tushunchasi va u XX asrdagi ITI natijasi sifatida.
2. Hozirgi davrning asosiy global muammolari va ularning falsafiy tahlili.
3. Globallashuv hozirgi davr taraqqiyotining asosiy mayli (tendentsiyasi): uning ijobjiy va salbiy jihatlari.
4. Global muammolarni hal qilishda jahon hamjamiyatining o‘rnini va mavqeini (rolini).

Xulosa.

XX asrning 2-yarmidan boshlab jahon hamjamiyati ijtimoiy taraqqiyotning yangi bir davriga qadam qo‘ydi. Ilmiy-tehnika inqilobi (ITI) tufayli qulay turmush sharoiti uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Ammo siyosatchi va maskurachilarda g‘or odamlariga xos tafakkur tarzining yashovchanligi tufayli, jahon hamjamiyati yangi jiddiy xavf-xatarga duch keldiki, ushbu va’z (lektsiya)da ana shu muammolarni anglab olibgina qolmay, ayni chog‘da yangi davr odamlardan falsafiy tafakkur tarzini taqoza etayotgani, falsafiy dunyoqarash xaqligiga chin qalbdan ishongan, unga e’tiqod (ixlos) qo‘ygan imonli kadrlar zarurligi ayon bo‘ladi.

1-masala. XX asrni “ogohlantirish asri” deyish mumkin. G‘arb olamida XVI asrdan boshlangan ITT, ayniqsa atom parchalanishining kashf etilishi bilan bog‘liq ITI, rentgen nurlarining topilishi va boshqalar asrlar davomida shakllangan tafakkur tarzi va qadriyatlarga putur etkazdi. G‘arbdan yopirilib kelayotgan erkin, ammo imondan mahrum ma’naviyatning yo‘lini to‘sish mumkin bo‘lmadi. Aslida bu ilm-fan yangi texnika va texnologiyaga asoslangan ma’naviyat bir tomonidan misli ko‘rilmagan qulayliklarni vujudga keltirdi. Boshqa tomonidan esa, odamzotdagи hayvoniylar—olg‘irlilik, bosqinchilik imkoniyatini kengaytirib, ikkita qirg‘inbarot jahon urushlari insoniyat boshiga behad kulfatlar keltirdi. Ayni chog‘da 3-jahon urushi chiqquday bo‘lsa, umuman Er sharida tirik mavjudotlar yashash imkoniyati yo‘q bo‘lishi real xavfga aylandi.

XX asr oxirida SSSR boshliq “sotsialistik lager” deb atalgan harbiy-siyosiy blokning barham topishi jahon hamjamiyati harakatini faqat bunyodkorlik tomonga og‘dirish imkoniyatini tug‘dirgan bo‘lsa-da, ammo yirik davlatlarda qurollanish poygasi davom etib, jahon urushi xavfi insoniyat boshida qora bulutdek turibdi. Lokal urushlar, terrorchilik harakatlari bunda yirik davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni qarama-qarshi tomonga og‘dirib yuborish uchun bir turki bo‘lishi ham mumkin. Bu ofatning oldini olib qolish uchun taraqqiyat parvar xalqlar, davlatlar kurash olib bormoqdalar. Jumladan, O‘zbekiston xalqi va davlati tinchlik, o‘zaro foydali hamkorlik uchun kurashmoqda.

2-masala. “Global” so‘zi “globus” ma’nosida “Yer shari”ni anglatadi, binobarin, Yer yuzida yashayotgan ja’miki odamlarga daxildor masalalar “global muammo” bo‘lib, uning yechimini topishda bironqa xalq, bironqa mamlakat o‘zini chetga olishga xaqi yo‘q. Global muammo butun insoniyat muammolari ja’misi bo‘lib, bular avvalo demografik, xomashyo, energetik va ekologik muammolardir.

Mavjud raqamlar Yer kurrasining hozirgi ahvolini tushunishga imkon beradi va quyidagi muammolar jahon xalqlari yechimini topish, kuchlarni birlashtirishni taqoza etadi: 1) termoyadro urushi xavfining oldini olib qolish; 2) ITI tufayli barcha mamlakatlarda an’naviy turmush tarzi izdan chiqishi oqibatiqa, ma’naviy tubanlik, ahloqiy noplilik mayllarining yo‘lini to‘sib qolish; 3) rivojlangan mamlakatlar bilan taraqqiyotdan nisbatan orqada qolgan xalqlar iqtisodi o‘rtasida tafovutni hisobga olib, ulardagi iqtisodiy qoloqlikka barham berish orqali ocharchilik va qashshoqlikni tugatish; 4) globallashuv sharoitida milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish choralarini izlab topish muhimdir; zero, milliy xilma-xillikni yo‘qotish insoniyat kelajagi uchun xalokat bilan barobardir; chunki har bir etnik birlikning tarixan to‘plagan xotirasi, qadriyatları negizidagina umuminsoniy xotira va qadriyat qaror topishi mumkin; 5) ijtimoiy ishlab chiqarish tobora baynalmillallahib borishi natijasida odamzot genofondini saqlab qolish uchun milliy mustaqil respublikalar ravnaqiga yo‘l ochish negizida internatsional aloqalarni rivojlantirish yo‘llarini izlab topish; 6) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun tabiiy resurslarning yangi turlarini izlash va ulardan foydalanish kerak.

3-masala. Hozirgi zamon umumbashariy—global muammolar yangi siyosiy tafakkur, yuksak ma'naviyat va misli ko'rilmagan birlashgan amaliy harakatlarni taqoza etmoqda.

Globallashuv tufayli informatsiologiya fani shakllanib, olamdagi barcha jarayonlarni axborotlar asosida umumlashtirish imkoniyati vujudga keldi. Endilikda informatsion jamiyat haqidagi ta'limot bo'yicha, agrar, industrial va postindustrial jamiyatlar to'g'risidagi g'oyalar ilgari surilmoqda. AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa davlatlari postindustrial jamiyat fazasiga kirgan hisoblanmoqda.

Umuman informatsiyalarni o'z vaqtida tez va yetarli olish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatlar rivoji tezlashayotgani diqqatga sazovordir. Masalan, iqtisodda ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish o'rtasida aloqadorlik kuchaymoqda. Ma'naviyat sohasida tajriba almashish imkoniyatlari kengayib bormoqda, bu esa boshqa sohalarga ham ijobjiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa bu—fanlar rivoji uchun keng ufqqlarni ochmoqda. San'atda, maorifda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning elektron shakliga o'tilmoqda. Siyosiy sohada davlat xokimiyati markazlashishi natijasida shaxs erkinligi salmog'i oshib, fuqarolarning davlat bilan bevosita ishtirotki ta'minlanmoqda.

Jamiyatning axboratlashuvi ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy mexanizmlarining umumiyligi rivojlanishi jarayoni ketmoqda.

Globallashuv jarayonida; a) transnatsional harakatlar ta'siri kuchayib, sayyoramiz zahiralariga, inson hayoti va faoliyatiga hujum oshib bormoqda. b) dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik kuchaymoqda. Masalan, 1913 yilda dunyodagi eng boy mamlakatlar bilan qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi tafovut nisbati 11:1 ga teng bo'lsa, 1971 yilga kelib, u 74: 1 ni tashkil etdi; v) global iqtisodiy jarayonlar tazyiqiga uchrangan mamlakatlarda turli nizolar chiqib, ular davlat to'ntarishlari va urushlarga aylanib ketmoqda; g) migratsiya oqimi ko'payib, natijada malakali kadrlar rivojlangan mamlakatlarga ketib qolmoqda; d) jahon moliya bozorida bank sistemasidagi xatoliklar tez orada boshqa mamlakatlarga tarqalib, aholini tang axvolga solib qo'yemoqda; s) qurol-yarog' va giyohvand moddalaridan tortib odam tanasi a'zolarini tovar sifatida sotib, boylik orttirish bo'yicha transnatsional

mafiyalar vujudga kelmoqda.

4-masala. Global muammolar paydo bo‘layotganini jahonga taniqli olimlar XX asr boshidayoq anglab, Noosfera—Aql sohasi tushunchasini ilmiy muloqotga kiritgan edilar. Bu konseptsiyaga ko‘ra, Noosfera biosferaning shunday bir holatiki, Yer kurrasini aql, uning natijasi bo‘lgan fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan jahon hamjamiyati umumiy manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun yangicha dunyoqarashni shakllantirishni taqoza etayotgani ilmiy-jihatdan asoslandi. Ilmiy-texnika inqilobi natijasida Ona-tabiatni asrab-avaylash uchun umumjahon hamjamiyati ma’suliyati nihoyatda oshib borayotgani uchun Aql sohasini faqat bunyodkorlik maqsadlariga burib yuborish zarurligiga e’tibor qaratilmoqda.

Olimlarning bu ogohlantirishlarini yirik davlatlarning siyosatchilari va mafkurachilari nazar-pisand qilmadilar. Natijada juda katta moliyaviy va odamzot resurslarini ikkinchi jahon urushiga sarflab yuborishdi. Xususan XX asr o‘rtalarida yuzaga kelgan ITI tufayli, odamzot uchun yangi katta imkoniyatlar vujudga kelgan edi. Biroq tarafkashlik mafkurasidan zaharlangan yirik davlatlar yangi jahon urushiga tayyorgarlik ko‘rish uchun quronish poygasini kuchaytirib yubordilar. Atom-yadro urushi tufayli Yer yuzida yashash imkoniyati qolmasligi va jahon afkor ommasining tinchlikni va Yer yuzini halokatdan saqlab qolish uchun boshlagan umumiy harakati natijasida jahon urushining oldi olinib qoldi. O‘tgan asrning 90-yillarida SSSR deb atalgan davlat boshliq harbiy-siyosiy blok tarqab ketgan bo‘lsa-da, ammo NATO bloki hamon saqlanib qolmoqda. Jahon afkor ommasi hali ham urush havfi ostida yashamoqdaki, bu Aqlning vayronkorlik tomonga og‘ishi davom etayotganidan dalolatdir.

Ijtimoiy vogelikdagi tub sifat o‘zgarishlari tufayli, individlar ongida umumjahon muammolarini hal etishga qo‘shilish mayllari paydo bo‘lsa-da, ammo an’naviy tafakkur tarzida jiddiy o‘zgarishlar sezilmayapti. Ya’ni, bir odam, bir ijtimoiy qatlam, bir xalq, bir millat maromli (normal) yashashi uchun boshqalar ham yaxshi yashashga haqli, aks holda chin ma’nodagi farovonlik bo‘lmaydi, degan tafakkur tarzi shakllanishi nihoyatda qiyin kechyapti.

Bu hol yana g‘or odamlariga xos tafakkur va turmush tarzi, ya’ni kimdir

bekamu-ko'st yashashi uchun kimladir xoru zor bo'lishi zarur, degan qarashlar xukm surishi uchun g'oyaviy asos bo'lib qolmoqda. Endilikda boshqa xalqlarni urush yo'li bilan asoratga solib, ularning boyligi va kuchidan oshkora foydalanish imkoniyati niroyatda cheklanib qolsa-da, yirik davlatlar o'ttacha va kichik mamlakatlarni o'z ta'siriga olish uchun g'oyaviy kurashni kuchaytirib, lokal urushlar chiqarishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Ma'naviy inqirozning kuchayishi natijasida inson ruhi va jamiyatdagi ahloqiy muhit qashshoqlashib bormoqda. Bu esa har bir mamlakatda nafs qurbanlari—uyushgan jinoyatchilar, toshbag'irlik, insonlar taqdiriga befarqlik qusurlari rivoji uchun qulay ijtimoiy-siyosiy muhit saqlanib qolmoqda.

BMT ning 1992 yilda Rio-de Janeyroda davlat va hukumat vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan atrof-muhit va taraqqiyotga doir konferensiyada agar industrial-texnologik va iqtisodiy munosabatlarda boshqa mamlakatlar xalqlari Ovrupo va Shimoliy Amerika mamlakatlari yo'lidan borsalar, unda yaqin kelajakda tsivilizatsiya ekologik halokatga uchrashi muqarrar, degan xulosaga kelindi. Shu tufayli jahon hamjamiyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni va atrof muhitni himoyalashni barqaror rivojlanish pallasiga o'tishini davrning o'zi taqzoza etmoqda. Buning uchun har bir odam bu holatni aniq-ravshan tasavvur etgan holda dunyoqarashning yangi tarixiy vaziyatga muvofiq o'zgarishi, o'zidagi hayvoniy xirslarga barham bera oladigan tafakkur tarziga ega bo'lishi lozim. Bunda falsafaning fan sifatida o'rganishning alohida o'rni bor, albatta,

Xususan Noosfera, to'g'risidagi konseptsiyaga muvofiq, Aqlni to'la-to'kis bunyodkorlik tomonga burib yuborish barcha milliy mafkuralarning doimiy targ'ibotiga aylanishi, jumladan, adabiyot va san'at namoyondalari ham shu yo'nalishda ta'sirli asarlar yaratsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi.

Xulosa: a) global muammolar jahondagi barcha xalqlar taqdiriga doir bo'lib, ularning yechimini topish tarixiy zaruratdir; b) hozirgi davrning asosiy global muammolari - demokrafik, xomashyo, energetik, ekologik va boshqalardir. v) Global hushuvning ham ijobiy, ham salbiy jihatlarini bor; g) global muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi davr taqzasidir.

Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

Rasmiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., “Ma'naviyat” nashr., 2008.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar. T., “O'zbekiston” nashr., 2009.
3. Karimov I.A. Obod va ozod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T., “O'zbekiston” nashr., 2000.

Asosiy adabiyotlar

1. Falsafa (o'q.qo'l.) E.Yu. Yusupov umumiy taxriri ostida.T., “SHarq” nashr.,1999. Uning 2-nashri 2005 y.
- 2.Falsafa asoslari. T., “O'zbekiston” nashriyot-matbaa uyi – 2003 y.
3. Falsafa. Ma'ruzalar matni. T., 2000.
4. Falsafa. M. Ahmedova umumiy taxriri ostida. T., Faylasuflar Milliy jamiyatni nashr., 2006 y. (lotin alifbosida).
5. Tulenov J.T. Falsafa fani va uning xususiyatlari. II bo'lim. T., TDPU nashr., 2001 y., 3-74, 77-109. Borliq falsafasi. Uchinchi kitob. T., TDPU nashr., 2001 y.
6. Bilish Falsafasi (Gnoseologiya). T.,“Universitet” nashr., 2005. (tuzuvchi va tarjimon Qiyom Nazarov).
7. Baxtiyor To'raev. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyatlari. T., 2011., 5-123.
8. Karimov I., Rustamova M. Falsafa fani tarixi va nazariyasi (metodik qo'llanma). T., TDPU nashr., 2007. (kirill va lotin alifbosida).
9. P.V. Alekseev, A.V. Panin. Filosofiya. Uchebnik, izd. vtoroe. Moskva, Izd. “Prospekt”, 1999.
1-mavzu (3-77); 3-mavzu (342-373); 6-mavzu (446-508); 7-mavzu (374-401);
8-mavzu(156-194); 9-mavzu (102-156); 10-mavzu(509-549).
- 10.F.V. Lazarev, M.K. Trifonova. Filosofiya. Simferopolъ, izd. “Sonat”, 2003 g., Uchebnoe posobie., izd. vtoroe.

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3-7
I BOB. FALSAFA FANINING UMUMIY MASALALARI.....	8-27
1-mavzu. Falsafaning fan sifatida shakllanishi — tarixiy-tadrijiy (evolyutsion) jarayon.....	8-17
2-mavzu. Falsafa fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari.....	18-22
G'arbiy Ovrupo va Rossiyada falsafiy fikrlar rivoji.....	22-27
II BOB. ONTOLOGIYA — BORLIQ VA UNING SHAKLLARI HAQIDAGI FALSFAFIY TA'LIMOT.....	28-65
1-mavzu. Moddiy borliqning tuzilishi va mavjudlik shakllari.....	28-37
2-mavzu. Tabiat va odamzot — borliq shakllari sifatida.....	37-47
3-mavzu Ma'nnaviy borliq: uning tarixiy-tadrijiy rivoji.....	47-56
4-mavzu. Ijtimoiy va virtual borliq shakllari.....	56-65
III BOB. GNOSEOLOGIYA — OLAMNI BILISH HAQIDAGI TA'LIMOT.....	66-103
1- mavzu. Ong va bilishning tabiiy-ilmiy va falsafiy masalalari.....	66-70
2-mavzu. Bilish jarayonining darajalari va bosqichlari.....	70-76
3-mavzu. Qonun va falsafa fani qonunlari olamni ratsional (aqliy) bilish omili sifatida.....	77-81
4-mavzu. Falsafa fani juft kategoriyalarining olamni falsafiy bilishdagi o'mni.....	82-86
5-mavzu. Metodologiya — olamni ilmiy bilish uslublari haqidagi ta'lilot.....	87-94
6-mavzu. Aksiologiya — Qadriyatlar orqali bilish haqidagi ta'lilot.....	95-103
IV BOB. HOZIRGI ZAMONNING GLOBAL MUAMMOLARI.....	104-108
Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.....	109

IBROHIM KARIMOV

FALSAFA FANIDAN LEKSIYA MATNLARI

(Oliy o‘quv yurtlari yosh muallimlari va bakalavrлari uchun 2003-yilda nashr
etilgan uslubiy qo‘llanmaning yangi, to‘ldirilgan, takomillashtirilgan ikkinchi nashri)

Adadi 250 nusxa. 7 b/t. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
«Times New Roman» garniturasи. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.

